

003

G 19

GANIYEV SALIM KARIMOVICH
GULOMOV SHERZOD RAJABOYEVICH

AXBOROT NAZARIYASI VA KODLASH



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**


**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**GANIYEV SALIM KARIMOVICH
G'ULOMOV SHERZOD RAJABOYEVICH**

AXBOROT NAZARIYASI VA KODLASH

**O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar
vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan**

prof. S.K. Ganiyev tahriri ostida



**Toshkent
“METODIST NASHRIYOTI”
2024**

UDK: 003.295:621.391(075)

BBK: 32.811.4ya7

G 19

Ganiyev S.K.

**Axborot nazariyasi va kodlash/ G‘ulomov SH.R./. Darslik.
– Toshkent: “METODIST NASHRIYOTI”, 2024. – 132 b.**

“Axborot nazariyasi va kodlash” fani bo‘yicha darslik tayanch oliv o‘quv yurti Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining “Axborot xavfsizligi” kafedrasi professor-o‘qituvchilari tomonidan tayyorlangan bo‘lib, unda informatsiya, informatsion jarayonlar, sistemalar, texnologiyalar; informatsiyaning miqdoriy baholash, entropiya; shartli entropiya va birlashma entropiya; nisbiy entropiya va xabarlarning ortiqchaligi; xalallli va xalalsiz aloqa kanalarri bo‘yicha informatsiyani uzatish tezligi va aloqa kanalining o‘tkazish qobiliyati; informatsiyani zichlash; kodlar, kodlash va dekodlash, kodlash nazariyasining assosiy tushunchalari; samarali notejis kodlarni qurishning Shannon-Fano va Xaffmen algoritmlari; butun sonlarni kodlashda ishlataladigan Eliasning samarali notejis kodlari; xalallarga bardosh kodlash; kodning tuzatish qobiliyati bilan kod masofasi orasidagi bog‘liqlik; berilgan tuzatish qobiliyatli kodlarni qurish; chiziqli blok kodlar; Xemming va Siklik kodlar, ularni kodlash usullari va vositalari; uzlusiz va zanjir rekurrent kodlar xususida ma’lumotlar berilgan. Darslikdan analog shakldagi signallarni raqamli shaklga va raqamli shakldagi signallarni analog shaklga keltirish; avtomatlar nazariyasi; kod o‘zgartirichlari hamda kodlash yordamida informatsiyani himoyalash xususidagi materiallar ham o‘rin olgan.

Taqrizchilar:

F.R.Nurjanov – TDAU “Qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish va axborot-texnologiyalari masalalari bo‘yicha” prorektori t.f.n.

A.Ne’matov – TATU “Multimediya texnologiyalari” kafedrasi dotsenti

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022–yil 13-maydagi 166–sonli buyrug‘iga asosan nashr etishga ruxsat etilgan.

ISBN 978-9910-03-184-7

© Ganiyev S.K., G‘ulomov SH.R., 2024.

© “METODIST NASHRIYOTI”, 2024.

MUQADDIMA

Ehtimollik nazariyasi va matematik statistikaga asoslanuvchi informatsiya nazariyasi hozirda jiddiy va yetarlicha universal fanga aylandi. Ushbu nazariya o‘lchash, nazoratlash va boshqarish jarayonlarini tahlillashda keng qo‘llaniladi. Ushbu nazariyaning qoidalari fikrlash, anglash, psixologik jarayonlarni hamda ijtimoiy hodisalarini tadqiqlashda yanada kengroq ishlataladi.

Informatsiya nazariyasini rivojining avji 1947-1948 yillarga amerika matematigi va injeneri K. Shannon tomonidan ilmiy ishlar chop etilganidan keyingi vaqtлага to‘g‘ri keladi. Ushbu ilmiy ishlarda informatsiyani miqdoriy baholashga doir asosiy qoidalari ta’riflangan.

Informatsiya nazariyasining rivoji aloqa texnikasining rivoji bilan uzviy bog‘langan. Yigirmanchi asrning birinchi yarmida chop etilgan ilmiy ishlar aloqa tizimining asosiy xarakteristikalarini va informatsiyani uzatish sifatini miqdoriy baholashni ilmiy asoslashga bag‘ishlangan. Ushbu ilmiy ishlarda informatsiya miqdorini baholashning logarifmik o‘lchovi, signallarni diskretlash xususidagi teorema hamda aloqa kanalining o‘tkazish qobiliyatini baholash bo‘yicha qator amaliy tavsiyalar taklif etilgan.

Axborot nazariyasi va kodlash fanining masalalari quyidagilar:

- informatsiyani saqlashga mo‘ljallangan xotira qurilmasining hajmini aniqlash;*
- berilgan informatsiya simvollarining minimal soni orqali uzatishga imkon beruvchi kodlashning eng tejamli usullarini qidirish;*
- uzatilayotgan informatsiyaning kechikishsiz va buzilishsiz uzatilishini ta‘minlovchi aloqa kanalining o‘tkazish qobiliyatini aniqlash;*
- ma‘lumotlarni zichlash;*
- kodlashdan informatsiyani kriptografik berkitish vositasi sifatida foydalanish.*

O‘quvchi ixtiyoriga havola etilayotgan kitob 8 ta bobdan iborat.

Kitobning 1-bobida “informatsiya” tushunchasi, uning axborot (ma‘lumot) tushunchalaridan farqi, informatsiyaning adekvatligi masalasi bayon etilgan. Informatsion jarayonlar, sistemalar va texnologiyalar tavsifi keltirilgan.

Kitobning 2-bobi informatsiyani miqdoriy baholash masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, informatsiyani struktura, statistik va semantik o‘lchovlari bayon etilgan. Informatsiyani statistik o‘lchoviga alohida

e'tibor bergen holda, entropiya, shartli entropiya va birlashma entropiya, nisbiy entropiya va xabarlar ortiqchaligi misollar asosida tavsiflangan. Analog shakldagi informatsiyani raqamli shaklga va raqamli shakldagi informatsiyani analog shaklga o'zgartirish masalalari bayon etilgan.

Kitobning 3-bobida informatsiyani uzatish masalasi bayon etilib, xalalsiz va xalallli aloqa kanallari orqali informatsiyani va signallarni uzatishning o'ziga xos xususiyatlari hamda aloqa kanalining o'tkazish qobiliyati misollar asosida tavsiflangan. Ma'lumotlarni zichlash masalasi ham shu bobdan o'rinn olgan.

Kodlar, kodlash va dekodlash masalalari, samarali notejis kodlarni qurishning Shannon-Fano, Xaffmen algoritmlari, ularning afzalliliklari va kamchiliklari hamda Eliasning musbat butun sonlarning universal kodlari 4-bobda ko'rildigan.

Kitobning 5-bobi xalallarga bardosh kodlash masalasiga bag'ishlangan bo'lib, xalallarning umumiyligini xarakteristikasi, kodning tuzatish qobiliyati bilan kod masofasi orasidagi bog'liqlik va berilgan tuzatish qobiliyatli kodlarni qurish masalalari misollar asosida tavsiflangan.

Chiziqli blok-kodlar – Xemming va siklik kodlar, ularni kodlash va dekodlash muolajalari, siklik kodlarni kodlash va dekodlash qurilmalari hamda teskari bog'lanishli sistemalar kitobning 6-bobida tavsiflangan. Goley, BCHX, Rid-Solomon kodlari xususidagi ma'lumotlar ham shu bobdan o'rinn olgan.

Kitobning 7-bobi uzlusiz-rekurrent (сверточные, занжир) kodlarga bag'ishlangan bo'lib, avtomatlar nazariyasi asosida rekurrent kodlarni tuzish va dekodlash masalalari batafsil bayon etilgan. Zanjir rekurrent kodlarni tuzish va dekodlash misol asosida tavsiflangan.

Kitobning 8-bobida kod o'zgartgichlari tavsiflangan bo'lib, to'g'ri koddan teskari va qo'shimcha kodlarni hosil qilish, o'nli kodni ikkilik-o'nlik kodga va ikkilik-o'nlik kodni o'nli kodga o'zgartgichlar hamda Grey kodi bayon etilgan. Kodlash yordamida informatsiyani himoyalash masalasi ham shu bobdan o'rinn olgan.

Ilovadorda axborot nazariyasi va kodlash fanida misollar yechishga taalluqli jadvallar hamda ushbu fan bo'yicha atamalarning rus, o'zbek va ingliz tillaridagi izohli lug'ati keltirilgan.

1-BOB. INFORMATSIYA, INFORMATSION JARAYONLAR, SISTEMALAR VA TEXNOLOGIYALAR

1.1. “Informatsiya” tushunchasi

Informatsiya atamasi, lotincha *information* so‘zidan kelib chiqib, bildirish, ish mazmunini bayon etish tushunchalarini beradi. Kibernetika fanining asoschisi Norbert Viner o‘zining asarida *informatsiya materiya emas, energiya emas. bu - informatsiya* deb yozadi. Aytib o‘tish joizki, *informatsiya* doimo moddiy – energetika shaklida signal ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Texnika vositalari yordamida qidirish, qabul qilish, saqlash, ishlov berish, uzatish mumkin bo‘lgan shaklga keltirilgan har qanday *informatsiya ma’lumot* deb ataladi.

Informatsiya va ma’lumot *Informatika* fanining asosiy tushunchalari hisoblanadi. *Ushbu tushunchalar orasida farq bormi?* degan savol tug‘ilishi tabiiy. Savolga javob berish uchun quyidagi misolni ko‘raylik:

Do‘stingiz bir varaq qog‘ozga o‘nta telefon tartib raqamini yozib sizga ko‘rsatdi, deylik. Siz ko‘rsatilgan raqamlarni ma’lumot sifatida qabul qilasiz. Chunki siz bu raqamlardan foydalana olmaysiz. Agar do‘stingiz telefon tartib raqamining to‘g‘risiga firmaning nomi va faoliyat turini yozsa, unda siz uchun bu ma’lumotlar *informatsiyaga aylanadi*, chunki kelgusida undan foydalanish mumkin.

Informatsiya tushunchasiga umumiy falsafiy ta’rifdan (voqe‘ dunyoning in’ikosi) tor praktik ta’rifgacha (saqlash, uzatish va ishlov berish ob’ekti hisoblanuvchi barcha ma’lumotlar) ko‘pgina ta’rif berilgan.

Fikrimizcha, quyidagi ta’rif *informatsiya* mohiyatini to‘laroq aks ettiradi.

Informatsiya – muayyan ob’ekt xususidagi bilimlarimiz noaniqlik darajasini pasaytirishga imkon beruvchi har qanday axborot (ma’lumot).

Foydalanuvchi uchun *informatsiyaning muhim xarakteristikalaridan biri – uning adekvatligi*.

Informatsiyaning adekvatligi – olingan *informatsiya* yordamida yaratilgan obrazning real obyekt, jarayon, hodisa va shunga

o‘xshashlarga mosligining ma’lum darajasi. Informatsiyaning adekvatligi darajasi, masalani yechishda to‘g‘ri yo‘l tanlashga katta ta’sir qiladi.

Ma’lumki, real hayotda informatsiyaning to‘laqonli adekvat bo‘lishiga ishonish qiyin, chunki doimo qaysi bir darajadagi noaniqlik uchrab turadi. Masalan, Siz o‘rtalik muktabni muvaffaqiyatli bitirdingiz va “Axborot xavfsizligi” yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma’lumot olmoqchisiz. Do‘srlaringiz bilan shu xususida gaplashganda Siz oliy o‘quv yurtlari to‘g‘risida turlicha ma’lumot olasiz, biroq olingen ma’lumotlar to‘g‘ri xulosa chiqarishingizda yetarli emas, chunki informatsiya adekvat emas. Shubhasiz, aniq ma’lumot olish uchun ma’lumotnomaga murojaat qilasiz. Undan mukammal ma’lumot olib, o‘quv yurtini tarlaysiz. Bu adekvat informatsiya bo‘ladi.

Informatsiyaning adekvatligi uchta shaklda ifodalanishi mumkin: semantik, sintaktik, pragmatik.

Semantik(ma’noli) adekvatlilik – obyektning uning obraziga muvofiqlik darajasini belgilaydi. Semantik nuqtai nazar informatsiyaning ma’noli mazmunini hisoblashni ko‘zda tutadi.

Bunda informatsiya aks ettirgan ma’lumotlar tahlillanadi, ma’nolar bog‘liqligi ko‘riladi. Bu shakl informatsiya xususida tushunchalar va tasavvurlarni shakllantirishga, ma’nosini, mazmunini aniqlashga, umumlashtirishga xizmat qiladi. Misol tariqasida informatsiyani kodlar orqali ifodalaishni ko‘rsatish mumkin.

Sintaktik adekvatlilik – informatsiyaning mazmuniga tegmasdan, uning rasmiy-strukturaviy xarakteristikalarini ifodalaydi. Sintaktik darajada informatsiyani ifodalaish usulida informatsiya eltuvchisi turi, uzatish va ishlash tezligi, ifodalaish kodining o‘lchamlari, ushbu kodlarni o‘zgartirish aniqligi va ishonchliligi hisobga olinadi.

Informatsiyaning mazmuniga ahamiyat berilmaganligi sababli, bunday informatsiya ma’lumot deb ataladi.

Pragmatik (foydalauvchanlik) adekvatlilik – informatsiya bilan foydalauvchining munosabatlarini aks ettiradi, informatsiyaning, uning asosida amalga oshiriladigan, boshqarish sistemasi maqsadiga muvofiqligini ifodalaydi. Informatsiyaning pragmatik xususiyatlari faqat informatsiya, foydalauvchi va boshqarish maqsadlarining umumiyligida namoyon bo‘ladi. Adekvatlikning ushbu shakli informatsiyadan amaliy foydalanish bilan bevosita bog‘langan, shu

sababli ham foydalanuvchanlik xususiyatlari tahlillanadi.

1.2. Informatsion jarayonlar, sistemalar va texnologiyalar

Informatsiya o‘z – o‘zidan paydo bo‘lmaydi, u informatsion jarayonlarda paydo bo‘ladi. Informatsiyani qidirish, to‘plash, saqlash, uzatish, ishlov berish va foydalanish bilan bog‘liq jarayonlar **informatsion jarayonlar** deyiladi. Informatsiyani *qidirishning* quyidagi usullarini ko‘rsatish mumkin:

- bevosita kuzatish;
- qiziqtiradigan masala bo‘yicha mutaxassislar bilan muloqot;
- kerakli adabiyotlarni o‘qish;
- video, teleprogrammalarni ko‘rish;
- audio kasseta, radio eshittirishlarni eshitish;
- axborot – resurs markazlarida, arxivlarda ishlash;
- informatsion sistemalarga, kompyuter ma’lumotlarining baza va banklariga murojaat;
- boshqa usullar.

Informatsiyani *saqlash* usullari uning to‘plagichlariga bog‘liq. Jamoat uchun informatsiya axborot – resurs markazlarida, videotekalarda, fonotekalarda, arxivlarda, patent byurolarida, muzeylarda, rasm galereyalarida saqlansa, kompyuterda saqlashda esa ma’lumot bazalari va banklaridan, informatsion qidirish sistemalaridan, elektron ensiklopediyalaridan, mediatekalardan foydalaniladi. Informatsiyani *uzatish* jarayonida informatsiya manbai va qabul qiluvchisi qatnashadi: birinchisi informatsiyani uzatadi, ikkinchisi uni qabul qiladi. Ularning orasida informatsiyani uzatish kanali – aloqa kanali ishlaydi. Uzatish jarayonida informatsiya yo‘qolishi yoki buzilishi mumkin. Shu sababli aloqa kanalini himoya qilish qurilmalari ishlatilishi lozim.

Informatsion sistema – berilgan maqsadga erishishda informatsiyani saqlash, unga ishlov berish va uzatish jarayonlarida foydalaniladigan vositalar, usullar va xodimlarning o‘zaro bog‘langan majmui.

Umuman, informatsion sistemani murakkab sistemalar safiga kiritish mumkin va uning tarkibi informatsion, texnik, matematik, dasturiy, tashkiliy va huquqiy ta’minotlardan iborat ekanligini tasavvur

etish mumkin.

Informatsion ta'minotga informatsiyani tasniflash va kodlashning yagona sistemasi, unifikatsiyalangan xujjalalar sistemasi, tashkilotda ishlataluvchi informatsion oqim sxemalari hamda ma'lumotlar bazasini qurish metodologiyasi kiradi.

Texnik ta'minotga informatsion sistemaning ishlashini ta'minlovchi texnik vositalar kompleksi hamda bu vositalarga va texnologik jarayonlarga taalluqli xujjalalar kiradi.



Matematik va dasturiy ta'minotga informatsion sistema maqsadi va vazifalarini amalga oshiruvchi hamda texnik vositalar majmuini bir me'yorda ishlashini ta'minlovchi matematik modellar, metodlar, algoritmlar va dasturlar kiradi.

Tashkiliy ta'minotga informatsion sistemani yaratish va ishlatalish jarayonida xodimlarning texnik vositalar bilan o'zaro munosabati tartibini belgilovchi usullar va vositalar kiradi.

Huquqiy ta'minotga informatsion sistemani yaratish, yuridik maqomini va ishlashini aniqlovchi, informatsiyani olish, o'zgartirish va undan foydalanish tartibini belgilovchi huquqiy me'yorlar kiradi.

Informatsiya jamiyat uchun elektroenergiya, neft, gaz, foydali qazilmalar

va h. singari muhim resurslardan hisoblanadi. Moddiy ishlab chiqarish texnologiyasining maqsadi – inson yoki sistemaning ehtiyojini qondirish, maxsulot chiqarish bo'lsa, informatsion texnologiyaning maqsadi – inson taxlili asosida aniq amal bajarishga qaror qabul qilish uchun informatsiyani shakllantirish. Moddiy ishlab chiqarish va informatsion texnologiyalarning struktura jixatidan bir – biriga o'xshashligini quyidagi rasmdan ko'rish mumkin.



1.1-rasm. Informatsion texnologiyaning moddiy resurslarni ishslash texnologiyasiga o'xshashligi

Demak, informatsion texnologiya tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin.

Informatsion texnologiya-ob’ekt, jarayon yoki xodisa holati xususidagi yangi sifatli informatsiyani (informatsion mahsulotni) olish maqsadida ma’lumotlarni (birlamchi informatsiyani) to‘plash, ishlash va uzatish vositalari majmuasidan foydalanish jarayoni. Berilgan moddiy resursga turli texnologiyani qo‘llab, turli mahsulot, buyum olishimiz mumkin. Bu informatsiyani ishlash texnologiyasiga ham taalluqlidir.

Misol:

“Oliy matematika” fanidan nazorat ishini bajarish uchun talaba dastlabki informatsiyani (masala qo‘yilishini) ishlashda o‘zining texnologiyasini qo‘llaydi. Informatsion maxsulot (masala yechimi) talaba tanlagan yechish texnologiyasiga bog‘liq. Odatda masala qo‘lda yechiladi. Agar informatsion texnologiyadan foydalanilsa informatsion mahsulot boshqacha sifat kasb etadi. Informatsion texnologiyaning vazifalari bo‘yicha quyidagi turlarini ko‘rsatish mumkin:

- boshqarish;
- ofisni avtomatlashtirish;
- qaror qabul qilishni qo‘llash;
- ekspert sistemalar.

Nazorat savollari


1. “Informatsiya” nima?
2. Informatsiyaning axborotdan farqi.
3. Informatsiyaning adekvatligi.
4. Informatsion jarayonga ta’rif bering.
5. Informatsion sistemaga ta’rif bering.
6. Informatsion sistemaning strukturasi.
7. Informatsion texnologiyaga ta’rif bering.

2-BOB. INFORMATSIYANI MIQDORIY BAHOLASH

2.1. Informatsiyaning struktura o'lcovni

Informatsiyaning struktura o'lcovidan foydalanilganda faqat xabarning diskret tuzilishini, undagi mavjud informatsion elementlar va ular orasidagi bog'lanishlar hisobga olinadi. Strukturaviy yondashishda informatsiyaning geometrik, kombinatorik va additiv o'lcovlari farqlanadi.

Geometrik o'lcov informatsion xabarning geometrik modelining parametrini (uzunligini, yuzasini, hajmini) diskret birliklarda o'lcashni faraz qiladi. Masajan, informatsiyaning geometrik modeli sifatida birlik uzunlikdagi chiziqni (2.1-rasm a – "0" yoki "1" qiymatni oluvchi bir xonali so'z), kvadratni (2.1-rasm b – ikki xonali so'z) yoki kubni (2.1-rasm v – uch xonali so'z) ko'rsatish mumkin.



2.1-rasm. Informatsiyaning geometrik modeli

Ushbu strukturalarda informatsiyaning mumkin bo'lgan maksimal qiymati modelning informatsion hajmini belgilaydi. Informatsion hajm barcha koordinatalar bo'yicha diskret qiymatlarning yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Kombinatorik o'lcovda informatsiya miqdori elementlar (simvollar) kombinatsiyalari soni sifatida aniqlanadi. Informatsiyaning mumkin bo'lgan miqdori elementlarning mumkin bo'lgan biriktirishlar, o'rin almashtirishlar va joy lashtirishlar soniga mos keladi. Faqat "0" va "1" lardan tarkib topgan so'zlardagi simvollarni kombinatsiyalash so'z qiymatini o'zgartiradi.

Additiv o'lcoviga (Xartli o'lcoviga) muvofiq informatsiya miqdori ikkilik birliklarda – bitlarda o'chanadi. Bunda sonning

teranligi (glubina) q va uzunligi n tushunchalari kiritiladi.

Sonning teranligi q – informatsiyani ifodalash uchun qabul qilingan elementlar (simvollar) soni. Sonning uzunligi n – berilgan kattalikdagi sonni ifodalash uchun zaruriy va yetarli pozitsiyalar (o‘rinlar) soni.

Sonning berilgan teranligi va uzunligida ifodalanish mumkin bo‘lgan sonlar soni $N = q^n$ ga teng. N kattalik informatsiya hajmini baholashda qulay hisoblanmaydi. Chunki, masalan, $N = 1$ bo‘lganida xabar nulli informatsiyani eltadi. Oldindan xarakteri ma’lum bo‘lgan xabarni olish esa hech nima bermaydi. Shu sababli, informatsiya miqdorini(bitlarni) hisoblashga imkon beruvchi logarifmik o‘lchov kiritilgan (Xartli tomonidan).

$$I(q) = \log_2 N = n \cdot \log_2 q$$

Demak, informatsiyaning 1 biti sodir bo‘lувчи yoki sodir bo‘lmaydigan bitta elementar hodisaga mos keladi. Informatsiya miqdorining bunday o‘lchovi qulay hisoblanadi, chunki u o‘lchovni son orqali ifodalashga imkon beradi. Bunda informatsiya miqdori “1” yoki “0” ikkilik simvollarning soniga ekvivalent hisoblanadi.

Ta’kidlash lozimki, ba’zida sonning teranligi tushunchasi *sanoq sistemasi*ning asosi tushunchasi bilan almashtiriladi.

Misol:

Alfavit simvollari ikkita sifat alomatlariga ega.

- Xabar elementlarini 3,4,5 va 6 tadan kombinatsiyalab xabarlarning qanday miqdorini olish mumkin?
- Bunday xabarlarning bitta elementiga informatsiyaning qanday miqdori to‘g‘ri keladi?

Yechish:

$$q = 2.$$

$$a) N_1=2^3=8; N_2=2^4=16; N_3=2^5=32; N_4=2^6=64.$$

$$b) I_1=\log_2 8=3 \text{ bit}; I_2=\log_2 16=4 \text{ bit}; I_3=\log_2 32=5 \text{ bit}; I_4=\log_2 64=6 \text{ bit}.$$

2.2. Informatsiyaning statistik o‘lchovi. Entropiya

Informatsiyaning statistik nazariyasini K.Shennon tomonidan batafsil o‘rganilgan. Yuz berish ehtimolligi birga yaqin bo‘lgan tez-tez uchraydigan hodisa xususida xabar paydo bo‘lsa, bunday xabarning

qabul qiluvchi uchun informativligi kam bo‘ladi. Xuddi shunday, yuz berish ehtimolligi nolga yaqin bo‘lgan xabarning ham informativligi kam bo‘ladi.

Hodisalarga qandaydir tajribaning natijasi sifatida qarash mumkinki, bunday tajribaning barcha natijalari *ansamblni*, ya’ni hodisalarning to’liq guruhini tashkil etadi. K.Shennon tajriba jarayonida paydo bo‘luvchi hodisaning noaniqligi tushunchasini kiritdi va uni *entropiya* deb atadi.

Ansambl entropiyasi uning noaniqligining va demak informativligining miqdoriy o‘lchovi bo‘lib, tajribaning har bir mumkin bo‘lgan natijalari ehtimolligi to‘plamining o‘rtacha funksiyasi sifatida ifodalanadi.

Faraz qilaylik, q turli xilli N tajriba natijalari mavjud bo‘lsin. i –natija n_i marta qaytariladi va miqdori I_i sifatida baholanuvchi informatsiyaga ega. U vaqtida bitta tajriba natijasida hosil bo‘luvchi o‘rtacha informatsiya quydagicha aniqlanadi:

$$I_{o'rt} = \frac{n_1 I_1 + n_2 I_2 + \dots + n_q I_q}{N}$$

Agar har bir natijadagi informatsiya miqdorining uning ehtimolligi p_i bilan bog‘liqligini hamda ikkilik birliklarda (bitlarda)

$$I_i = \log_2 \frac{1}{p_i} = -\log_2 p_i$$

kabi ifodalanishini hisobga olsak, quydagini yozish mumkin.

$$I_{o'rt} = \frac{n_1(-\log_2 p_1) + \dots + n_i(-\log_2 p_i) + \dots + n_q(-\log_2 p_q)}{N}$$

yoki

$$I_{o'rt} = \frac{n_1}{N} (-\log_2 p_1) + \dots + \frac{n_i}{N} (-\log_2 p_i) + \dots + \frac{n_q}{N} (-\log_2 p_q)$$

$\frac{n_1}{N}$ nisbatlar – natijalarning qaytarilish chastotalari, demak, ularni ehtimolliklari bilan almashtirish mumkin ($\frac{n_i}{N} = p_i$).

Unda bitlarda ifodalangan o‘rtacha informatsiya miqdori quydagiga teng bo‘ladi:

$$I_{o'rt} = p_1(-\log_2 p_1) + \dots + p_i(-\log_2 p_i) + \dots + p_q(-\log_2 p_q)$$

$$\text{yoki } I_{o'rt} = -\sum_{i=1}^q p_i (\log_2 p_i) = H \text{ (Shenon formulasi)}$$

Hosil bo‘lgan kattalik *entropiya* deb ataladi va H harfi bilan belgilanadi.

Entropiya quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Entropiya haqiqiy va manfiy bo‘lмаган каттаки. Чунки, гар qандай i ($1 \leq i \leq N$) учун p_i 0 дан 1 гача оралықда озгаради, я’ни $\log_2 p_i$ манфиy va, demak, $-\log_2 p_i$ мусбат.

2. p_i лардан бири бирга teng, qolganlari nolga teng bo‘лганда entropiya nolga teng. Bu vaziyat manbaning holati to‘la aniqlanganiga mos keladi.

3. Barcha ehtimolliklar bir-biriga teng bo‘лганда entropiya eng katta qiymatga ega bo‘лади, я’ни: $H_{max} = -\log_2 1/q = \log_2 q$

4. Bir necha statistik bog‘ланмаган informatsiya manbalarining birlashma entropiyasi dastlabki manbalar entropiyalarining yig‘indisiga teng.

Umumiy holda, informatsiya miqdorini tajriba natijasida entropiyaning kamayishi deb hisoblash mumkin. Agar noaniqlik butunlay bartaraf etilsa, informatsiya miqdori entropiyaga teng bo‘лади, я’ни: $I = H$

Agar noaniqlik qisman bartaraf etilsa, informatsiya miqdori boshlang‘ich va oxirgi entropiyalarning farqiga teng, я’ни: $I = H_1 - H_2$.

Ta’kidlash lozimki, agar barcha hodisalar teng ehtimollikka ega va statistik bog‘ланмаган bo‘lsa, Xartli va Shannon bo‘yicha informatsiya miqdori bir xil bo‘лади.

Misol:

Alfavit A, B, C, D harflardan tashkil topgan. Harflarning paydo bo‘lish ehtimolliklari quyidagicha:

$$p_A = p_B = 0.25;$$

$$p_C = 0.34; p_D = 0.16$$

Ushbu alfavitdan tuzilgan xabar simvoliga to‘g‘ri keladigan informatsiya miqdori aniqlansin.

Yechish:

Alfavit simvollarining ehtimolliklari teng bo‘lмаганligi sababli entropiya quydagicha aniqlanadi:

$$H = -\sum_{i=1}^q p_i (\log_2 p_i) = (2 \cdot 0.25 \log_2 0.25 + 0.34 \log_2 0.34 + 0.16 \log_2 0.16) = 2 \cdot 0.5 + 0.529174 + 0.423017 = 1.952191 \text{ bit/simvol.}$$

2.2.1. Shartli entropiya va birlashma entropiya

Shartli entropiya informatsiya nazariyasida kodlanuvchi alfavit simvollari orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlashda, aloqa kanallari bo‘yicha informatsiya uzatishdagi yo‘qotishlarni aniqlashda va birlashma entropiyani hisoblashda ishlataladi. Entropiyalarni jamlash qoidasiga muvofiq ikkita mazmun jihatidan turli (mustaqil) kitoblardagi informatsiya miqdori – alohida kitoblardagi informatsiya miqdorlarining yig‘indisiga teng. Agar bir kitob ikkinchi kitobning qismini o‘z ichiga olsa, ushbu ikki kitobdagi informatsiya miqdori alohida kitoblardagi informatsiya miqdorlarining yig‘indisiga teng bo‘lmaydi, balki undan kam bo‘ladi. Bu holda informatsiya miqdorini o‘lchashda *shartli entropiya* tushunchasidan foydalilaniladi.

Shartli entropiyani hisoblashda *shartli ehtimolliklar* u yoki bu ko‘rinishda ishlataladi.

Agar n ta xabar uzatilganida A simvoli m marta, B simvoli l marta, A simvoli B simvoli bilan birqalikda k marta paydo bo‘lgan bo‘lsa, A simvolning paydo bo‘lish ehtimolligi:

$$P(A) = \frac{m}{n}$$

V simvolning paydo bo‘lish ehtimolligi:

$$P(B) = \frac{l}{n}$$

A va B simvollarining birqalikda paydo bo‘lish ehtimolligi:

$$P(AB) = \frac{k}{n}$$

B simvolga nisbatan A simvolning paydo bo‘lishining shartli ehtimolligi:

$$P(A/B) = \frac{P(AB)}{P(B)} = \frac{k}{n} \cdot \frac{n}{l} = \frac{k}{l}$$

A simvolga nisbatan B simvolning paydo bo‘lishining shartli ehtimolligi:

$$P(B/A) = \frac{P(AB)}{P(A)} = \frac{k}{n} \cdot \frac{n}{m} = \frac{k}{m}$$

Ushbu ifodalardan foydalanim A va B simvollarining birqalikda paydo bo‘lish ehtimolligini aniqlash mumkin.

$$P(AB) = P(B)P(A/B) = P(A)P(B/A)$$

Ehtimolliklar shartli bo‘lgani sababli, *shartli entropiya* quyidagicha yoziladi:

$$H(b_j/a_i) = - \sum_j p(b_j/a_i) \log_2 p(b_j/a_i)$$

$$H(a_i/b_j) = - \sum_i p(a_i/b_j) \log_2 p(a_i/b_j)$$

Bu yerda i indeks A xabar mənbəning ixtiyoriy holatini təsviflash uchun, j indeksi B adresatning ixtiyoriy holatini təsviflash uchun tanlangan.

Birlashma entropiya. Birlashma entropiya statistik bog‘langan xabarlarning birgalikda paydo bo‘lish entropiyasini hisoblashda ishlataladi.

Masalan, xalalli aloqa kanali bo‘yicha 5 raqamini yuz marta uzatish natijasida 5 raqami 90 marta, 6 raqami 8 marta, 4 raqami 2 marta qabul qilindi. 5 raqami uzatilganida 5-4, 5-5, 5-6 kombinatsiyalarning paydo bo‘lishining noaniqligini birlashma entropiya yordamida təsviflash mumkin.

$H(A, B) = A$ simvol uzatilganida B simvol qabul qilinishining noaniqligi.

Uzatilgan A xabarlarning va qabul qilingan B xabarlarning ansamblari uchun birlashma entropiya quyidagi yig‘indi ko‘rinishiga ega:

$$H(A, B) = - \sum_i \sum_j p(a_i, b_j) \log_2 p(a_i, b_j) \text{ bit/ikkita simvol;}$$

Birlashma entropiya va shartli entropiya o‘zaro quyidagi munosabat orqali bog‘langan.

$$H(A, B) = H(A) + H(B/A) = H(B) + H(A/B),$$

$$H(B/A) = H(A, B) - H(A); \quad H(A/B) = H(A, B) - H(B).$$

Misol:

Tajribadan ma’lum bo‘ldiki, uzunligi 5 ta simvoldan iborat har bir 100 ta xabar uzatilganida A simvol 50 marta, B simvol 30 marta, B simvoli A simvoli bilan birgalikda 10 marta uchraydi. $H(A/B)$ va $H(B/A)$ shartli entropiyalar aniqlansin.

Yechish:

Uzatilgan simvollarning umumiyligi soni:

$$n = 100 \cdot 5 = 500.$$

A simvolning paydo bo‘lish extimolligi:

$$P(A) = \frac{50}{500} = 0,1$$

B simvolning paydo bo‘lish extimolligi:

$$P(B) = \frac{30}{500} = 0,06$$

A va *B* simvollarning birgalikda paydo bo‘lish extimolligi:

$$P(AB) = \frac{10}{500} = 0.02$$

B simvolga nisbatan *A* simvolning paydo bo‘lishining shartli extimolligi:

$$P(A/B) = \frac{P(AB)}{P(B)} = \frac{0.02}{0.06} = 0.33$$

A simvolga nisbatan *B* simvolning paydo bo‘lishining shartli extimolligi:

$$P(B/A) = \frac{P(AB)}{P(A)} = \frac{0.02}{0.1} = 0.2$$

B simvolga nisbatan *A* simvolning shartli entropiyasi:

$$\begin{aligned} H(A, B) &= - \sum_j p(b_j/a_j) \log_2 p(b_j/a_j) = -\{p(A/B) \log_2 p(A/B) + \\ &\quad [1 - p(A/B)] \log_2 [1 - p(A/B)]\} \\ &= -(0.33 \log_2 0.33 + 0.67 \log_2 0.67) = \\ &= 0.9149 \text{ bit/simvol}; \end{aligned}$$

A simvolga nisbatan *B* simvolning shartli entropiyasi:

$$H(B/A) = -(0.2 \log_2 0.2 + 0.8 \log_2 0.8) = 0.7219 \text{ bit/simvol}$$

2.2.2. Nisbiy entropiya va xabarlarning ortiqchaligi

Tatbiq nuqtai nazaridan informatsiya miqdorini baholash, asosan, tejamlari qurish, aloqa kanallari hususiyatlarini va ularning o‘tkazish qobiliyatini baholash, kodlarning ortiqchaligini va ularning xalallarga bardoshligini aniqlash uchun zarur hisoblanadi.

Masalan, aloqa kanallarini tahlillashda holatlari to‘plami ma’lum elementlar yordamida uzatilishi mumkin bo‘lgan informatsiyaning maksimal miqdorini aniqlashni bilish zarur. Xabar elementiga to‘g‘ri keluvchi informatsiyaning maksimal miqdorini faqat holatlarning teng ehtimolligi va mustaqilligida olish mumkin.

Entropiyasi maksimal qiymatga ($H_{max} = \log_2 q$) teng bo‘lgan xabarlar uzatiladigan informatsiyaning maksimal miqdori jihatidan optimal xabarlar hisoblanadi. Real xabarlar kamdan – kam bu shartni qanoatlantiradi. Shu sababli, real xabarlarning har bir elementiga ular uzatishi mumkin bo‘lganidan kam informatsiya yuklamasi to‘g‘ri keladi. Bunday xabarlarning entropiyasi maksimaldan kam bo‘ladi. Agar xabar elementi *to‘la yuklanmagan* bo‘lsa, xabarning o‘zi informatsiya ortiqchaligi xususiyatiga ega hisoblanadi.

Informatsiya nazariyasida ortiqchalik *ortiqcha* informatsiya miqdorini ko‘rsatadi. Bu informatsiya miqdori elementlar holati to‘plamining strukturasini orqali aniqlanadi va odatda, statistik ma’lumotlardan oldindan ma’lum bo‘ladi. Xabarlar manbaining entropiyasi sifat alomatlarining berilgan soniga ega bo‘lgan alfavit uchun maksimal entropiyaga teng bo‘lmasligi ushbu manbaa xabarlarining ko‘p sonli informatsiyani eltishi mumkinligini anglatadi.

Bunday manba xabarlarining simvoliga to‘g‘ri keluvchi absoluyut yuklanmaganlik:

$$\Delta D = (H_{max} - H) \text{ bit/simvol}$$

Informatsion ortiqchalik. Alfavit strukturasidagi *ortiqcha* informatsiya miqdorini aniqlash uchun *ortiqchalik* tushunchasi kiritilgan. *Informatsion ortiqchalik* o‘lchamsiz kattalik bo‘lib, alfavit simvoliga to‘g‘ri keladigan *nisbiy ortiqchalikni* ifodalaydi.

$$\Delta = \frac{H_{max} - H}{H_{max}} = 1 - \frac{H}{H_{max}}$$

bu yerda $\frac{H}{H_{max}} = \mu$ – zichlash koefitsienti(nisbiy entropiya).

Xabardagi simvollar paydo bo‘lish ehtimolliklari teng bo‘lmasligi holda, ortiqchalik:

$$\Delta_p = 1 - \left(\frac{-\sum_i p_i \log_2 p_i}{\log_2 q} \right)$$

Xabar simvollari orasidagi statistik bog‘lanish tug‘diruvchi ortiqchalik:

$$\Delta_s = 1 - \left(\frac{\sum_i \sum_j p(a_i) p(b_j/a_i) \log_2 p(b_j/a_i)}{-\sum_i p_i \log_2 p_i} \right)$$

To‘liq informatsion ortiqchalik:

$$\Delta = \Delta_s + \Delta_p - \Delta$$

Ortiqchalik har doim ham nomaqbul hisoblanmaydi. Kodlarning xalallarga bardoshligini oshirish uchun ortiqchalik zarur va u sun'iy ravishda qo'shimcha simvollar ko'rinishida kiritiladi.

Informatsion ortiqchalik – odatda tabiiy hodisa bo'lib, birlamchi alfavitning aslida mavjud. Tuzatuvchi ortiqchalik sun'iy hodisa bo'lib, ikkilamchi alfavitdagi kodda mavjud. Ortiqchalikni kamaytirishning eng samarali usuli samarali kodlarni qurish.

Misol:

Xabarlar a, b, c, d alfavit vositasida tuzilgan. Matnlarda alfavit harflarining paydo bo'lishi ehtimolliklari quyidagicha:

$$p_a = 0.2, p_b = 0.3, p_c = 0.4, p_d = 0.1.$$

Ushbu alfavit asosida tuzilgan xabarlar ortiqchaligi aniqlansin.

Yechish:

Ortiqchalik,

$$\Delta = 1 - \frac{H}{H_{max}}$$

To'rtta harfli alfavit uchun maksimal entropiya:

$$H_{max} = \log_2 q = \log_2 4 = 2 \text{ bit/simvol}$$

Xabar simvoliga to'g'ri keladigan o'rtacha entropiya

$$H = - \sum_i p_i \log_2 p_i = -(0.2 \log_2 0.2 + 0.3 \log_2 0.3 + 0.4 \log_2 0.4 + 0.1 \log_2 0.1) = 0.4644 + 0.5211 + 0.5288 + 0.3322 = 1.8465 \text{ bit/simvol}$$

Ortiqchalik


$$\Delta = 1 - \frac{1.8465 \text{ bit/simvol}}{2 \text{ bit/simvol}} = 1 - 0.9232 = 0.0768 \text{ bit/simvol}$$

2.3. Informatsiyaning semantik o'lchovi

Informatsiyaning ma'noli mazmunini, ya'ni uning semantik bosqichidagi miqdorini o'lchashda tezaurusli o'lchov keng tarqalgan. Bu o'lchov informatsiyaning semantik xususiyatlarini informatsiya olinishidagi foydalanuvchining qobiliyati bilan bog'laydi. Buning uchun *foydalanuvchining tezaurusi* tushunchasi ishlataladi. *Tezaurus* – foydalanuvchi yoki sistema ixtiyoridagi ma'lumotlar majmui.

Foydalanuvchi qabul qiladigan va kelgusida o'zining tezaurusiga kiritadigan informatsiya miqdori I_c informatsiyaning ma'noli mazmuni S va foydalanuvchi tezaurusi S_p orasidagi o'zaro nisbatda o'zgaradi. Bu

bog'liqlik tabiatini 2.2-rasmdagi egri chiziq yordamida ko'rsatish mumkin.



2.2-rasm. Foydalanuvchi qabul qiladigan semantik informatsiya miqdori bilan uning tezaurusi orasidagi bog'liqlik $I_c = f(S_p)$

Foydalanuvchi semantik informatsiyaning maksimal miqdoriga informatsiyaning ma'noli mazmunini o'zining tezaurusi bilan muvofiqlashtirgan xolda ($S_p = S_{p \text{ opt}}$) ega bo'ladi. Unda qabul qilingan informatsiya foydalanuvchiga tushunarli bo'ladi va unda oldin noma'lum bo'lgan (uning tezaurusida bo'lmasagan) ma'lumotlarni beradi.

Shunday qilib, foydalanuvchi qabul qiladigan ma'lumotlardagi semantik informatsiyaning miqdori, yangi bilimlar miqdori nisbiy kattalikdir. Bir xil ma'lumotlar bilimdon foydalanuvchi uchun ma'noli mazmunga ega bo'lsa, xabarsiz foydalanuvchi uchun ma'noga ega bo'lmaydi (semantik shovqin).

Semantik informatsiya miqdorining nisbiy o'Ichovi sifatida semantik informatsiya miqdorining uning hajmiga nisbati orqali aniqlanuvchi mazmunli koefitsienti C xizmat qilishi mumkin:

$$C = I_c / V_m$$

Ta'kidlash lozimki, informatsiyani semantik o'Ichash muammolari uzatiluvchi informatsiya mazmunini formallashtirish bilan bog'liq. Ushbu muammolar juda murakkab, chunki informatsiyaning mazmuni qabul qiluvchiga, xabar semantikasiga nisbatan, ko'proq bog'liq.

2.4. Informatsiyani o'zgartirish


Har qanday sistemaga informatsiya signal ko'rinishida beriladi. Fizik jarayonlarning turli parametrlari datchiklar yordamida elektrik signallarga aylantiriladi. Odatda ushbu signallar uzlusiz o'zgaruvchi tok yoki kuchlanish bo'lishi mumkin.

Beriluvchi informatsiyani uzlusiz (analog) yoki diskret (raqamli) shakldagi signallar ko'rinishida saqlash, uzatish va ishlash mumkin bo'lsada, hozirgi informatsion texnologiyaning rivojlanishi bosqichida diskret (raqamli) shakldagi signallar afzal hisoblanadi. Shu sababli, analog signallar raqamli (diskret) shaklga keltiriladi.

Raqamli shakldagi signallarni analog shaklga o'zgartirish-kompyuterda hisoblash natijalarini boshqaruvchi ob'yekt signali sifatida ishlatish uchun, qulay ko'rinishga keltirish. Boshqacha aytganda, bu masala kompyuter chiqish yo'lidagi raqamli ketma-ketlik bo'yicha aproksimatsiyalovchi signalni shakllantirish.

Analog shakldagi signallarni raqamli shaklga keltirishda quyidagi uchta jarayonni ko'rsatish mumkin: diskretlash, kvantlash, kodlash. Ushbu jarayonlar mohiyatini ko'rib chiqamiz. Keyingi bayonlarda aniqlikni ta'minlash maqsadida o'zgartirish qiymati bo'yicha uzlusiz o'zgaruvchi kuchlanish shaklida ifodalangan signallar ustida amalga oshiriladi deb hisoblaymiz.

Diskretlash. Diskretlash jarayoniga muvofiq vaqt bo'yicha uzlusiz signaldan uning alohida qiymatlari ma'lum vaqt intervali t oralab tanlab olinadi. (2.3-rasmda t_0, t_1, \dots, t_n onlar).



2.3-rasm. Diskretlash, kvantlash va kodlash jarayoni
20

Interval t vaqt intervali, sanaladigan, onlar vaqtning takt onlari deb yuritilidi. Ravshanki, sanaladigan onlar qanchalik ko‘p bo‘lsa (diskretlash chastotasi yuqori bo‘lsa) signal raqam ko‘rinishida shunchalik aniq ifodalanadi.

Sanaladigan onlar kam bo‘lsa (diskretlash chastotasi past bo‘lsa) signal hususidagi axborot yo‘qolishi mumkin.

Bu holat mashhur Naykvist – Kotelnikov mezonidan bevosita kelib chiqadi. Ushbu mezong‘a muvofiq diskretlash chastotasi bo‘limganda signal chastotasidan ikki marta katta bo‘lishi lozim. Aks xolda signal xususidagi axborot yo‘qoladi va signalni berilgan aniqlikda analog shakliga tiklab bo‘lmaydi.

Kvantlash. Kvantlashning mohiyati quyidagicha. Bir – biridan kvantlash qadami deb ataluvchi Δ kattalikka siljigan kvantlar to‘ri hosil qilinadi (2.3-rasm). Kvantlashning har bir sathiga tartib raqami (0, 1, 2, 3, 4 va h) berilishi mumkin. So‘ngra diskretlash natijasida olingan dastlabki analog kuchlanish qiymatlari ularga yaqin kvantlash sathi bilan almashtiriladi.

Masalan, 2.3 – rasmdagi diagrammada t_0 onidagi kuchlanish qiymati unga yaqin 3 nomerli kvantlash sathi bilan almashtiriladi, t_1 onidagi kuchlanish qiymati 6-chi sathga yaqin va ushbu sath bilan almashtiriladi va h. Har qanday yaxlitlash kabi kvantlash jarayoni kuchlanishning diskret qiymatlarini ifodalashda xatolikka olib keladi, ya’ni kvantlash shovquni hosil bo‘ladi. Analog-raqam o‘zgartgichlarini loyihalashda kvantlash shovqinini pasaytirishga harakat qilinadi.


Kodlash. Kodlashning mohiyati quyidagicha: Kvantlash amali kuchlanish qiymatlarini sonlar – mos kvantlash sathlari nomerlari orqali ifodalashga imkon beradi. 2.3- rasmdagi diagramma uchun 3, 6, 7, 4, 1, 2, 4 va h. sonlarning ketma-ketligi ikkilik kod orqali ifodalanadi.

Raqamli shakldagi signallarni analog shaklga o‘zgartirish – analog shakldagi signallarni raqamli shaklga o‘zgartirishga teskari jarayon. Quyida kuchlanishning salmoqli manbalari asosida qurilgan raqam-analog o‘zgartgichi misolida ushbu jarayon tavsifi keltirilgan. Bunday o‘zgartgichlar har qanday ikkilik son ikkinining darajali yig‘indisi ko‘rinishida ifodalanishi mumkinligiga asoslangan, ya’ni

$$X = x_n x_{n-1} \dots x_0 = \sum_{i=0}^n x_i 2^i = 2^n x^n + 2^{n-1} x_{n-1} + \dots + 2^0 x_0,$$

bu yerda, 2^i -sondag'i raqam salmog'iini belgilovchi koyeffitsiyent.

Sonning ikkilik kodini analog kattalikka (masalan, uzlusiz o'zgaruvchi elektr kuchlanishiga) o'zgartirish uchun, sonning har bir "1" raqamiga kuchlanishni, o'zining salmog'i bilan, moslashtirish va so'ngra ularni jamlash lozim. 2.4-rasmda ushbu usulni amalga oshiruvchi uch xonali raqam-analog o'zgartgichning soddalashtirilgan sxemasi keltirilgan.



2.4-rasm. Uch xonali raqam-analog o'zgartgichining soddalashtirilgan sxemasi

Sxema ikkining darajasiga mutanosib $e_0 = 2^0 e$, $e_1 = 2^1 e$, $e_2 = 2^2 e$, kuchlanishning uchta manbaidan hamda qutblangan R_0 , R_1 , R_2 , relelardan iborat. Rele "1" kodiga mos signallar orqali boshqariladi. Agar relening boshqaruvchi chulg'amida "1" kodining signali paydo bo'lsa, u o'ng holatga o'tadi va salmoq kuchlanishini chiqish yo'liga ulaydi. Natijada chiqish yo'lida o'zgartiriluvchi ikkilik songa mutanosib salmoqli kuchlanishlar yig'indisi $x_0 x_1 x_2 \rightarrow \sum_{i=0}^2 x_i e_i$ paydo bo'ladi. Demak, chiqish yo'lidagi kuchlanish o'zgartiriluvchi ikkilik songa mutanosib

$$\sum_{i=0}^2 x_i e_i = X.$$

Ko'rilibotgan sxemada uzib-ulagichlar sifatida elektron relelar, jumladan, trigger ishlatalishi mumkin.

Nazorat savollari


1. Strukturaviy yondashishda informatsiyaning qanday o‘lchovlari farqlanadi?
2. Xartli o‘lchovi nima?
3. Son teranligi nima?
4. Son uzunligi nima?
5. Ansambl nima?
6. Shannon formulasi bilan Xartli formulasining farqi nimada?
7. Entropiya xususiyatlarini sanab o‘ting.
8. Shartli ehtimollikning ehtimollikdan qanday farqi bor?
9. Shartli entropiya nima?
10. Birlashma entropiya qachon ishlataladi?
11. Informatsiyaning maksimal miqdorini qachon olish mumkin?
12. Ortiqchalik iborasini tushuntiring.
13. Informatsion ortiqchalik nima?
14. Ortiqchalik doimo nomaqbulmi?
15. Foydalanuvchining tezaurusi nima?
16. Semantik informatsiya miqdori.
17. Analog shakldagi signallarni raqamli shaklga keltirish qanday mezonga asoslanadi?
18. Diskretlash, kvantlash, kodlash iboralarining mohiyatini tushuntiring.
19. Raqamli shakldagi signallarni analog shaklga keltirish jarayonini tushuntiring.

3-BOB. INFORMATSIYANI UZATISH VA ZICHLASH

3.1. Xalallar yo‘qligida xabarlarni uzatuvchi informatsion sistema modeli

Xabarlarni makonning bir nuqtasidan ikkinchisiga uzatishga mo‘ljallangan texnik vositalar majmui aloqaning bir kanalli informatsion sistemasi yoki, oddiygina, *aloqa kanali* deb yuritiladi.

Xalalsiz aloqa kanalining eng sodda blok-sxemasi 3.1-rasmda keltirilgan.



3.1-rasm. Aloqa liniyasining eng sodda blok-sxemasi

Bosma matn, grafik tasvir, tovush to‘lqini, o‘lchov asbobining ko‘rsatishi va h. manba chiqish yo‘lining xabari bo‘lishi mumkin. Kodlash qurilmasining vazifasi – manba chiqish yo‘li xabarini qandaydir standart shaklda masalan, ikkilik ketma-ketligi ko‘rinishida ifodalash. Ammo kodlashning asosiy vazifasi – standart ifoda eng tejamli bo‘lishligini hamda olingan kodlangan signal bo‘yicha uzatilgan xabarlarni bir ma’noda tiklash mumkinligini ta’minlash.

Kodlangan signallar aloqa liniyasidan o‘tib, dekodlash qurilmasining kirish yo‘liga beriladi. Dekodlash qurilmasi ushbu signallarni priyomnik uchun qulay shaklga o‘zgartiradi.

Aloqa sistemasida kechuvchi jarayonlarni mushohada qilishda xabarlar manbai unumдорлиги, signalni uzatish tezligi va aloqa kanalining o‘tkazish qobiliyati kabi muhim tushunchalar paydo bo‘лади.

Manba unumдорлиги deganda informatsiyani yaratish tezligi, ya’ni vaqt birligida (odatda sekundda) manba tomonidan yaratilgan informatsiya miqdori tushuniladi. Xabarlarning diskret manbai uchun entropiya (H) xabarning bitta elementiga to‘g‘ri keluvchi informatsiyaning o‘rtacha miqdorini belgilaydi.

Manbaning chiqish yo‘lida xabarning alohida elementlari vaqtning qandaydir intervallaridan keyin paydo bo‘лади. Agar barcha elementlar bir xil davomlilik τ ga ega bo‘lsa, xabarlarni manba tomonidan yaratish tezligi quyidagicha ifodalanadi.

$$C = \frac{H}{\tau} \text{ bit/sek}$$

Ehtimolliklari teng bo‘lmagan va davomliligi teng simvollar uchun

$$C = \frac{1}{\tau} \left(- \sum_{i=1}^q p_i \log p_i \right) \text{ bit/sek}$$

bu yerda

p_i – i simvolning paydo bo‘lish ehtimolligi.

Ehtimolliklari teng bo‘lmagan va davomiyligi turli simvollar uchun

$$C = \frac{1}{\sum_{i=1}^q \tau_i p_i} * \left(- \sum_{i=1}^q p_i \log p_i \right) \text{ bit/sek}$$

Umumiy holda

$$C = \frac{I}{T} \text{ bit/sek}$$

bu yerda

I – xabar tarkibidagi informatsiya miqdori;

T – xabarni uzatish tezligi.

Aloqa liniyasi bo‘yicha uzatish uchun xabar kodlanadi va elektr signaliga o‘zgartiriladi. Agar liniyada xalallar bo‘lmasa uzatiluvchi signallarning barcha elementlari chiqish yo‘lida buzilmasdan qayta tiklanadi. Kirish va chiqish yo‘llaridagi signal elementlari orasida bir ma’noli moslik mavjud bo‘ladi. Bu holda *informatsiyani uzatish tezligi* (C_1) manba tomonidan informatsiyani yaratish tezligiga (C) teng bo‘ladi. Ravshanki, informatsiyani uzatish tezligi xabarlar manbai xususiyatlariga, kodlash usuliga va aloqa liniyasi xususiyatlariga bog‘liq.

Informatsiyani uzatish tezligidan tashqari *signalni uzatish tezligi* tushunchasi mavjud. Informatsiyani masofaga uzatishga bevosita mo‘ljallangan xabar signal deb ataladi. Signallar alohida impulslar yoki impulslar nabori ko‘rinishida uzatiladi. Esda tutmoq lozimki, agar informatsiyani uzatish tezligi informatsiyani eltvuvchi elementlar soni orqali aniqlansa, signallarni uzatish tezligi esa signal elementlarining umumiy soni (impulslar soni) orqali aniqlanadi.

Signalni uzatish tezligi

$$V = \frac{N}{T_C},$$

bu yerda T_C – signalni uzatish vaqtı,
 $N - T_C$ vaqtta uzatilgan signallar (impulslar) soni.

$$t_n = \frac{T_C}{N}$$

Signalni uzatish tezligining o‘lchov birligi sifatida 1 bod qabul qilingan. 1 bod miqdoran 1 sekundda uzatilgan bitta elementar jo‘natmaga mos keladi. Ta’kidlash lozimki, informatsiyani uzatish tezligi xabarlar manbaining informatsion xarakteristikalariga bog‘liq, signallarni uzatish tezligi esa apparaturaning tezkorligiga bog‘liq.

Informatsiyani uzatish sistemasining yuqorida ko‘rilgan xarakteristikalaridan tashqari, muayyan aloqa kanali bo‘yicha berilgan vaqt oraliq‘ida informatsiyaning qanday maksimal miqdori uzatilishi mumkinligi xususida, ya’ni *kanalning o‘tkazish qobiliyati* (C^*) xususida tasavvurga ega bo‘lish lozim.

Aloqa sistemasida kanalning o‘tkazish qobiliyati aloqa kanalining potensial imkoniyatini xarakterlaydi va informatsiyani uzatishning maksimal tezligi orqali aniqlanadi.

$$C^* = C_{1max} = \frac{I_{max}}{T} \text{ bit/sek}$$

Xabar elementlarining ehtimolliklari teng holida o‘tkazish qobiliyati

$$C^* = C_{1max} = \frac{\log_2 q^n}{n\tau} = \frac{\log_2 q}{\tau} \text{ bit/sek}$$

Ikkilik kod uchun ($q=2$) ikkilik kanalning o‘tkazish qobiliyati

$$C^* = \frac{1}{\tau} \text{ bit/sek.}$$

Misollar:

1). Xabar 5 ta sifat alomatlaridan ($q = 5$) tuzilgan. Simvol davomliligi

$\tau = 20$ msec. Signallarni uzatish tezligi hamda informatsiyani uzatish tezligi aniqlansin.

Yechish:

Signallarni uzatish tezligi:

$$V = \frac{1}{\tau} = \frac{1}{0.02} = 50 \text{ simvol/sek}$$

Informatsiyani uzatish tezligi:

$$C = \frac{H}{\tau} = \frac{\log_2 q}{\tau} = \frac{\log_2 5}{0.02} = \frac{2.32}{0.02} = 116 \text{ simvol/sek}$$

2). Aloqa kanallari bo'yicha xabarlarni uzatishda to'rtta turli simvolli alfavitdan foydalanilgan. Barcha simvollarning davomliligi $\tau = 1$ sek. Aloqa kanalining o'tkazish qobiliyati aniqlansin.

Yechish:

Aloqa kanalining o'tkazish qobiliyatini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$C = \frac{H_{max}}{\tau} \text{ bit/sek}$$

yoki,

$$C^* = \frac{\log_2 q}{\tau} \text{ bit/sek}$$

bu erda q – xabarlarning umumiy soni; τ – signalning o'rtacha davomliligi.

Xabarlarni uzatish uchun to'rtta simvolli alfavit ishlataliganligi sababli, $q = 4^4$

Barcha signallarning davomliligi:

$$4\tau = 4mc$$

$$\text{Demak, } C^* = 250 \log_2 4^4 = 250 \log_2 2^8 = 2 * 10^3 \text{ bit/sek}$$

3.2. Xalallar mavjudligida xabarlarni uzatuvchi informatsion sistema modeli


Faraz qilaylik, aloqa kanali mavjud va u orqali X holatlari va $H(X)$ entropiyali xabarlar uzatiladi. Xabarlar aloqa liniyasida xalallar ta'sirida bo'ladi. Natijada, olingan xabarlar $H(Y)$ entropiyali Y holatga ega bo'ladi. Shu tariqa, informatsiya uzatiluvchi kanalda, xalallar mavjudligi sababli, uzatilgan va qabul qilingan xabarlar orasida moslik buziladi. Xalallar dastlabki xabarlardagi informatsiyani buzadi va xalallar darajasi kattaligida informatsiya aytarlicha kamayishi mumkin. Aytaylik, ikkilik x_1 va x_2 holatga, $p(x_1)$ va $p(x_2)$ ehtimolliklarga ega ikkilik (binar) xabar uzatilishi lozim bo'lsin. Agar ehtimolliklar bir xil, ya'ni,

$p(x_1) = p(x_2) = \frac{1}{2}$ bo'lsa uzatiluvchi informatsiya maksimal bo'ladi.

Aloqa liniyasida xalallar shunday xarakterga ega bo'lishi mumkinki, qabul qiluvchi tomonda y_1 va y_2 holatlar ehtimolliklari bir-biridan

anchagini farqlanishi mumkin masalan, $p(y_1) >> p(y)$. Bu $H(Y)$ entropiyaning buzilishidan va kamayishidan darak beradi. Xalallar ta'sirida uzatiluvchi informatsiya ham buzilishi mumkin. Bu holda holatlarni qabul qilish ehtimolliklarining bir xilligi saqlanadi: $p(y_1) = p(y_2)$, ammo uzatiluvchi holat x_1 va qabul qilinuvchi holat y_1 orasida va demak x_2 va y_2 orasida bir ma'noli moslik bo'lmaganligi tufayli dastlabki informatsiya buziladi. Ushbu holatlar orasida, $p(y_1/x_1)$ va $p(y_2/x_2)$ shartli ehtimolliklar orqali xarakterlanuvchi, statistik bog'liqlik kamayadi va uzatiluvchi xabarlar holatini noto'g'ri qabul qilish ehtimolliklarini belgilovchi yolg'on o'tishlar ehtimolliklar $p(y_2/x_1)$ va $p(y_1/x_2)$ ortadi.

Xalallar ta'sirini susaytirish maqsadida informatsion tizimga qo'shimcha ikkita qurilma 2-koder va 2-dekoder kiritishga to'g'ri keladi (3.2-rasm).




3.2-rasm. Xalallar mavjudligida xabarlarni uzatuvchi informatsion sistema modeli

2-koder signallarni xalallarga bardosh kodlashni amalga oshirishga mo'ljallangan. Oddiy holda, 2-kodlash qurilmasi 1-koderning, aloqa liniyasida xalallarning eng kuchli ta'sirida bo'lgan, signallarini qayta-qayta takrorlaydi. Qayta-qayta uzatilgan signallarni solishtirish ularni noto'g'ri qabul qilish ehtimolliklarini kamaytiradi. Ammo, xalallarga bardosh kodlashning bunday usuli uzatishning kerakli vaqtini keskin oshiradi. Ta'kidlash lozimki, har qanday holatda 2-koderning 1-koder signaliga u yoki bu ortiqchilikni kiritishi sistemaning xalallarga bardoshligini oshiradi.

1-dekoderning vazifasi – 1-koderning chiqish yo'lida olingan signalga mos signalni tiklash. 1-koder va 2-dekoder vazifalari 3.1-rasmdagidek.

Xalallar yuqligida uzatiluvchi X va qabul qilinuvchi Y xabarlar orasida qat'iy moslik mavjud, ya'ni $H(X) = H(Y)$. Xalallar ta'sirida uzatiluvchi informatsiya buziladi va $H(Y)$ ma'lumligida X ni to'liq

bilish uchun $H(X/Y)$ yetishmaydi. Xalallar ta'sirida uzatiluvchi va qabul qilinuvchi xabarlar orasidagi bog'liqlikning geometrik talqini 3.3-rasmda keltirilgan.



3.3-rasm. Xalallar ta'sirida uzatiluvchi va qabul qilinuvchi xabarlar orasidagi bog'liqlik

bu yerda $H(X/Y)$ entropiyani, aloqa kanali bo'yicha uzatiluvchi xabarga xalallar ta'siri natijasidagi, informatsiyaning yo'qolishi deb atash mumkin.

Agar uzatiluvchi informatsiyaning umumiy miqdori $H(X)$ dan informatsiya yo'qolishi ayirilsa, uzatiluvchi xabarlar majmui $X - I(Y, X)$ ga nisbatan, qabul qilingan xabarlar majmui tarkibidagi Y informatsiya miqdori olinadi.

$$I = (Y, X) = H(X) - H(X/Y),$$

yoki, 3.3-rasmdan ko'rindaniki

$$I = (Y, X) = H(Y) - H(Y/X).$$

Aloqa liniyasida xalallarning ta'siri kuchli bo'lganida X va Y xabarlar o'zaro statistik bog'lanmagan holatga keladi. Bu holda $H(X/Y) = H(X)$ va $H(Y/X) = H(Y)$, ya'ni X ga nisbatan Y tarkibidagi informatsiya miqdori "0" ga teng. Boshqacha aytganda, Y holatlari orqali xarakterlanuvchi xabarlar tarkibida X holatlari orqali xarakterlanuvchi xabarlar xususidagi hech qanday informatsiya bo'lmaydi.

Xabar elementlarining alohida holatlarining o'zaro bog'liq bo'lmaganligi holida aloqa liniyasi chiqish yo'lidagi entropiya quyidagicha hisoblanadi.

$$H(Y) = - \sum_{j=1}^q p(y_j) \log p(y_j),$$

bu yerda Y alfavit simvollarining soni X alfavit simvollarining

soniga teng deb faraz qilinadi.

Shartli entropiya quyidagicha hisoblanadi.

$$H(Y/X) = - \sum_{i=1}^q p(x_i), \sum_{j=1}^q p(y_i/x_i) \log p(y_i/x_i).$$

Aloqa kanalining o'tkazish qobiliyatini quyidagi ifoda orqali aniqlanadi.

$$C^* = \frac{1}{\tau} \max I(Y, X) \text{ bit/sec}$$


bu yerda maksimum xabarlar manbaini xarakterlovchi ehtimolliklarning bo'lishi mumkin bo'lgan barcha taqsimotlari bo'yicha qidiriladi.

Aloqa kanalining o'tkazish qobiliyatini hisoblash misolini ko'raylik.

Aytaylik, ikkilik signallarni V tezlikda uzatuvchi aloqa kanalining o'tkazish qibiliyatini aniqlash talab etilsin. Xalallar ta'sirida ushbu signallarning teskarisiga o'zgarishi ehtimolligi "p" ga teng (demak, to'g'ri qabul qilinishi ehtimolligi $1 - p$). Uzatiluvchi signallar o'zarboq qilib uzatishni deb faraz qilinadi.

Bu holda X alfavit va Y alfavit ikkita simvoldan iborat bo'ladi: $X\{x_1, x_2\}, Y\{y_1, y_2\}$. 3.4-rasmda keltirilgan diagrammada ikkilik signallarni uzatishning mumkin bo'lgan variantlari va ularga mos ehtimolliklar ko'rsatilgan. Bu xildagi *kanal ikkilik simmetirik kanal* nomini olgan.

$$p(y_1/x_1) = 1 - p$$



$$p(y_2/x_2) = 1 - p$$

3.4-rasm. Ikkilik simmetirik kanal

Shartli entropiya hisoblanadi:

$$\begin{aligned}
 H\left(\frac{Y}{X}\right) &= -\sum_{i=1}^2 p(x_i), \sum_{j=1}^2 p\left(\frac{y_j}{x_i}\right) \log p\left(\frac{y_j}{x_i}\right) \\
 &= -p(x_1)[(1-p)\log(1-p) + p\log p] - p(x_2)[p\log p \\
 &\quad + (1-p)\log(1-p)] = \\
 &= -[p(x_1) + p(x_2)][p\log p + (1-p)\log(1-p)].
 \end{aligned}$$

$p(x_1) + p(x_2) = 1$ ekanligini inobatga olsak, quyidagini yozish mumkin $H(Y/X) = -p\log p - (1-p)\log(1-p)$. Demak, $H(Y/X)$ xabarlar manbai xarakteristikalariga, ya'ni $p(x_1)$ va $p(x_2)$ ga bog'liq emas. $H(Y)$ qiymati $\log_2 q = \log_2 2 = 1$ dan katta bo'la olmasligini hisobga olgan holda, quyidagini yozish mumkin:

$$maxI(Y, X) = 1 + p\log p + (1-p)\log(1-p),$$

bu yerda p – xalallar ta'siri yuzaga keltiruvchi xatolik ehtimolligi.

Demak, o'tkazish qobiliyatি

$$C^* = 1/\tau maxI(Y, X) = 1/\tau [1 + p\log p + (1-p)\log(1-p)].$$

Jumladan, $p = 0$ bo'lganida, ya'ni kanalda shovqun bo'lmaganida aloqa liniyasining o'tkazish qobiliyatি signalni uzatish tezligiga teng bo'ladi ($C^* = V$).

Misol. Ikkilik simmetrik kanal orqali xabarlar uzatilganida, xalallar ta'sirida 3% xabarlar uzatilganida mos kelmaydi, ya'ni har bir 100 ta xabarning uchtasida nulning o'rнига bir yoki birning o'rнига nul qabul qilingan. Kanalning o'tkazish qobiliyatи aniqlansin.

Yechish. Ehtimolliklar aniqlanadi:

$$\begin{aligned}
 p(x_1) &= 0.5; p(x_2) = 0.5; p(y_1) = 0.5; ; p(y_2) = 0.5; \\
 p(y_1/x_1) &= 0.97; p(y_2/x_1) = 0.03; p(y_1/x_2) = 0.03; p(y_2/x_2) \\
 &= 0.97;
 \end{aligned}$$

Entropiya qiymatlari aniqlanadi.

$$\begin{aligned}
 H(X) - H(Y) &= -(0.5\log_2 0.5 + 0.5\log_2 0.5) = 1 \\
 H(A/B) = H(B/A) &= -(0.97\log_2 0.97 + 0.03\log_2 0.03) \\
 &= -0,1944 \text{ bit/ikkita simvol}
 \end{aligned}$$


$$\begin{aligned}
 H(X, Y) &= H(Y, X) = H(X) + H(Y/X) = 1 + 0.1944 \\
 &= 1.1944 \text{ bit/ikkita simvol}
 \end{aligned}$$

O'tkazish qobiliyati:

$$\begin{aligned}C^* &= n[H(X) - H(X/Y)] = n[H(X) + H(Y) - H(Y, X)] \\&= n(1 - 0.1944) == n * 0.8056 \text{ bit/sek.}\end{aligned}$$

3.3. Ma'lumotlarni zichlash

Ma'lumotlarni zichlash-berilgan kodga yoki xabarga mos qisqaroq kod yoki xabarni olish amali. Kodlashning zichlashdan farqi shundaki, kodlar kodlanuvchi xabarlardan deyarli doimo uzun, chunki kodning sifat alomatlari soni odatda kodlanuvchi xabarning sifat alomatlari sonidan katta bo'lmaydi. 3.5-rasmda ma'lumotlarni zichlash algoritmining blok-sxemasi keltirilgan.




3.5-rasm. Ma'lumotlarni zichlash algoritmining blok-sxemasi

Ushbu sxemada ma'lumotlar manba tomonidan shakllantiriladi, ularning ixcham ifodalanishi esa zichlangan ma'lumotlar sifatida belgilanadi. Ma'lumotlarni zichlash sistemasi manba koderi va dekoderidan iborat. Koder manba ma'lumotlarini zichlangan ma'lumotlarga aylantiradi, dekoder esa manba ma'lumotlarini zichlangan ma'lumotlar asosida tiklashga mo'ljallangan.

Ma'lumotlarni zichlashning ikki xil sistemasi mavjud:

– informatsiyani yo'qotmasdan zichlash sistemasi (buzmaydigan zichlash);

– informatsiyani yo'qotib zichlash sistemasi (buzuvchi zichlash);
Informatsiyani yo'qotmasdan zichlash sistemasi. Zichlash sistemasining struktura sxemasi 3.6-rasmida keltirilgan.



3.6-rasm. Yo'qotmasdan zichlash sistemasining strukturasi

Zichlanishi lozim bo'lgan manba ma'lumotlari vektori X ($X = (x_1, x_2, \dots, x_n)$ uzunligi chekli ketma-ketligi) – analog

informatsion signalning formatlangan natijasi. X vektorning komponentlari x_i ma'lumotlarning chekli alfaviti A dan tanlangan.

Bunda ma'lumotlar vektorining o'lchami "n" cheklangan, ammo yetarli darajada katta bo'lishi mumkin. Koderning chiqish yo'lida kirish yo'li vektori X ga javob tariqasida "k" o'lchamli ikkilik ketma-ketlik B ($X = (b_1, b_2, \dots, b_k)$) shakllanadi. $B(X)$ – vektor X ga koder tomonidan shallantirilgan kod so'zi. Zichlash sistemasi buzmaydigan bo'lganligi sababli $X_l = X_m$ kabi bir xil vektorlarga bir xil $B(X_l) = B(X_m)$ kod so'zları mos keladi.

Zichlash masalalarini yechishda u yoki bu sistemaning naqadar samarador ekanligiga e'tibor berish muhim hisoblanadi. Asosan ikkilik kodlash ishlatilganligi sababli, manba ma'lumotlarining bitlardagi o'lchamiga nisbati sifatida aniqlanuvchi *zichlash koeffitsiyenti "r"* sistema samaradorligining o'lchovi bo'lishi mumkin, ya'ni

$$r = \frac{n \log (\dim A)}{K},$$

bu yerda, $\dim A$ - ma'lumotlar alfaviti A ning o'lchami.


Shunday qilib, zichlash koeffitsiyenti $r = 2$ bo'lsa, zichlangan ma'lumotlar hajmi manba ma'lumotlari hajmining yarmini tashkil etadi. Zichlash koeffitsiyenti qanchalik katta bo'lsa, ma'lumotlarni zichlash sistemasi shunchalik yaxshi ishlaydi. Ma'lumotlarni zichlash sistemasining samaradorligini zichlash tezligi R orqali ham xarakterlash mumkin. Zichlash tezligi quyidagi nisbat orqali aniqlanadi:

$$R = \frac{k}{n}$$

Zichlash koeffitsiyenti katta sistemada zichlash tezligi past bo'ladi.

Informatsiyani yo'qotib zichlash sistemasi

Informatsiyani yo'qotib zichlash sistemasida manba xabarlarini zichlash jarayoni shunday amalga oshiriladiki, tiklash muolajasi zichlanishi lozim bo'lgan kirish yo'li ma'lumotlari vektori X ($X = (x_1, x_2, \dots, x_n)$) strukturasi va qiymatlariga nisbatan buzuvchi hisoblanadi. Zichlash sistemasining strukturasi 3.7-rasmida keltirilgan.



3.7-rasm. Yo'qotib zichlash sistemasining strukturasi

Oldingi sxemadagidek, $X = (x_1, x_2, \dots, x_n)$ - zichlanishi lozim bo'lgan kirish yo'li ma'lumotlari vektori. Tiklangan vektor $X^* = (x_1^*, x_2^*, \dots, x_n^*)$ kabi belgilanadi. Koder ma'lumotlar vektori $X = (x_1, x_2, \dots, x_n)$ ni buziladigan zichlanishga duchor qiladi va shu tariqa X bilan $B(X^q)$ orasida moslik ta'minlanadi. ($X = X^q$ sharti bajarilmasligi mumkin). Sistema buzuvchi bo'lib qoladi, chunki ikkita turli vektor X^* ga xuddi o'sha X ning o'zi javob beradi. Buzuvchi koder kirish yo'li ma'lumotlari vektoriga nisbatan, o'rtacha kvadratik masofa ma'nosida, X ga yetarlicha yaqin X^q vektorni shakllantiradi. Buzuvchi koder ikkita parametr – zichlash tezligi “ R ” va bo'zilishlar qiymati “ D ” orqali xarakterlanadi:

$$R = \frac{k}{n}; \quad D = \left(\frac{1}{n} \sum x_i - x_i^* \right)^2.$$

R parametr zichlash tezligini bitlarda xarakterlasa, D kattalik qiymati X^* va X orasida o'rtacha kvadratik farqning o'lchami hisoblanadi.

Afsuski, bir vaqting o'zida zichlash tezligi R ni pasaytirish va buzilishlar qiymati D ni kamaytirish mumkin emas, chunki bu ikkala parametr teskari bog'lanishga ega. Shu sababli, yo'qotib zichlash sistemasini optimizatsiyalash maqsadi berilgan buzilishlar qiymatida tezlikni minimallashtirish yoki berilgan zichlash tezligida buzilishlar qiymatini minimallashtirish bo'lishi mumkin.

Buzmaydigan zichlash sistemasini yoki buzuvchi zichlash sistemasini tanlash zichlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlar xiliga bog'liq.

Matnli ma'lumotlarni, kompyuter dasturlarini, hujjatlarni va h. zichlashda buzmaydigan usullarni tanlash lozim, chunki dastlabki ma'lumot zichlanganidan so'ng uni mutlaq aniq tiklash zarur. Tilni, musiqa ma'lumotlarini va tasvirlarni zichlashda ko'pincha buzuvchi

zichlashdan foydalaniladi, chunki u bilinmaydigan buzilishlarda tezlikni bir tartibga kamaytirishni ta'minlaydi. Umumiy holda buzuvchi zichlash, odatda, buzmaydigan zichlashga qaraganda zichlashning yuqori koeffitsiyentini ta'minlaydi.

Nazorat savollari

1. Informatsiyani uzatish tezligi nimaga bog'liq?
2. Signalni uzatish tezligi nimaga bog'liq?
3. Xalallar yo'qligida aloqa kanalining o'tkazish qobiliyati qanday aniqlanadi?
4. Xalallar mavjudligida aloqa kanalining o'tkazish qobiliyati qanday aniqlanadi?
5. Ikkilik simmetrik kanal nima?
6. Informatsiyani buzmasdan va buzib zichlash mohiyatini tushuntiring.
7. Informatsiyani buzmasdan zichlash sistemasining yoki informatsiyani buzib zichlash sistemasini tanlash nimaga bo'gлиq?

4-BOB. KODLASH VA DEKODLASH


4.1. Kodlar, kodlash va dekodlash

Informatsiyani kodlash zaruriyati kompyuterlar paydo bo‘lmasdan anchagina oldin vujudga kelgan. Texnikada kodlashga ehtiyoj telegraf paydo bo‘lishi bilan vujudga kelgan bo‘lsada, kompyuter ixtiro qilinganidan so‘ng bunday ehtiyoj yanada ortdi.

Kodlash nazariyasining ta’sir sohasi real (yoki xalalli) kanallar bo‘yicha ma’lumotlarni qamrab olsa, predmeti uzatilgan informatsiyaning korrektligini ta’minalash hisoblanadi. Boshqacha aytganda, kodlash nazariyasi signal uzatilganidan so‘ng ma’lumotlardan ishonchli va osongina foydali informatsiyani ajratib olishga imkon beruvchi ma’lumotlarni qanday joylashtirish lozimligini o‘rganadi. Ba’zida kodlash nazariyasini shifrlash bilan almashtirishadi, ammo bu noto‘g‘ri. Chunki kriptografiya teskari masalani yechadi. Uning maqsadi – ma’lumotlardan informatsiyani ajratib olishni qiyinlashtirish.

Kodlash – xabarni berilgan kanal bo‘yicha uzatish uchun qulay holga keltirish. Oddiy misol tariqasida xabarni *telegramma* ko‘rinishida uzatishni ko‘rsatish mumkin. Bunda barcha simvollar telegraf kodida kodlanadi.

Dekodlash – qabul qilingan xabarni tiklash amali. Aloqa sistemasida kodlash va dekodlash uchun qurilmalar ko‘zda tutilishi lozim (4.1-rasm).



4.1-rasm. Xalalli aloqa kanalining informatsion modeli

Bunday sistemalarni nazariy asoslash K.Shennon tomonidan amalga oshirilgan. U qator teoremlar orqali kodlash va dekodlash qurilmalarining kiritilishi lozimligini asosladi. Kodlash va dekodlash qurilmalarining vazifalari informatsiya manbai xususiyatlarini aloqa kanallari xususiyatlari bilan muvofiqlashtirishdir. Ularning biri (kodlash qurilmasi yoki koder) shunday kodlashni amalga oshirishi lozimki, natijada informatsiya ortiqchaligini bartaraf etish yo‘li bilan

xabar birligida simvollarning o‘rtacha soni jiddiy kamaysin.

Bu esa o‘z navbatida xalallar yo‘qligida uzatishning vaqt yoki xotira qurilmasining hajmi bo‘yicha yutuqqa ega bo‘lishga imkon beradi. Bunday kodlash *samarali* deb ataladi, chunki u sistema samaradorligini oshiradi. Uzatish kanalida xalallar mavjudligida bunday kodlash kirish yo‘li informatsiyasini uning keyinchalik ishlanishi masalasiga maqbul javob beruvchi ketma-ketlikka o‘zgartirishga imkon beradi. Boshqa kodlash qurilmasi (kanal koderi) qo‘srimcha informatsiya ortiqchaligini kiritish yo‘li bilan informatsiyani uzatishda yoki saqlashda berilgan haqiqiylikni ta’minlaydi. Bunday kodlash *ortiqchali* yoki *xalallarga bardosh* kodlash deb yuritiladi.

Kodlar va kodlash nazariyasining asosiy tushunchalari. Kodlar maxfiy yozuv vositasi sifatida qadimdan ma’lum. Yunon tarixchisi Gerodot eramizdan avval V – asrda faqat adresatga tushunarli xatlarga misol keltirgan. Maxfiy *alfavit* Yuliy Sezar tomonidan ishlatilgan. Turli maxfiy shifrlarni yaratish ustida o‘rta asr olimlari F.Bekon, D.Kardano va boshqalar ishlashgan. Juda antiqa shifrlar va kodlar paydo bo‘ldi. Ammo vaqt o‘tishi bilan ular rasshifrovka qilindi va ularning maxfiyligi yo‘qoldi.

Aloqa kanallari bo‘yicha xabarlarni uzatishga mo‘ljallangan birinchi kod S.Morze kodi hisoblanadi. Bu kodda harf va sonlarni kodlashga mo‘ljallangan simvollarning turli soni mavjud. Keyin telegrafiyyada ishlatiluvchi N.Bodo kodi paydo bo‘ldiki, unda har bir harf va son simvollarning bir xil soniga ega. Simvollar sifatida berilgan onda elektr zanjiridagi impulsning borligi yoki yo‘qligini ko‘rsatish mumkin.

Ikkita turli elementar signallarni ishlatuvchi kodlar *ikkilik kodlar* deb ataladi. Ushbu signallarni 0 va 1 simvollar yordamida belgilash qulay hisoblanadi. Unda kod so‘zi nollar va birlar ketma-ketligidan iborat bo‘ladi. Informatsiyani kodlash masalasiga raqamli ma’lumotlarni qandaydir o‘zgartirish sifatida qarash mumkin. Xususiy holda ushbu amal simvollarni guruhash (triadalar yoki tetradalar ko‘rinishida ifodalash) yoki pozitsion sanoq sistemasidagi simvollar (raqamlar) ko‘rinishida ifodalashga keltirilishi mumkin.

Kod soz’i har xil uzunlikda bo‘lsa bunday kod *notekis kod* deb yuritiladi. Kodning tuzatish (*korrektlash*) qobiliyati tushunchasini

odatda xatolarni aniqlash va tuzatish imkoniyati bilan bog'lashadi. Miqdoran kodning tuzatish qobiliyati xatolikni aniqlash va tuzatish ehtimolligi orqali aniqlanadi. Ta'kidlash lozimki, asosiy e'tiborni yakka xatoliklarni aniqlash va tuzatishga qaratilishi lozimligi isbot qilingan.

Kodning tuzatish qobiliyati kod masofasi tushunchasi bilan ham bog'liq.

Kod kombinatsiyasining salmog'i $V(A)$ – kod kombinatsiyasidagi birlar soni. A va B kod kombinatsiyalari uchun *kod masofasi* $d(A, B)$ dastlabki kombinatsiyalarni 2ning moduli asosida xonalar bo'yicha jamlash orqali aniqlanuvchi uchinchi kombinatsiyaning salmog'i sifatida aniqlanadi. Ushbu masofa ba'zida Xemming masofasi deb ham yuritiladi.

Misol:


$A = 011011100$ va $B = 100111001$ kombinatsiyalari uchun salmoq va kod masofasi aniqlansin.

Yechish:

$$V(A) = 5; V(B) = 5.$$

Uchinchi kod kombinatsiyasi $C = A \oplus B = 111100101$. Demak $d(A, B) = 6$.

Kodlarni qandaydir geometrik shakllar sifatida ko'rish mumkin. Masalan, triadaning ikkilik simvollarga mos keluvchi koordinata o'qlariga ega bo'lgan quyidagi birlik kub ko'rinishida ifodalash mumkin (4.2-rasm).



4.2-rasm. Triadaning ikkilik simvollarga mos keluvchi koordinata o'qlariga ega bo'lgan birlik kub ko'rinishi

Bunda kod masofasi kubning mos uchlari orasidagi yoylar uzunligi yig'indisi orqali aniqlanadi (bitta yoy uzunligi 1 ga teng deb qabul qilingan). Ma'lum bo'lishicha, har qanday pozitsion sistemada minimal kod masofasi 1 ga teng.

4.2. Simvol kodlar. Prefiks kodlar

Umumiyl holda, ko'rildigan barcha kodlar birdan katta butun daraja ko'satkichli ixtiyoriy sanoq sistemasida ishlatalishi mumkin. Ikkilik sanoq sistemasi keng tarqalganligi sababli, keyingi mulohazalar ikkilik kodlarga asoslanadi.

Foydali kodga qo'yiladigan uchta asosiy talab mayjud. Birinchisi – har qanday kodlangan satr bir ma'noda dekodlanishi lozim. Ikkinchisi – simvol kod dekodlash uchun oddiy bo'lishi lozim. Uchinchisi – kod mumkin bo'lgan maksimal zichlashni ta'minlashi lozim. 4.1-jadvalda simvol kodlarga misollar keltirilgan.

Simvol kodlar misoli

4.1-jadval

Simvol	1-kod	2-kod	3-kod	4-kod	5-kod
a	00	00	0	1	0
b	00	01	1	10	10
c	01	10	11	100	110
d	11	11	100	1000	111


Kod bir ma'noli dekodlanuvchi hisoblanadi, agar kodning ixtiyoriy oxirgi ketma-ketligi birdan ko'p bo'lmagan xabarga mos kelsa 4.1-jadvalda keltirilgan 2,4,5-kodlar bir ma'noli dekodlanuvchi kodning misollari hisoblanadi.

Kod dekodlash uchun oddiy hisoblanadi, agar kod so'zining oxiri mos simvol olinishi bilan bir vaqtida aniqlanishi mumkin bo'lsa. Bu hech kanday kod so'zi boshqasining prefiksi bo'lmaganida sodir bo'ladi. Ikkilik ketma-ketlik "z" boshqa ikkilik ketma-ketlik "z" ning prefiksi hisoblanadi, agar "z" ning uzunligi "n"ga teng va "z"ning birinchi "n" bitlari "z" ketma-ketlikning tarkibiy qismini tashkil etsa.

Prefiks kod deb shunday kodga aytildiki, birorta kod so'zi boshqasining boshlanishi hisoblanmaydi. Prefiks kod "bir lahzada dekodlanuvchi" sifatida ham ma'lum. Chunki kodlangan satr chapdan

o'ngga, keyingi kod so'zlarini olmasdan dekodlanishi mumkin. 4.1–jadvaldagı 2- va 5-kodlar – prefiks kodlar.

Prefiks kodni dekodlash uchun kod daraxti quriladi. Daraxtsimon kod tarkibida faqat kod daraxtining oxirgi uchlariga mos kod so'zлari bo'ladi. 4.3-rasmida {011,10,11,00} prefiks kod uchun bunday daraxt misoli keltirilgan.



4.3-rasm. Prefiks kod uchun kod daraxti

Kod mumkin bo‘lgan maksimal zichlanishni ta’minlashi lozim.
4.2-jadvalda keltirilgan misolni ko’raylik.

4.2-jadval

Simvol	Ehtimolliklar	Kod
a	1/2	0
b	1/4	10
c	1/8	110
d	1/8	111

Entropiya

$$H = - \sum_{i=1}^4 p_i \log_2 p_i$$

$$= 0,5 \log_2 0,5 + 0,25 \log_2 0,25 + 2 * 0,125 \log_2 0,125$$

$$= 1,75 \text{bit/simvol}$$


Kod kombinatsiyasining o‘rtacha uzunligi ham $N_{0,rt} = \sum_i p_i * n = 1.75$.

To'rtta simvolni uzunligi o'zgarmas kod orqali kodlashga uchta ikkilik xona kerakligi hisobga olinsa, bitta simvolga o'rtacha 1,25 ikkilik xona tejaganligini ko'rish mumkin.

acdbac ketma-ketlik 0110111100110 kabi kodlanadi.

Universal kod(unar kod) – butun sonlarni ifodalashga mo‘ljallangan uzunligi o‘zgaruvchan prefiks kod. Kod nulli bit bilan tugallanuvchi, uzunligi kodlanuvchi songa teng bitlar ketma-ketligidan iborat. Shu tariqa nolni va barcha butun sonlarni kodlash mumkin. 4.4 – rasmida 0 dan 5 gacha sonlarning universal kodi keltirilgan.

n	код
0	0
1	10
2	110
3	1110
4	11110
5	111110



4.4-
rasm.

Universal kod

Ushbu kodlardan kichik sonlarni kodlashda foydalanish qulay hisoblanadi.

4.3. Samarali kodlarni qurishning Shannon-Fano algoritmi

Xalalsiz kanallar uchun *Shannon teoremasiga* binoan qandaydir alfavitning harflaridan tuzilgan xabarlarni shunday kodlash mumkinki, bitta hařfga to‘g‘ri keladigan ikkilik simvollarning o‘rtacha soni ushbu xabarlar manbai entropiyasiga yaqin bo‘ladi, ammo undan kam bo‘lmaydi.

Bunday kodlar quyidagi shartni qanoatlantirsa maksimal samarali

hisoblanadi: $N_{o'rt.} = H$,

$$\text{ikkilik kodlar uchun } \sum_i p_i (A_i) \cdot n = - \sum_i p_i \log_2 p_i$$

Teorema kodlashning muayyan usuliga ishora qilmaydi, ammo kod kombinatsiyasining har bir simvolini tanlaganda uning maksimal informatsiyani eltishini ta'minlashga harakat qilishi zarur. Demak, har bir simvol iloji boricha teng ehtimollik bilan 0 va 1 qiymatlarni olishi va har bir tanlov oldingi simvollar qiymatlariga bog'liq bo'lmashligi lozim.

O'zaro statistik bog'lanmagan xabarlar alfavitni harflari uchun samarali kodlarni qurish usullari ilk bor amerika olimlari Shannon va Fano tomonidan taklif etilgan. Ularning usullari, jiddiy farqlanmaganligi tufayli, mos kod *Shannon-Fano kodi* nomini olgan.

Shannon-Fano algoritmiga binoan samarali kodni qurish quyidagicha amalga oshiriladi:

- xabar alfavitining harflari ehtimolliklarining pasayishi tartibida joylashtiriladi;
- barcha kodlanuvchi xabar harflari ikkita guruhga shunday ajratiladiki, ikkala guruhdagi harflar ehtimolliklarining yig'indilari iloji boricha teng bo'lsin. Agar tenglikka erishib bo'lmasa, yig'indi orasidagi tafovut minimal bo'lsin;
- yuqori guruhga 0 simvoli, pastki guruhga 1 simvoli beriladi;
- hosil bo'lgan qism guruhlar o'z navbatida ikki qismga shunday ajratiladiki, yangidan hosil bo'lgan qism guruhlardagi harflar ehtimolliklarining yig'indilari iloji boricha teng bo'lsin va h.;
- jarayon har bir qism guruhda bitta harf qolgunicha takrorlanadi.

Misol:

Alfavitdagagi harflarning paydo bo'lish ehtimolliklari:

$p(A_1)=0,25;$	$p(A_2)=0,25;$	$p(A_3)=0,125;$	$p(A_4)=0,125;$
$p(A_5)=0,0625;$	$p(A_6)=0,0625;$	$p(A_7)=0,0625;$	$p(A_8)=0,0625$

bo‘lgan xabarning samarali notekis kodi qurilsin.

Yechish:


Kod qurilishining natijasi quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

Harflar	Ehtimoliklar	Harflarni guruhlarga ketma-ket ajratish				Kod so‘zlar	$p_i(A_i) \cdot n$
		1	2	3	4		
A ₁	0.25]-			00	0.5
A ₂	0.25]-				01	0.5
A ₃	0.125]-			100	0.375
A ₄	0.125]-			101	0.375
A ₅	0.0625]-]-	1100	0.25
A ₆	0.0625]-]-	1101	0.25
A ₇	0.0625]-]-	1110	0.25
A ₈	0.0625]-	1111	0.25

Shunday qilib, quyidagi kodlar hosil qilindi:

A ₁ =00;	A ₂ =01;	A ₃ =100;	A ₄ =101;
A ₅ =1100;	A ₆ =1101;	A ₇ =1110;	A ₈ =1111

4.5-rasmda ko‘rilayotgan misol uchun kod daraxti keltirilgan.



4.5-rasm. Ko‘rilgan misol uchun kod daraxti

Harflar ehtimolliklari ikkinining butun sonli manfiy darajasi bo‘lganligi sababli kodlashda ortiqchalik to‘laligicha bartaraf etiladi. Undan tashqari ushbu kodlar maksimal samarali notejis kodlardir.

Bunga ishonch hosil qilish uchun entropiyani va kod kombinatsiyalarining o‘rtacha uzunligini hisoblaymiz.

$$\begin{aligned}
 H &= -\sum_{i=1}^8 p_i \log_2 p_i = 2 \cdot 0.25 \log_2 0.25 + 2 \cdot 0.125 \log_2 0.125 + \\
 &\quad + 4 \cdot 0.0625 \log_2 0.0625 = 1 + 2 \cdot 0.375 + 4 \cdot 0.25 = 2.75
 \end{aligned}
 \text{bit/simvol}$$

$$N_{o.rt.} = \sum_i p_i(A_i) \cdot n = 2 \cdot 0.25 + 2 \cdot 0.125 + 4 \cdot 0.0625 = 2.75$$

Sakkizta simvollarni uzunligi o‘zgarmas kod orqali kodlashda uchta ikkilik xona kerakligi hisobga olinsa, bitta simvolga o‘rtacha 0,25 ikkilik xona tejaganligini ko‘rish mumkin.

4.4. Samarali kodlarni qurishning Xaffmen algoritmi

Shennon Fano usuli doimo bir ma’noli kod qurishga imkon bermaydi, chunki qismguruxlarga ajratishda ehtimolligi bo‘yicha

yuqoridagi yoki pastki qismguruxni katta deb hisoblash mumkin. Bunday kamchlik Xaffmen usulida yo‘q.

Xaffmen algoritmi bo‘yicha samarali notekis kodni qurish quyidagicha amalga oshiriladi:

- xabarlar alfavitining harflari asosiy ustunga ehtimolliklarining pasayishi tartibida joylashtiriladi;
- ikkita oxirgi harf bitta yordamchi harfga birlashtirilib, unga yig‘indi ehtimollik yoziladi;
- birlashtirishda ishtirok etmagan harflar ehtimolliklari hosil qilingan yig‘indi ehtimolligi bilan birga ehtimolliklarining pasayishi tartibida yordamchi ustunga yoziladi va ohirgi ikkitasi birlashtiriladi va h;
- jarayon yig‘indi ehtimolligi 1 ga teng bo‘lgan yagona yordamchi harf hosil qilinmaguncha davom etadi.

Misol:

Alfvavitdagi harflarning paydo bo‘lish ehtimolliklari:

$p(A_1)=0,25;$	$p(A_2)=0,25;$	$p(A_3)=0,125;$	$p(A_4)=0,125;$
$p(A_5)=0,0625;$	$p(A_6)=0,0625;$	$p(A_7)=0,0625;$	$p(A_8)=0,0625$


bo‘lgan xabarning samarali notekis kodi qurilsin.

Yechish: Kodlash jarayonini quyidagi jadval yordamida tushuntirish mumkin.

Harflar	Ehtimolliklar	Yordamchi ustunlar						
		1	2	3	4	5	6	7
A ₁	0.25	0.25	0.25	0.25	0.25	0.5	0.5	1
A ₂	0.25	0.25	0.25	0.25	0.25	0.25	0.25	
A ₃	0.125	0.125	0.125	0.25	0.25	0.25	0.25	
A ₄	0.125	0.125	0.125	0.125	0.25	0.25	0.25	
A ₅	0.0625	0.125	0.125	0.125	0.125			
A ₆	0.0625	0.0625	0.125					
A ₇	0.0625	0.0625						
A ₈	0.0625							

Berilgan xabarga mos kod kombinatsiyasini aniqlash uchun harfning jadval qatori va ustuni bo'yicha o'tish yo'lini kuzatish zarur.

Ko'zga tashlanuvchanlikni ta'minlash maqsadida kod daraxti quriladi. Ehtimolligi birga mos nuqtadan ikkita shox yo'naltirilib, ehtimolligi katta shoxga 1 simvoli, ehtimolligi kichik shoxga 0 simvoli beriladi. Bunday ketma – ket shoxlash har bir harf ehtimolligiga yetguncha davom ettiriladi (4.6-rasm).



4.6-rasm. Ko'rileyotgan misol uchun kod daraxti

Kod daraxti bo'yicha yuqoridan pastga qarab harakatlanib, har bir harf uunga mos kod kombinatsiyasini yozish mumkin.

A ₁	A ₂	A ₃	A ₄	A ₅	A ₆	A ₇	A ₈
00	01	100	101	1100	1101	1110	1111

Hosil qilingan kodlardan ko‘rinib turibdi ki, ular Shannon-Fano usuli bo‘yicha shakllangan kodlarga mos. Demak, Shannon-Fano va Xaffmen usullari bil xil samaradorlikka ega.

Shannon – Fano va Xaffmen usullarining afzalliklari

1. Ushbu usullar asosida qurilgan kodlar prefiks kodlar hisoblanganligi sababli dekodlash soddalashadi.

2. Kodlashning ushbu usullari, uzunligi o‘zgarmas kodlarga nisbattan, uzunligi qisqaroq kodlarni qurishga imkon beradi.

3. Xabarni, uni butunlay olmasdan, kelgani sari dekodlash mumkin.

Shannon – Fano va Xaffmen usullarining kamchiliklari

1. Shannon – Fano va Xaffmen usullari bo‘yicha kodlashda matndagi alfavit simvollarining paydo bo‘lish ehtimolliklari ishlatiladi. Ya’ni kodni qurishda ushbu informatsiyaga ega bo‘lish lozim. Shu sababli, kodlanuvchi barcha ketma-ketlikni oldindan bilish kerak.

2. Dekoder faylni dekodlashi uchun koder foydalangan chastotalar jadvalini zichlangan faylga yozish lozim. Demak, zichlangan xabar uzunligi chastotalar jadvali uzunligiga ortadi. Bu esa zichlash uchun o‘rinli hisoblanmaydi.

3. Kodlash boshlanishidan oldin, to‘liq chastotalar statistikasining mavjudligi zaruriyati, xabar bo‘yicha ikkita tahlilni bajarishni taqozo etadi: birinchisi-xabar modelini qurish uchun; ikkinchisi-kodlashni amalga oshirish uchun.

4.5. Eliasning samarali kodlari

Elias kodlarini qurishda Shannon-Fano va Xaffmen kodlaridagi simvollarining paydo bo‘lish ehtimolliklari talab etilmaydi. Ushbu kodlar shifrlashda ishlatilishi mumkin, chunki ushbu kodlarni qurish va dekodlash tezligi, boshqa mavjud kodlarga nisbatan, yuqori. Bu esa hozirda juda muhim hisoblanadi. Ammo, aksariyat Elias kodlarining uzunligi sonlarning oddiy ikkilik ifodasi uzunligiga nisbatan katta. Bu Elias kodlarini ishlatish sohasini cheklaydi. Shu sababli, ushbu

kodlardan kichik sonlarni kodlashda foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Eliasning gamma-kodi

Ushbu kod Piter Elias tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, musbat butun sonlarni kodlashning universal kodi hisoblanadi. U odatda maksimal qiymati oldindan ma'lum bo'lmagan butun sonlarni kodlashda ishlataladi.

Kodlash:

- son ikkilik ifodada yoziladi;
- ikkili ifoda oldi nullar bilan to'ldiriladi. Nullar soni ikkilik ifodadagi bitlar sonidan bittaga kam bo'lishi kerak.

Dekodlash:

- birinchi bir raqamigacha uchraydigan barcha nullarni sanash lozim. Aytaylik N – ushbu nullar soni;
- butun sonning birinchi (eng ma'noli) 2^N qiymatli biti bo'lib qoluvchi 1 ni e'tiborga olgan holda, butun sonning qolgan N raqamini hisoblash lozim.

Kodlash va dekodlash jarayonini 4.3-jadval yordamida tushuntirish mumkin.

4.3-jadval

Son	Ikkilik ifodalash	Bitlar soni	Eliasning gamma-kodi
1	1	1	1
2	10	2	010
3	11	2	011
4	100	3	00100
5	101	3	00101
6	110	3	00110
7	111	3	00111
8	1000	4	0001000
9	1001	4	0001001
10	1010	4	0001010
11	1011	4	0001011
12	1100	4	0001100

$N = 12$ sonini kodlash va dekodlash misoli.

Kodlash:

- 12 sonining ikkilik ifodasi - 1100 yoziladi;
- yozilgan ikkilik ifoda oldiga uchta “0” yoziladi – 0001100

Dekodlash:

- birinchi “1” gacha bo‘lgan nullar soni o‘qiladi- $N = 3$;
- 1 va $N = 3$ bit o‘qiladi. $2^3 + 100 = 12$.

Eliasning delta-kodi

Eliasning delta-kodi Eliasning gamma-kodining modifikatsiyasi hisoblanadi. Unda sonning ikkilik ifodasidagi xonalar soni ham Eliasning gamma-kodi yordamida kodlanadi.

Kodlash:

- son ikkilik ifodada, katta xonadagi birsiz yoziladi;
- sonning ikkilik ifodasi oldiga dastlabki sondagi bitlar soni gamma-kodida yoziladi.

Dekodlash:

- birinchi bir raqamigacha uchraydigan barcha nullarni sanash lozim. Aytaylik M -ushbu nullar soni;
- birdan keyin N soni $M=2$ bit kichik xonalari keladi, ularni o‘qish lozim va natijada 2^M qiymatni qo‘shish kerak;
- undan so‘ng N ning $L-1$ kichik xonalari keladi, ularni o‘qish lozim va natijaga 2^{L-1} qiymatni qo‘shish kerak.

$10(1010_2)$ sonini Eliasning delta-kodlash usuli bo‘yicha kodlash va dekodlash misoli.

Kodlash:

- son ikkilik ifodada katta xonadagi birsiz yoziladi $\rightarrow 010$;
- hosil bo‘lgan ikkilik ifoda oldiga dastlabki sondagi bitlar soni gamma kodda yoziladi $\rightarrow 00100010$.

Dekodlash:

- bitlar ketma-ketligidan 001 o‘qiladi, demak $M = 2$;
- keyingi $M = 2$ bitlar o‘qiladi $\rightarrow 00_2$, demak $L = 2^2 + 00_2 = 4$.
- keyingi $L - 1$ bitlar o‘qiladi $\rightarrow 0010_2$, demak $N = -2^{L-1} + 0010_2 = 2^{4-1} + 0010_2 = 8 + 2 = 10$.

Kodlash va dekodlash jarayonini 4.4-jadval yordamida

tushuntirish mumkin.

4.4-jadval

Son	Ikkilik ifodalash	Bitlar soni	Bitlar sonining gamma-kodi	Eliasning delta-kodi
1	1	1	1	1
2	10	2	010	010 0
3	11	2	010	010 1
4	100	3	011	011 00
5	101	3	011	011 01
6	110	3	011	011 10
7	111	3	011	011 11
8	1000	4	00100	00100 000
9	1001	4	00100	00100 001
10	1010	4	00100	00100 010
11	1011	4	00100	00100 011
12	1100	4	00100	00100 100

Eliasning omega-kodi

Eliasning omega-kodi – musbat sonlarni kodlovchi universal kod. Ushbu kod, Eliasning gamma va delta kodlariga o‘xshab, butun sonlar boshlanishi oldiga uning qiymatining tartibi universal kodda yozib qo‘yiladi. Ammo, yuqorida keltirilgan kodlardan farqli o‘laroq, omega-kod prefiksni rekursiv kodlaydi. Aynan shu sababli ushbu kod *Eliasning rekursiv kodi* nomi bilan ham ma’lum.

Kodlash:

- kod oxiriga “0” yoziladi;
- agar $N = 1$ bo‘lsa kodlash tugallangan hisoblanadi;
- kodning boshlanishi oldiga N sonining ikkilik ifodasi qo‘shiladi.

Bu bo‘limganida ikkita bit bo‘lib, bittasi “1”ga teng bo‘ladi;

- aytaylik, N qo‘shilgan bitlar sonidan bittaga kam bitlar soniga teng;
- ikkinchi qadamga qaytiladi.

Dekodlash:

- dekodlash qiymati “1” ga teng N o‘zgaruvchidan boshlanadi;

– agar keyingi bit “0” ga teng bo‘lsa, dekodlanuvchi son N ga teng bo‘ladi;

– agar keyingi bit “1” ga teng bo‘lsa, uni N bitlarga qo‘shib o‘qiladi va ushbu ikkilik son N ning yangi qiymati sifatida ishlataladi;

– ikkinchi qadamga qaytiladi.

Kodlash va dekodlash jarayonini 4.5-jadval yordamida tushuntirish mumkin.

4.5-jadval

Son	1-qadam	2-qadam	3-qadam	Eliasning omega-kodi
1	0			0
2	0	100		100
3	0	110		110
4	0	1000	101000	101000
5	0	1010	101010	101010
6	0	1100	101100	101100
7	0	1110	101110	101110
8	0	10000	1110000	1110000
9	0	10010	1110010	1110010
10	0	10100	1110100	1110100
11	0	10110	1110110	1110110
12	0	11000	1111000	1111000

N = 12 sonini kodlash va dekodlash misoli.

Kodlash:

- “0” yoziladi;
- “0” dan oldin 12 ning ikkilik ifodasi yoziladi 12(11000);
- $N = 4 - 1 = 3$ (1100 ketma-ketlik uzunligi minus 1);
- o‘ng tomonga 1111000 ikkilik ifoda yoziladi;
- N = 1, demak, 1111000 ketma-ketlik 12 sonini kodlaydi.

Dekodlash:

- N = 1;
- $11 * N = 3$ guruh o‘qiladi;
- $1100 * N = 12$ guruh o‘qiladi;
- keyingi bit “0”; shu sababli kodlangan son -12.

Nazorat savollar

1. Xalalli aloqa kanalining informatsion modelini keltiring.
2. Notekis kod nima?
3. Kod salmog‘i qanday aniqlanadi?
4. Kod masofasi qanday aniqlanadi?
5. Foydali kodlarga qo‘yiladigan asosiy talablar.
6. Prefiks kod.
7. Universal kod.
8. Shannon-Fano algoritmini so‘zlab bering.
9. Qanday kodlarga sañnarali notekis kodlar deyiladi?
10. Samarali notekis kodlarning maksimal samarali bo‘lishi shartini keltiring.
11. Xaffmen algoritmini so‘zlab bering.
12. Xaffmen algoritmining Shannon-Fano algoritmidan farqi nimada?
13. Kod daraxti qanday quriladi?
14. Shannon – Fano va Xaffmen usullarining afzalliliklari va kamchiliklari.
15. Elias kodlarining Shannon-Fano va Xaffman kodlaridan farqi nimada?
16. Eliasning Gamma-kodi.
17. Eliasning Delta-kodi.
18. Eliasning Omega-kodi.

5-BOB. XALALLARGA BARDOSH KODLASH

5.1. Xalallarning umumiy xarakteristikasi

Xalallar deganda olingan xabarning uzatilganidan tasodifiy farqlanishiga sabab bo'lувчи har qanday g'elayon tushuniladi. Xalallar odatda vujudga kelish joyi bo'yicha, statistik xususiyati bo'yicha va foydali signalga ta'sir xarakteri bo'yicha tasniflanadi.

Vujudga kelish joyi bo'yicha xalallarni tashqi va ichkilarga ajratish mumkin. Tashqilariga manbai informatsiya uzatish sistemalaridan tashqarida joylashgan xalallar taalluqli:

- atmosfera xalallari;
- quyosh va boshqa samoviy jismlarning radionurlanishi sabab bo'lувчи kosmik xalallar;
- turli elektr qurilma va agregatlar ishlashi tug'diruvchi sanoat xalallari.

Ichki xalallar informatsiyani uzatish sistemasi apparaturasining ichida vujudga keladi:

- yarim o'tkazgichli asboblardagi, rezistorlardagi va boshqa elementlardagi issiqlik shovquni ko'rinishidagi xalallar;
- aloqa liniyalari parametrlarining o'zgarishi, liniyalarning bir-biriga ta'siri hamda aloqaning qisqa muddatli uzelishi vujudga keltiruvchi xalallar;
- signalni o'zgartirishda sistemaning alohida elementlarida vujudga keluvchi xalallar (kvant shovquni);
- apparaturaning nosozligi va yetarlicha to'liq sozlanmaganligi sababli vujudga keluvchi xalallar.

Xalallar xususiyatlari bo'yicha deterministik va tasodifiy bo'lishi mumkin. Deterministik xalallardan himoyalanish qiyinchilik tug'dirmaydi.

Barcha tasodifiy xalallarni uchta guruhg'a ajratish mumkin:

- impuls xalallar;
- flyuktatsion xalallar;
- sinusoidal xalallar.

Impuls xalallar, umumiy holda, amplitudasi, davomliligi va vujudga kelish vaqtি tasodifiy bo'lgan, ixtiyoriy shaklli impulslar ketma-ketligi sifatida ifodalanadi. Momoqaldiroq, ichki yonuv

dvigatellarining o't oldirgich tizimi, kommutatsiya jarayonlari va h. bilan bog'liq xalallar impuls xalallarga xarakterli misollar hisoblanadi. Flyuktatsion xalallar tasodifiy parametrli, qisqa muddatli nomuntazam ko'p sonli impulslar majmuidan iborat. Alovida impulslar ta'siridagi o'tkinchi jarayonlar bir-biriga qo'shilib uzluksiz tasodifiy jarayonni hosil qiladi. O'tkinchi jarayonning davomliligi informatsiyani uzatish kanalining o'tkazish qobiliyati orqali aniqlanishi sababli, xalallar xarakteri kanal polosasi kengligiga bog'liq. Xalal keng polosali sistema uchun impulsli, tor polosali sistema uchun esa flyuktatsion bo'lishi mumkin.

Flyuktatsion xalallar odatda rangsiz shovqun (beliy shum) yoki rangsiz gaus shovqunidan iborat. Rangsiz gaus shovquni tarqalishi va umuman bartaraf etilishi mumkin emasligi bilan xarakterli.

Sinusoidal xalallar amplitudasi, fazasi va chastotasi tasodifiy o'zgaruvchi sinusoidal tebranishlardan iborat. Ushbu xalallarning parametrlari sekin o'zgaradi, natijada sinusoidal xalallarni modulyatsiyalovchi funksiya spektri kengligi, ma'lum bo'lishicha, kanalning o'tkazish polosasiga nisbattan amaliy jihatdan kichik. Sinusoidal xalallar manbayiga misol tariqasida begona radioqurilmalarni, o'zgaruvchan tok generatorlarini va h. ko'rsatish mumkin.

Foydali signalga ta'sir etish xarakteri bo'yicha xalallar additiv va multiplikativlarga bo'linadi. Additiv xalal – tasodifiy qo'shiluvchi signalga bog'liq bo'lmagan xalal. Additiv xalalni ba'zida "shovqun" deb ham atashadi. Multiplikativ xalal – tasodifiy ko'paytiruvchi signalga bog'liq bo'lmagan xalal. Amalda uchraydigan aksariyat xalallar additiv xalallar guruhiга mansub. Multiplikativ xalallarga misol tariqasida informatsiyani uzatuvchi kanal xarakteristikalarining tasodifiy o'zgarishi hisobiga signalning buzilishini ko'rsatish mumkin.

Barcha tasodifiy xalallar tasodifiy jarayondan iborat va ehtimolliklarning taqsimot funksiyalari yordamida tavsiflanadi.

5.2. Xalallarga bardosh kodlash

Xalalli kanallar uchun *Shannon teoremasiga* binoan simvollarni kodlashning mos usullarini tanlash yo'li bilan kanaldagi xalallar ta'siridagi xatoliklar ehtimolligini pasaytirish mumkin. Teoremedan

kanaldagi xalallarning informatsiyani uzatish aniqligiga emas, balki uzatish tezligiga cheklovlar qo‘yilishi xulosasi kelib chiqadi. Ammo, Shennon teoremasida xalallarga bardosh kodlarning qanday qurilishi lozimligi aytilmaydi. Bu savolga xalallarga bardosh kodlash nazariyasi javob beradi.

Informatsiya yaxlitligining buzulishi uning informatsion sistemalarda aylanish bosqichlarida, ya’ni informatsiyani saqlashda, uzatishda va ishlashda sodir bo‘lishi mumkin.

Informatsiya yaxlitligi deganda avtorizatsiyalanmagan foydalanuvchi yoki jarayon tomonidan uning modifikatsiyalanishi mumkin emasligi tushuniladi.

Informatsiya yaxlitligining buzilishi tasodifiy va atayin bo‘lishi mumkin. O‘z navbatida tasodifiy buzilishlar, tabiiy omillar ta’siri bilan bog‘liq, tabiiy yoki sun’iy bo‘lishi mumkin. Tasodifiy sun’iy buzilishlar inson faoliyati (xodimning tasodifiy xatosi) bilan bog‘liq.

Atayin buzilishlar doimo buzg‘unchining aniq bir maqsadga yo‘naltirilgan harakatlari bilan bog‘liq. Bunday va boshqa harakatlar natijasida informatsiyaning raqamli ifodalanishida (ishlatiluvchi sanoq sistemasi va informatsiyani ifodalash shakliga bog‘liq bo‘lmagan holda) simvollarning qandaydir soni buziladi va shu nuqtai nazaridan informatsiya yaxlitligiga tahdid ro‘y beradi deb hisoblash mumkin. Shu sababli informatsion sistemalar va ularning elementlarini ishlab chiqish va ekspluatatsiyasida informatsiya yaxlitligini ta’minalash dolzarb masala hisoblanadi.

Informatsiya yaxlitligini ta’minalash uchun informatsiya tarkibiga ortiqcha informatsiya kiritiladi. Ortiqcha informatsiyani shakllantirish muoljasи ma’lum va kodlashning xalallarga bardosh usullariga mansub.

Xalallarga bardosh kodlash vazifasi- xalallarga bardosh kodlarni qo‘llab informatsiya yaxlitligini ta’minalash.

Xalallarga bardosh tuzatuvchi kodlash informatsion xabardagi buzilishlarni aniqlovchi va bartaraf etuvchi dasturiy-apparat vositalarni amalga oshirishga imkon beradi. Xatoliklarni tuzatuvchi kodlash, mohiyatan, aloqaning raqamli kanallari bo‘yicha informatsiya oqimini uzatish ishonchlilagini oshirishga mo‘ljallangan signallarni ishlash usuli hisoblanadi. Garchand kodlashning turli sxemalari bir biridan farqlansada va turli matematik nazariyalarga asoslansada, ularning

barchasiga quyidagi ikkita umumiy xususiyat xos.


1. *Kod so'ziga nisbatan informatsiya ortiqchaligidan foydalanish.* Kodlangan raqamli xabarlar tarkibida doimo qo'shimcha (ortiqcha) simvollar mavjud. Ulardan, informatsiya yaxlitligini tiklash qoidasi yoki algoritmini belgilab, har bir xabarning o'ziga xosligini yanada ma'nodorligini ko'rsatish uchun foydalilanadi.

2. *Xatoliklar ta'sirini o'rtalashtirish.* O'rtalashtirish samaradorligiga ortiqcha simvollarning bir qancha informatsion simvollarga bog'liqligi hisobiga erishiladi. Xalallli kanallarda xalallarga bardosh kodlash xabarlarni uzatish ishonchliigini oshirishning samarali vositasi hisoblanadi. Xalallarga bardosh kodlash xalallar ta'siri tug'diruvchi xatoliklarni tuzatuvchi maxsus kodlardan foydalishga asoslangan.

Informatsiyani saqlash yoki uzatish jarayonida paydo bo'lувчи xatoliklarni tuzatishda kod ortiqchaligining ishlatalishi barcha tuzatuvchi kodlar uchun bazaviy algoritm hisoblanadi.

Xabarga ortiqchalik qanday kiritilishi bo'yicha blokli kodlar va rekurrent (сверточные) kodlar farqlanadi.

Blokli kodlashda ishlataluvchi algoritma muvofiq informatsion simvollarning har bir bloki informatsion xabarning boshqa bloklariga bog'liq bo'lмаган holda ishlanadi. Boshqacha aytganda, blokli kodlashda kod so'zлari bir-biriga bog'liq emas. Shu ma'noda blokli kodlash xotirasiz kodlash hisoblanadi. Blokli kodlashda ortiqcha simvollar informatsion simvollar ketidan yoziladi (5.1-rasm). Natijada sistematik deb ataluvchi kod ketma-ketligi yoki kod so'zi tashkil etiladi.



Rekurrent (сверточные, zanjir) kodlashda ishlataluvchi algoritma muvofiq koder nafaqat ushbu ondag'i informatsion simvollarga, balki koderning kirish yoki chiqish yo'llaridagi oldingi

simvollarga ham bog'liq. Shu ma'noda rekurrent kodlash *xotirali kodlash* hisoblanadi. Rekkurent kodlar informatsion xabarlardagi buzilishlarni aniqlash va tuzatish maqsadida ikkilik simvollarning uzluksiz ketma-ketligini, unga maxsus nazorat (ortiqcha) simvollarni kiritish yo'li bilan, kodlashda ishlataladi.

Hozirda mavjud xalallarga bardosh kodlarning aksariyatida qo'shimcha shartlar ularning algebraik strukturalarining natijasi hisoblanadi. Shu sababli ular *algebraik kodlar* deb yuritiladi.

Ajraluvchi va ajralmaydigan blok kodlar farqlanadi. Ajraluvchi kodlar yordamida kodlashda chiqish yo'li ketma-ketligi vazifalari aniq chegaralangan simvollardan tashkil topadi. Bu kanal koderi kirish yo'liga beriluvchi simvollar ketma-ketligi bilan bir xil bo'lgan informatsion simvollar hamda xatoliklarni aniqlashga va tuzatishga xizmat qiluvchi dastlabki ketma-ketlikka kiritiluvchi ortiqcha (tekshiruvchi) simvollar.

Ajralmaydigan kodlar yordamida kodlashda chiqish yo'li ketma-ketligining simvollarini informatsion va tekshiruvchilarga ajratish mumkin emas.

Ajraluvchi blok kodlarning eng katta sinfini sistematik yoki chiziqli blok kodlar tashkil etadi. Bunday kodlarda tekshiruvchi simvollar ma'lum informatsion simvollar ustida chiziqli amallar bajarilishi natijasida aniqlanadi. Ikkilik kod uchun har bir tekshiruvchi simvol shunday tanlanadiki, uning ma'lum informatsion simvollar bilan 2ning moduli bo'yicha yig'indisi nolga teng bo'lsin.

Dekodlash simvollarning ma'lum guruhini juftlikka tekshirishga keltiriladi. Shu sababli bunday kodlar *jusfilikka tekshirishli kodlar* nomini olgan.

Rekurrent (*сверточные, zanjir*) kodlarda kodlanuvchi informatsion simvollar ketma-ketligiga ortiqcha simvollarni kiritish uzluksiz ravishda, uni bloklarga ajratmasdan amalga oshiriladi. Uzluksiz kodlar ham ajraluvchi va ajralmaydigan bo'lishi mumkin. Ushbu kodlar texnik amalga oshirilishi nuqtai nazaridan eng sodda hisoblanadi.

Asosiy tushunchalar. Xalallar ta'sirida xatolik kod kombinatsiyasining faqat bitta xonasida sodir bo'lsa, bunday xatolik *bir karrali* deb ataladi. Ikki, uch va h. xonalarda xatolik bo'lsa, bunday xatolik mos holda *ikki karrali, uch karrali* va h. deb ataladi.

Kod kombinatsiyasidagi buzilgan simvollar joyini ko'rsatishda *xatolik vektori* tushunchasidan foydalilanildi. n xonali kodning xatolik vektori – n xonali kombinatsiya bo'lib, undagi birlar kod kombinatsiyasidagi buzilgan simvollar o'rnini ko'rsatadi.

Xatolik vektorining salmog'i xatolik karraligini xarakterlaydi. Buzilgan kod kombinatsiyasi va xatolik vektorining 2ning moduli bo'yicha yig'indisi dastlabki buzilmagan kod kombinatsiyasini beradi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, ikkita ixtiyoriy kod kombinatsiyalarining farqini aniqlashda kodlar orasidagi masofa xarakteristikasidan foydalilanildi.

Ikkita ruxsat etilgan kod kombinatsiyalari orasidagi eng kichik masofa *minimal kod masofasi* deb ataladi va kodning bu xarakteristikasi uning tuzatish qobiliyatini belgilaydi.

Kodlash nazariyasida sistematik kodlar (informatsion xonalardan tashqari nazorat xonalariga ega kodlar) minimal kod masofasi $2t$ ga teng yoki undan katta bo'lgandagina xatoliklarni aniqlay olishi isbot qilingan, ya'ni

$$d_{min} \geq t + 1$$

bu yerda t –aniqlanuvchi xatoliklarning karraligi (yakka xatoliklarda
 $t = 1$ va h.).

Nafaqat xatoliklarni aniqlash, balki uni tuzatish (xatolik o'rmini ko'rsatish) talab qilinganida minimal kod masofasi quyidagicha bo'lishi shart.

$$d_{min} \geq 2t + 1$$

Misol:

$V_{\bar{e}} = 2$. 1100 kod kombinatsiyasi uzatilgan, xatolik vektorining salmog'i

- buzilgan kod kombinatsiyalarining bo'lishi mumkin bo'lgan variantlari aniqlansin;

- barcha xatoliklarni aniqlashga zarur kod masofasi aniqlansin.

Yechish:

1) Buzilgan kombinatsiyalar dastlabki kombinatsiyani xatolik vektoriga 2ning moduli bo'yicha jamlash orqali aniqlanadi.

$V_{\bar{e}} = 2$ da xatolik vektorining quyidagi variantlari bo'lishi mumkin:

$$\bar{e} = 0011; 0101; 1001; 0110; 1010; 1100.$$

Demak, buzilgan kombinatsiya variantlari quyidagicha:

1111; 1001; 0101; 1010; 0110; 0000.

2) $V_e = 2$ da xatolik karraligi $t = 2$. Bunday xatoliklarni aniqlash uchun zarur minimal kod masofasi $d_{min} \geq t + 1 = 2 + 1 = 3$.

5.3. Kodning tuzatish qobiliyati bilan kod masofasi orasidagi bog'liqlik

Aytaylik karraligi $t=1$ va undan katta barcha xatoliklarni aniqlovchi kodni qurish kerak bo'lsin.

Bunday kodni qurish uchun mumkin bo'lgan $N_0 = 2^n$ kombinatsiyalar to'plamidan ruxsat etilgan $N = 2^k$ kombinatsiyalarni shunday tanlab olish kerakki, ulardan ixtiyorisi salmog'i $V_e < t$ bo'lgan ixtiyoriy xatoliklar vektori bilan 2ning moduli bo'yicha jamlanganda tanlangan ruxsat etilgan kombinatsiya olinsin. Buning uchun qo'yidagi shart qanoatlantirilishi lozim:

$$d_{min} \geq t + 1$$

Kod kombinatsiyasining tuzatuvchi sifatida ishlatalishi uchun taqilangan kod kombinatsiyalari bir-birini kesib o'tmaydigan qismto'plamlarga ajratiladi.

Qism to'plamlarning har biriga ruxsat etilgan kombinatsiyalarining biri moslashtiriladi. Agar qabul qilingan taqilangan kombinatsiya qandaydir qismto'plamga taalluqli bo'ssa ushbu to'plamga moslashtirilgan ruxsat etilgan kombinatsiya uzatilgan deb hisoblanadi va xatolik tuzatiladi.

Misol tariqasida uzunligi $n = 3$ bo'lgan kodni ko'raylik.

Bunday kodning bo'lishi mumkin bo'lgan kombinatsiyalari 5.1-jadvalda keltirilgan.

5.1-jadval

A_1	A_2	A_3	A_4	A_5	A_6	A_7	A_8
000	001	010	011	100	101	110	111

Kod kombinatsiyalari orasidagi masofa matritsasi 5.2-jadvalda keltirilgan.

5.2-jadval

	A_1	A_2	A_3	A_4	A_5	A_6	A_7	A_8
A_1	0	1	1	2	1	2	2	3
A_2		0	2	1	2	1	3	2
A_3			0	1	2	3	1	2
A_4				0	3	2	2	1
A_5					0	1	1	2
A_6						0	2	1
A_7							0	1
A_8								0

Kodning bir karrali xatoliklarni aniqlanishini ta'minlashi uchun bo'lishi mumkin bo'lgan kombinatsiyalar to'plami $N_0 = 8$ dan ruxsat etilganlari sifatida shundaylarini tanlab olish kerakki, ular orasidagi masofa $d = 2$ dan kam bo'lmasin. Masofalar matritsasidan ko'rinish turibdiki, ruxsat etilgan kombinatsiyalar sifatida quyidagilarni tanlash mumkin:

$$A_1 = 000; \quad A_4 = 011; \quad A_6 = 101; \quad A_7 = 110.$$

Ikki karrali xatoliklarni aniqlash uchun kod masofasi $d_{min} = 3$ bo'lishi lozim. Bunda ruxsat etilgan kombinatsiyalar sifatida quyidagilarni tanlash mumkin: $A_1 = 000; A_8 = 111$.

Quyidagi shartning to'g'riligi shubhasiz: $d \leq n$

Demak, ushbu holda ikki karrali xatoliklar aniqlanishi mumkin emas, chunki bunday xatoliklar natijasida ruxsat etilgan kombinatsiyalarning o'zi bir-biriga

$n = 3$ qiymatda o'tadi.

Aytaylik, bir karrali xatoliklarni bartaraf etuvchi kodni qurish kerak bo'lsin. Birinchi ruxsat etilgan kombinatsiya sifatida $A_1=000$ ni tanlaymiz. Bir karrali xatoliklar mavjudligida A_1 kombinatsiyasi $A_2=001; A_3=010$ va $A_5=100$ ruxsat etilmagan kombinatsiyalarining

biriga o'tishi mumkin. A_2 , A_3 va A_5 kombinatsiyalarni A_1 kombinatsiyasining ruxsat etilmagan(taqiqlangan) qismto'plami sifatida qabul qilish mumkin. Yani, ushbu qismto'plamning biror bir kombinatsiyasi qabul qilinsa, A_1 kombinatsiyasi uzatilgan deb xulosa qilinadi.

Ikkinchchi ruxsat etilgan kombinatsiya sifatida birinchisidan $d = 2$ masofadagi $A_4=011$ kombinatsiyani tanlaymiz. Unga $A_2=001$ $A_3=010$ va $A_8=111$ kombinatsiyalar qismto'plami mos kelishi lozim. Ammo taqiqlangan qismto'plamlarining kesishishi sodir bo'ldiki, A_2 yoki A_3 taqiqlangan kombinatsiyalar qabul qilinganida A_1 signal uzatilganligini yoki A_4 signal uzatilganligini bir ma'noda aniqlash mumkin emas.

Agar ikkinchi ruxsat etilgan kombinatsiya sifatida birinchisidan $d = 3$ masofadagi $A_8=111$ tanlansa, bu kombinatsiyaga $A_4=011$; $A_6=101$ va $A_7=110$ taqiqlangan kombinatsiyalari qismto'plami mos keladi. Bunda taqiqlangan qismto'plamlari kesishmaydi. Demak, $d = 3$ da barcha bir karrali xatoliklar bartaraf etilishi ta'minlanadi.

Umumiyl holda, σ karrali xatoliklarni bartaraf etish uchun kod masofasi quyidagi shartni qanoatlantirishi lozim: $d_{min} \geq 2\sigma + 1$

Mulohazalar natijasida aniqlash mumkinki, karraligi σ dan katta bo'Imagan barcha xatoliklarni tuzatish va bir vaqtida t dan ($t \geq \sigma$) katta bo'Imagan barcha xatoliklarni aniqlash uchun kod masofasi quyidagi shartni qanoatlantirishi lozim:

$$d_{min} \geq t + \sigma + 1$$

Ta'kidlash lozimki, kod yordamida aniqlangan xatolik $t > \sigma$ karralikka ega bo'lsa, bunday xatolik bartaraf etilishi mumkin emas, ya'ni bu holda kod xatolikni faqat aniqlaydi.

Misol:

Ruxsat etilgan kombinatsiyalari:

00000; 01110; 10101; 11011;

bo'lgan kodning tuzatish qobiliyatini aniqlash talab etilsin.

Yechish:

Kodning tuzatish qobiliyati kod masofasi yordamida aniqlanadi. Kod kombinatsiyalari orasidagi masofalar matritsasini tuzamiz.

	00000	01110	10101	11011
00000	0	3	3	4
01110		0	4	3
10101			0	3
11011				0

Matritsadan ko‘rinib turibdiki, kod masofasi $d_{min} = 3$. Demak, berilgan kod quyidagilarga qodir:

1. Ikki karrali xatolikni aniqlash.
2. Bir karrali xatoliklarni bartaraf etish.
3. Bir karrali xatoliklarni aniqlash va bartaraf etish.

5.4. Berilgan tuzatish qobiliyatli kodlarni qurish

Hozirgacha tuzatuvchi qobiliyatli kodlarni qurganda kod uzunligi n berilgan deb faraz qilgan edik. Kodning tuzatish qobiliyatiga n saqlangan holda ruxsat etilgan kombinatsiyalar to‘plami N ni (yoki informatsion simvollar k ni) kamaytirish evaziga erishilgan edi. Odatda esa kodni qurish teskari tartibda amalga oshiriladi: avval manbaa alfaviti hajmiga muvofiq informatsion simvollar soni k aniqlanadi, so‘ngra ortiqcha simvollarni qo‘sish evaziga kodning kerakli tuzatish qobiliyati ta’minlanadi.

Aytaylik, manbaa alfavitining hajmi N ma’lum. Informatsion simvollarning kerakli soni quyidagicha aniqlanadi:

$$k = \log_2 N;$$

Tuzatilishi lozim bo‘lgan xatolik vektorlarining soni E ham ma’lum bo‘lsin. Masala shundan iboratki, berilgan N va E da istalgan tuzatish qobiliyatiga ega kod uzunligi n aniqlansin. Tuzatilishi lozim bo‘lgan xatolik kombinatsiyalarining to‘liq soni:

$$E \cdot 2^k = E \cdot N.$$

Xatolik kombinatsiyalarining soni $N_0 - N$ bo‘lganligi sababli, kod $N_0 - N$ dan katta bo‘lmagan kombinatsiyalarni tuzatishni ta’minlaydi.

$$NE \leq N_1 - N_0$$

yoki,

$$N_0 \geq (1 + E)N$$

yoki,

$$N \leq \frac{2^n}{1+E}$$

Ushbu formula kod uzunligi n ni tanlash shartini ifodalaydi.

Xususiy hollarni ko'raylik. Turli karrali xatoliklar mavjudligida avvalo paydo bo'lish ehtimolliklari eng katta bo'lgan bir karrali xatoliklarning bartaraf etilishini ta'minlash lozim. Bir karrali xatolik vektorlarining bo'lishi mumkin bo'lgan soni: $E = C_n^1 = n$

Bu holda quyidagini yozish mumkin: $2^k = N \leq \frac{2^n}{1+n}$

Kodni qurishda 5.3-jadvaldan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

5.3-jadval

$N \backslash n$	2	3	4	5	6	7	8	9
$\frac{2^n}{1+n}$	1.33	2	3.2	5.33	9.1	16	28.4	51.2

Ta'kidlash lozimki, kod quyidagi shartni qanoatlantirishi lozim.

$$d_{min} \geq 3$$

Karraligi 1 dan l gacha bo'lgan barcha xatoliklarning bartaraf etilishi kerak bo'lsa, quyidagilarni hisobga olish zarur:

- bo'lishi mumkin bo'lgan bir karrali xatoliklar soni $E_1 = C_n^1$
- bo'lishi mumkin bo'lgan ikki karrali xatoliklar soni $E_2 = C_n^2$

-
- bo'lishi mumkin bo'lgan l karrali xatoliklar soni $E_l = C_n^l$

Xatoliklarning umumiy soni:

$$E = \sum_{i=1}^l C_n^i$$

Unda quyidagini yozish mumkin:

$$N = \frac{2^n}{1 + \sum_{i=1}^l C_n^i}$$

Misol:

Ruxsat etilgan kod kombinatsiyalari soni $N = 8$ bo'lganida

barcha yakka xatoliklarni tuzatishni ta'minlovchi kod uzunligi n aniqlansin.

Yechish:

Hisoblash quyidagi formula yordamida amalga oshirilishi mumkin.

$$N \leq \frac{2^n}{1+n}$$

Yuqorida keltirilgan jadvalga binoan

$$N = \frac{2^6}{1+6} = \frac{64}{7} \approx 9,1$$

Demak, kod uzunligi $n = 6$.

Nazorat savollari

1. Xallalar nima?
2. Xalallarning tasnifi.
3. Determenistik va tasodifiy xalallar.
4. Additiv va multiplikativ xalallar.
5. Xalallarga bardosh kodlash vasifasi.
6. Qanday kodlar xalallarga bardosh kodlar deb ataladi?
7. Sistemmatik kod nima?
8. Algebraik kodlar, blok kodlar, rekurrent kodlar.
9. Juftlikka tekshirishli kodlar.
10. Ajraluvchi va ajralmaydigan blok kodlar.
11. Qanday kodlar texnik nuqtai nazaridan sodda hisoblanadi?
12. Xatolik vektori va uning salmog'i, xatolik karraligi, minimal kod masofasi tushunchalariga izoh bering.
13. Masofa matritsasi qanday tuziladi?
14. Kodning tuzatish qobiliyati bilan kod masofasi orasida qanday bog'liqlik mavjud?
15. Xatolikni tuzatish imkoniyati sharti qanday ifodalanadi?

6-BOB. CHIZIQLI BLOK KODLAR

6.1. Xemming kodi

Xemming kodi oddiy chiziqli blok kod bo‘lib, minimal kod masofasi 3 ga teng, ya’ni bu kod bitta xatolikni tuzata oladi. Xemming kodi boshqa kodlarga o‘xshab k informatsion va $(n - k)$ ortiqcha simvollarga ega. Kodning ortiqchalik qismi shunday quriladiki, dekodlash natijasida nafaqat qabul qilingan kombinatsiyadagi xatolik mavjudligini, balki xatolik sodir bo‘lgan o‘rin nomerini aniqlash mumkin bo‘ladi. Bunga qabul qilingan kombinatsiyani ko‘p marta juftlikka tekshirish evaziga erishiladi. Tekshirishlar soni ortiqcha simvollar soniga, ya’ni $(n - k)$ ga teng. Har bir tekshirishda informatsion simvollarning bir qismi va ortiqcha simvollardan biri qatnashadi.

Har bir tekshirishdan so‘ng ikkilik nazorat simvoli olinadi. Tekshirish natijasi juft sonni bersa nazorat simvoliga 0 qiymati, toq sonni bersa 1 qiymati beriladi. Barcha tekshirishlar natijasida buzilgan simvollar o‘rnining nomerini ko‘rsatuvchi $(n - k)$ xonali ikkilik son olinadi.

Xatolikni tuzatish uchun faqat ushbu simvol qiyamatini teskarisiga o‘zgartirish kifoya.

Xemming kodining uzunligi:

$$2^k = \frac{2^n}{1 + n}$$

formula yordamida aniqlanadi.

Xemming usuliga binoan tekshiruvchi simvollar qiymati va o‘rinlarining nomeri kod kombinatsiyasining tekshiruvchi guruqlarini tanlash bilan bir vaqtida belgilanadi. Bunda quydagilarga asoslanmoq lozim.

Birinchi tekshirish natijasida buzilgan simvol o‘rnii nomerini ko‘rsatuvchi nazorat kodining kichik xonasi raqami olinadi. Agar birinchi tekshirish natijasi 1 ni bersa, demak tekshirilgan guruxning bitta simvoli buzilgan hisoblanadi.

Simvollardan qaysi birining buzilganligini aniqlash uchun 6.1-jadvalga murojaat etamiz.

6.1-jadval

№ k/ k	Nazorat son simvollarining xonalari			
	4	3	2	1
0	0	0	0	0
1	0	0	0	1
2	0	0	1	0
3	0	0	1	1
4	0	1	0	0
5	0	1	0	1
6	0	1	1	0
7	0	1	1	1
8	1	0	0	0
9	1	0	0	1
10	1	0	1	0

Jadvalda to‘rt xonali nazorat sonlarining natural qatori ikkilik sanoq sistemasida keltirilgan.

6.1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, agar nazorat sonining kichik xonasida

1 bo‘lsa, buzilish kod kombinatsiyasining toq o‘rinlarida bo‘ladi. Demak, birinchi tekshirish o‘z ichiga toq nomerli simvollarni, ya’ni 1, 3, 5, 7, 9, . . . larni oladi.

Agar ikkinchi tekshirish natijasi 1 ni bersa, nazorat sonining ikkinchi xonasida 1 ni olamiz. Demak ikkinchi tekshirish o‘z ichiga ikkinchi xonasida

1 bo‘lgan simvollarni, ya’ni 2, 3, 6, 7, 10 . . . larni oladi.

Xuddi shunday, uchinchi tekshirish o‘z ichiga uchinchi xonasida 1 bo‘lgan simvollarni, ya’ni 4, 5, 6, 7, 12 . . . larni oladi va h.

Bu kabi mushohadalar tekshirish jadvalini shakllantirishga imkon beradi (6.2-jadval).

6.2-jadval

Tekshirish nomeri	Tekshiriluvchi o'rinnlar nomeri	Nazorat simvollarini o'rinnlarining nomeri
1	1, 3, 5, 7, 9, 11, 13 ...	1
2	2, 3, 6, 7, 10 ...	2
3	4, 5, 6, 7, 12 ...	4
4	8, 9, 10, 11, 12 ...	8
.
.

Agar tekshiriluvchi kod kombinatsiyasining simvollarini a_i orqali, tekshiruvchi amallarni S_i orqali belgilasak, quyidagini yozish mumkin.

$$S_1 = a_1 \oplus a_3 \oplus a_5 \oplus a_7 \oplus a_9 \oplus \dots$$

$$S_2 = a_2 \oplus a_3 \oplus a_6 \oplus a_7 \oplus a_{10} \oplus \dots$$

$$S_3 = a_4 \oplus a_5 \oplus a_6 \oplus a_7 \oplus a_{12} \oplus \dots$$

$$S_4 = a_8 \oplus a_9 \oplus a_{10} \oplus a_{11} \oplus a_{12} \oplus \dots$$

Ba'zi manbalarda tekshiruvchi vektor S_1, S_2, \dots, S_{n_k} sindrom deb yuritiladi. Agar sindrom salmog'i nulga teng bo'lsa, olingen kombinatsiya xatosiz hisoblanadi.

Nazorat simvollarini tekshiriluvchi guruxlarning faqat bittasida uchraydigan nomerli o'rinnlarda joylashtirish qulay hisoblanadi (6.2-jadvalga qaralsin). Jadvalga muvofiq bu o'rinnlar nomeri 1, 2, 4, 8, ... Demak, kod kombinatsiyasida $a_1, a_2, a_4, a_8 \dots$ simvollar tekshiruvchi, $a_3, a_5, a_6, a_7, a_9 \dots$ simvollar informatsion hisoblanishlari lozim.

Informatsion simvollar qiymati oldindan ma'lum bo'lganligi sababli, tekshiruvchi simvollarning qiymati shunday bo'lishi lozimki, har bir tekshiruvchi guruxdag'i birlarning yig'indisi juft son bo'lsin.

Misol:

10011 ikkilik kombinatsiyaning Xemming kodini topish so'ralsin.

Yechish:

Informatsion simvollar soni $k = 5$.

$2^k \leq \frac{2^n}{1+n}$ formulaga binoan $32 \leq \frac{2^n}{1+n}$. Demak, Xemming kodining uzunligi $n = 9$. Informatsion simvol a_3, a_5, a_7, a_9 bo'lganligi sababli, ko'rيلayotgan kod uchun quyidagini yozish mumkin.

$$a_3 = 1; \quad a_5 = 0; \quad a_6 = 0; \quad a_7 = 1; \quad a_9 = 1.$$

Tekshiruvchi simvollar qiymati yig‘indilar juftligini ta’minlash shartiga binoan quyidagicha aniqlanadi.

$$S_1 = a_1 \oplus 1 \oplus 0 \oplus 1 \oplus 1 \quad a_1 = 1.$$

$$S_2 = a_2 \oplus 1 \oplus 0 \oplus 1 \quad a_2 = 0.$$

$$S_3 = a_4 \oplus 0 \oplus 0 \oplus 1 \quad a_4 = 1.$$

$$S_4 = a_8 \oplus 1 \quad a_8 = 1.$$

Demak, oddiy besh xonali kod 10011 ga quyidagi to‘qqiz xonali Xemming kodi mos keladi.

1 0 1 1 0 0 1 1 1

Faraz qilaylik, uzatishda beshinchi simvolda xatolik ro‘y berdi, ya’ni kod quyidagi ko‘rinishni oldi.

1 0 1 1 1 0 1 1 1

Tekshirish quyidagicha amalga oshiriladi.

Birinchi tekshirish:

$$S_1 = 1 \oplus 1 \oplus 1 \oplus 1 \oplus 1; \quad 1.$$

Ikkinci tekshirish:

$$S_2 = 0 \oplus 1 \oplus 0 \oplus 1; \quad 0.$$

Uchinchi tekshirish:

$$S_3 = 1 \oplus 1 \oplus 0 \oplus 1; \quad 1.$$

To‘rtinchi tekshirish:

$$S_4 = 1 \oplus 1; \quad 0.$$

Shunday qilib, tekshirish natijasida 0101 ikkilik son olindi.

Demak, xatolik beshinchi simvolda sodir bo‘lganligi isbotlandi.

Bir karrali xatoliklarni aniqlovchi va tuzatuvchi o‘nli kodlar

Aytaylik, quyidagi o‘nli kodning Xemming kodini qurish so‘ralsin. Xatolik 12 xonada deb faraz qilinsin:

90 723 092 001

Agar tekshiriluvchi kod kombinatsiyasi simvollari $A_i [i=1,2,\dots,n]$ orqali, tekshiruvchi simvollar $S_j [j=1,2,4\dots 2^{n-1}]$ orqali belgilansa, quyidagini yozish mumkin:

$$S_1 = A_1 \oplus A_3 \oplus A_5 \oplus A_7 \oplus A_9 \oplus A_{11} \oplus A_{13} \oplus A_{15} = 0 \bmod 10,$$

$$S_2 = A_2 \oplus A_3 \oplus A_6 \oplus A_7 \oplus A_{10} \oplus A_{11} \oplus A_{14} \oplus A_{15} = 0 \bmod 10,$$

$$S_4 = A_4 \oplus A_5 \oplus A_6 \oplus A_7 \oplus A_{12} \oplus A_{13} \oplus A_{14} \oplus A_{15} = 0 \bmod 10,$$

$$S_8 = A_8 \oplus A_9 \oplus A_{10} \oplus A_{11} \oplus A_{12} \oplus A_{13} \oplus A_{14} \oplus A_{15} = 0 \bmod 10.$$

Xemming kodini qurish so‘ralgan o‘nli kod uchun quyidagini yozish mumkin:

$$S_1 = A_1 \oplus 9 \oplus 0 \oplus 2 \oplus 3 \oplus 9 \oplus 0 \oplus 1 = 0 \bmod 10, A_1 = 6.$$

$$S_2 = A_2 \oplus 9 \oplus 7 \oplus 2 \oplus 0 \oplus 9 \oplus 0 \oplus 1 = 0 \bmod 10, A_2 = 2,$$

$$S_4 = A_4 \oplus 0 \oplus 7 \oplus 2 \oplus 2 \oplus 0 \oplus 0 \oplus 1 = 0 \bmod 10, A_4 = 8,$$

$$S_8 = A_8 \oplus 3 \oplus 0 \oplus 9 \oplus 2 \oplus 0 \oplus 0 \oplus 1 = 0 \bmod 10, A_8 = 5.$$

Dastlabki o‘nli kod uchun Xemming kodini quyidagicha yozish mumkin:

629 807 253 092 001

Birorta mod10 bo‘yicha xususiy nazorat yig‘indisi S_j nuldan farqlansa kod so‘zi taqiqlangan qategoriya o‘tadi. Bu xatolikni *aniqlash* qoidasini belgilaydi. Xatolikni *tuzatish* uchun nuldan farqli xususiy nazorat yig‘indilari qiymatlarini tahlillash va xatolik adresini aniqlash lozim. Bunda quyidagi holatlар ro‘y berishi mumkin:

– barcha xususiy nazorat yig‘indilari $S_j=0$. Bu bir karrali xatoliklarning mavjud emasligini bildiradi;

– S_j yig‘indilardan birortasi nuldan farqli, ammo barcha nulga teng bo‘Imagan xususiy nazorat yig‘indilar mod10 bo‘yicha o‘zaro teng. Bir karrali xatolik sodir bo‘lganligini e’tirof etish mumkin;

– ikkita yoki undan ko‘p xususiy nazorat yig‘indilar S_j nuldan farqli, ulardan ikkitasi o‘zaro teng emas. Bu karraligi bordan ortiq xatolikning mavjudligini anglatadi va uni tuzatish mumkin emas.

Faraz qilaylik, 12-xonada xatolik sodir bo‘ldi: 2 raqami o‘rniga 0 raqam paydo bo‘ldi. Quyidagini yozishimiz mumkin:

$$S_1 = 6 \oplus 9 \oplus 0 \oplus 2 \oplus 3 \oplus 9 \oplus 0 \oplus 1 = 0 \bmod 10, S_1 = 30,$$

$$S_2 = 2 \oplus 9 \oplus 7 \oplus 2 \oplus 0 \oplus 9 \oplus 0 \oplus 1 = 0 \bmod 10, S_2 = 30,$$

$$S_4 = 8 \oplus 0 \oplus 7 \oplus 2 \oplus 0 \oplus 0 \oplus 0 \oplus 1 \neq 0 \bmod 10, S_4 = 18,$$

$$S_8 = 5 \oplus 3 \oplus 0 \oplus 9 \oplus 0 \oplus 0 \oplus 0 \oplus 1 \neq 0 \bmod 10, S_8 = 18.$$

Demak, $S_1=0$, $S_2=0$, $S_4=8$, $S_8=8$ (faqt birlar xonalari olinib, o‘nlar, yuzlar va h. xonalari tashlab yuboriladi). Barcha nulga teng bo‘Imagan xususiy nazorat yig‘indilar o‘zaro teng $S_4=S_8=8$. Bu bir karrali xatolik sodir bo‘lganini bildiradi va uni tuzatish mumkin.

Xatolik adresi quyidagi qoida bo‘yicha aniqlanadi: xatolik adresi nulga teng bo‘Imagan xususiy nazorat yig‘indilari indekslari yig‘indisiga teng. Ko‘rilayotgan misolda nulga teng bo‘Imagan xususiy nazorat yig‘indilar indekslari $4+8=12$ ga teng. Demak xatolik 12-xonada sodir bo‘lganligi isbotlandi.

6.2. Siklik kodlar

Siklik kodlar ma'lum tuzatuvchi kodlar ichida eng sodda va samarador hisoblanadi. Ushbu kodlarning kodlovchi va dekodlovchi qurilmalari sifatida oddiy siljituvchi registrlar ishlatiladi. Siklik kodlarning asosiy xususiyati – har bir kod kombinatsiyasini ushbu kodga taalluqli kombinatsiya simvollari o'rnini siklik o'zgartirish yo'li bilan olish mumkinligi.

Boshqacha aytganda, agar kod vektori $V = (a_0, a_1, a_2, \dots, a_{n-1})$ siklik kod V ga tegishli bo'lsa, kod vektoriga taalluqli kombinatsiya simvollari o'rnini siklik o'zgartirish yo'li bilan olingan vektor $V' = (a_{n-1}, a_0, a_1, a_2, \dots, a_{n-2})$ ham kod V ga tegishli bo'ladi.

Siklik kodlarni qandaydir darajali ko'phad ko'rinishida ifodalash qulay hisoblanadi, ya'ni:

$$G(x) = a_{n-1}x^{n-1} + a_{n-2}x^{n-2} + \dots + a_1 + a_0,$$

bu erda x – o'zgaruvchi; a_i – berilgan sanoq sistemasidagi raqamlar (ikkilik sistemada "0" va "1").

Masalan, yetti xonali ikkilik kod 1010101 x o'zgaruvchining ko'phadi ko'rinishida quyidagicha yozilishi mumkin:
 $1010101 = G(x)$

$$\begin{aligned} &= 1 \cdot x^6 + 0 \cdot x^5 + 1 \cdot x^4 + 0 \cdot x^3 + 1 \cdot x^2 + 0 \cdot x^1 + 1 \\ &\cdot x^0 = x^6 + x^4 + x^2 + 1. \end{aligned}$$

Kod kombinatsiyasining bunday ifodalanishi kombinatsiyalar ustida bajariladigan amallarni ko'phadlar ustida bajariladigan amallarga keltirish imkonini beradi. Bunday ikkilik ko'phadni qo'shish o'zgaruvchi x ning darajalari teng bo'lganida koeffitsientlarni 2ning moduli bo'yicha jamlashga keltiriladi. Ko'paytirish darajali funksiyalarni odatdag'i ko'paytirish qoidalari bo'yicha amalga oshiriladi, ammo hosil qilingan koeffitsientlar 2ning moduli bo'yicha jamlanadi; bo'lish darajali funksiyalarni odatdag'i bo'lish qoidalari bo'yicha amalga oshiriladi, ammo ayirish amallari 2ning moduli bo'yicha jamlash amallari bilan almashtiriladi.

Kombinatsiyalarni yuqorida keltirilgan shakkarda ifodalash yana shunisi bilan qulayki, siklik o'rin almashtirish berilgan ko'pxadni x ga oddiy ko'paytirish natijasi hisoblanadi.

Haqiqatan, agar kod kombinatsiyalarining biri ko'pxad $V(x) = a_0 + a_1x + a_2x^2 + \dots + a_{n-1}x^{n-1}$ orqali ifodalansa, yangi

kombinatsiya siklik siljitish hisobiga

$$x \cdot V(x) = a_0x + a_1x^2 + a_2x^3 + \dots + a_{n-2}x^{n-1} + a_{n-1}x^n$$

ko‘rinish oladi.

Oxirgi xadda x^n ni 1 bilan almashtirish zarur. Demak, yangi kombinatsiya

$$V'(x) = a_{n-1} + a_0x + a_1x^2 + \dots + a_{n-2}x^{n-1}$$

Yuqorida keltirilganlardan foydalanib siklik kodlarga quyidagicha ta’rif berish mumkin..

Siklik kod- $k - 1$ darajali $Q(x)$ ko‘phad ko‘rinishida ifodalangan oddiy k xonali kodni qandaydir ($n - k$) darajali yasovchi ko‘pxad $P(x)$ ga ko‘paytirish yo‘li bilan hosil bo‘luchchi ($n - k$) kod.

Oddiy $k -$ xonali kodning barcha kod kombinatsiyalarini yasovchi ko‘phad $R(x)$ ga ko‘paytirish natijasida ruxsat etilgan kombinatsiyalar soni o‘zgarmaydi va 2^k ga tenglichcha qoladi, taqiqlangan kod kombinatsiyalarining umumiyligi soni $2^n - 2^k$ ga teng bo‘ladi. Taqiqlangan kod kombinatsiyasiga mos birorta ham ko‘phad yasovchi ko‘phadga qoldiqsiz bo‘linmaydi. Ushbu xususiyat xatolikni aniqlashga imkon beradi. Qoldik ko‘rinishi bo‘yicha xatolik vektorini ham aniqlash mumkin.

Siklik kodni qurish muolajasi. Siklik kodni qurish muolajasi quyidagicha. Oddiy $k -$ xonali kod $G(x)$ ning kod kombinatsiyasi birhad x^{n-k} ga ko‘paytiriladi, so‘ngra darajasi ($n - k$) bo‘lgan yasovchi ko‘phad $P(x)$ ga bo‘linadi. Ko‘paytirish natijasida $G(x)$ tarkibidagi har bir hadning darajasi ($n - k$)ga ortadi. $x^{n-k} \cdot G(x)$ ko‘paytmani yasovchi ko‘phad $P(x)$ ga bo‘lish natijasida darajasi $G(x)$ darajasiga teng bo‘linma $Q(x)$ olinadi.

Ko‘paytirish va bo‘lish natijasini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\frac{x^{n-k} \cdot G(x)}{P(x)} = Q(x) + \frac{R(x)}{P(x)},$$

bu yerda

$R(x)$ – bo‘lish natijasidagi qoldiq.

Bo‘linma $Q(x)$ ning darajasi oddiy kod kombinatsiyasi $G(x)$ ning darajasiga teng bo‘lganligi sababli $Q(x)$ oddiy $k -$ xonali kodning kod kombinatsiyasi hisoblanadi.

Yuqoridagi tenglikning ikki tarafini $P(x)$ ga ko‘paytirib ba’zi

o‘rin almashtirishlarni bajarish natijasida quyidagini yozish mumkin.

$$F(x) = Q(x)P(x) = x^{n-k}G(x) + R(x)$$

Ushbu ifodaning o‘ng tarafidagi $R(x)$ manfiy ishorasi musbat ishora bilan almashtirilgan, chunki 2 ning moduli bo‘yicha ayirish jamlashga keltiriladi.

Aytaylik, informatsion simvollari soni $k = 4$ ga bo‘lgan (0011), bir karrali xatoliklarni bartaraf etuvchi yoki ikki karrali xatoliklarni aniqlovchi siklik kodni qurish so‘ralsin.

$N = 2^k \leq \frac{2^n}{1+n}$ munosabatdan foydalanib berilgan informatsion simvollar soni $k = 4$ bo‘yicha kod uzunligini aniqlaymiz. Demak, $n = 7$ va tekshiruvchi simvollar soni $7 - 4 = 3$ ga teng.

Demak, darajasi 3 ga teng bo‘lga yasovchi ko‘phadni tanlash zarur.

3-ilovadagi jadvalga binoan $P(x) = x^3 + x^2 + 1$ ni yasovchi ko‘phad sifatida olish mumkin. Ushbu yasovchi ko‘phad ikkilik sanoq sistemasida $P(x) = 1101$. Ikkilik kodni qurish uchun berilgan to‘rt simvolli kodni yasovchi ko‘phadga ko‘paytirish lozim. Ko‘paytirish amali quyidagicha yoziladi.

$$\begin{array}{r} 0011 \\ 1101 \\ \hline 0011 \\ 0011 \\ \hline 0010111 \end{array}$$

Shunday qilib, oddiy to‘rt simvolli kombinatsiya $Q(x) = 0011$ yetti simvolli siklik kod $F(x) = 0010111$ orqali ifodalanadi.

Misollar:

a) $F(x) = x^6 + x^4 + x^3 + x^2$ siklik kod bilan kodlangan kombinatsiya olingan. Agar yasovchi ko‘pxad $P(x) = x^3 + x^2 + 1$ bo‘lsa, dekodlash orqali olingan kombinatsiyada xatolik mavjudligini tekshirish lozim.

Yechish:

Dekodlash olingan kombinatsiyani yasovchi ko'phadga bo'lish orqali amalga oshiriladi.

$$\begin{array}{r|l} x^6 + x^4 + x^3 + x^2 & x^3 + x^2 + 1 \\ \underline{x^6 + x^5 + x^3} & x^3 + x^2 \\ x^4 + x^5 + x^2 & \\ \underline{x^4 + x^5 + x^2} & \\ 0 & \end{array}$$

Bo'lish natijasidagi qoldiq $R(x) = 0$. Demak, kombinatsiya buzilmasdan qabul qilingan.

b) $F(x) = x^6 + x^4 + x^2 + 1$ siklik kod bilan kodlangan kombinatsiya olinigan. Agar so'z yasovchi ko'phad $P(x) = x^3 + x^2 + 1$ bo'lsa, dekodlash orqali olingan kombinatsiyada xatolik mavjudligini tekshirish lozim.

Yechish:

Dekodlash olingan kombinatsiyani yasovchi ko'pxadga bo'lish orqali amalga oshiriladi.


$$\begin{array}{r|l} x^6 + x^4 + x^2 + 1 & x^3 + x^2 + 1 \\ \underline{x^6 + x^5 + x^3} & x^3 + x^2 + 1 \\ x^5 + x^4 + x^3 + x^2 + 1 & \\ \underline{x^4 + x^5 + x^2} & \\ x^3 + 1 & \\ \underline{x^3 + x^2 + 1} & \\ x^2 & \end{array}$$

Bo'lish natijasidagi qoldiq $R(x) = x^2 \neq 0$. Demak, kombinatsiya xatolik bilan qabul qilingan.

Kodlovchi va dekodlovchi qurilmalarni qurishning soddaligi siklik kodlarning afzalligi hisoblanadi. Ushbu qurilmalar teskari bog'lanishli siljituvcchi registrlardan iborat. Registr xonalarining soni yasovchi ko'phad darajasiga teng qilib olinadi. Teskari bog'lanish registr chiqish yo'lidan qandaydir xonalarga jamlagichlar orqali amalga oshiriladi. Jamlagichlar soni yasovchi ko'phadning nulga teng bo'lmagan hadlari sonidan bittaga kam qilib olinadi. Jamlagichlar,

yasovchi ko'phadning nulga teng bo'lмаган hadlariga mos, registr xonalarining chiqish yo'llariga o'rnatiladi.

6.1-rasmda to'rt xonali kombinatsiyani yetti xonaliga o'zgartiruvchi *kodlovchi registr* sxemasi keltirilgan.



6.1-rasm. Kodlovchi registr sxemasi


6.3-jadvalda dastlabki kombinatsiya 0101 ni siljitim orqali 1010011
($n=7$, $k=4$) kombinatsiyani olish ko'rsatilgan. Kalit 1-holatida kombinatsiya 0101 ko'rinishiga ega.

6.3-jadval

Xonalar	Chiqish yo'li
0101	-
0010	1
1001	0
1100	1
0110	0
0011	0
0001	1
0000	1

Dastlabki to'rt taktda registr to'ldiriladi, so'ngra kalit 2-holatga o'tkaziladi, ya'ni teskari bog'lanish amalga oshiriladi. Yettita siljitimishlar ta'sirida yetti xonali siklik kod shakllantiriladi. Chiqish yo'li ketma-ketligi 1010011 ko'rinishiga ega, chunki informatsion ketma-ketlikka uchta tekshiruvchi xonalar $S'=3$ qo'shilgan.

6.2-rasmda dekodlash registri sxemalaridan biri keltirilgan.



6.2-Dekodlovchi registr sxemasi

Registr xatolik sodir bo'lgan joyini aniqlashga mo'ljallangan. Xatolik sodir bo'lmaganida dekodlashdan so'ng registrda faqat nullardan iborat kombinatsiya shakllanadi. Agar registr tarkibi nuldan farqlansa xatolik sodir bo'lgan deb hisoblanadi.

1010011 ketma-ketlikni xatosiz olinishida dekodlash registri holatini shakllantirish jarayoni –jadvalda keltirilgan. Ketma-ketlikda xatolik mavjudligida (masalan, 1001001) dekodlash registrida 6.4(a,b)–jadvallarda keltirilgan holat sodir bo'ladi.

Xatosiz 6.4(a)-jadval

Kirish yo'li	Xonalar 321
1	100
0	010
1	101
0	111
0	110
1	111
1	000

Xato mavjud 6.4(b)-jadval

Kirish yo'li	Xonalar 321
1	100
0	010
1	101
1	011
0	010
1	101
1	011

Xatolik o'rmini ko'rsatish uchun, dekodlash registriga siljituvchi taktlar beriladi. Registrning birinchi yacheysida bir, qolgan yacheykalarda nullar paydo bo'lувчи takt nomeri xatolik sodir bo'lgan xona nomeriga mos keladi.

Ko'rilibotgan misolda 100 kombinatsiyasi olingan ketma-ketlikning to'rtinchi xonasining buzilganligini ko'rsatadi. Buzilgan xonani tuzatish uni invertirlash orqali amalga oshiriladi.

6.3. Boshqa chiziqli blok kodlar

Goley kodi. Kodning asosini 11 darajali ko'phad tashkil etadi. Kod kombinatsiyasining uzunligi 23 ta simvolga teng: informatsion qismi 12ta simvolga, nazorat qismi esa 11 ta simvolga teng. Bunday kod uchta xatolikni osongina aniqlaydi va tuzatadi.

Goley kodi ishlashi prinsipini yaxshiroq anglash maqsadida quyida 11 darajali yasovchi ko'phad yordamida emas, balki 3 darajali yasovchi ko'phad $P(x) = x^3 + x + 1$ yordamida kodlash va dekodlash misoli keltirilgan.

Kodlash. 3 darajali yasovchi $P(x) = x^3 + x + 1$ ko'phadga 1011 ketma-ketlik mos keladi. Aytaylik, informatsion ketma-ketlik 1100 ko'rinishiga ega bo'lsin, ya'ni $G(x) = x^3 + x^2$ ko'rinishiga ega. $G(x)$ ga x^3 ko'paytiriladi, chunki yasovchi ko'phad darajasi 3 ga teng. Natijada $G(x) * x^3 = x^6 + x^5$ olinadi. Ushbu ko'phad koyeffitsiyentlarining vektori 1100000 ko'rinishga ega. $G(x) * x^3$ ko'paytma yasovchi ko'phad 1011ga bo'linadi. Bo'lish mod2 bo'yicha amalga oshiriladi. Bo'lish natijasida 010 qoldiq hosil bo'ladi. 7 ta simvoldan iborat(4tasi informatsion, 3 tasi nazorat simvolları) ruxsat etilgan kod kombinatsiyasi shakllantiriladi.

Dekodlash. Kod ketma-ketligi yasovchi ko'phad $P(x) = x^3 + x + 1$ ga bo'linadi. Agar qoldiq salmog'i "0" ga teng bo'lsa xatolik sodir bo'Imagan deb hisoblanadi. Agar qoldiq salmog'i "1" ga teng bo'lsa xatolik kod ketma-ketligining nazorat simvollarida sodir bo'lgan deb hisoblanadi. Kod ketma-ketligi kichik xonalar tomon siklik siljiltiladi va yana yasovchi ko'phad $P(x) = x^3 + x + 1$ ga bo'linadi. Agar navbatdagi bosqichda xatolik topilsa, kod ketma-ketligini teskari tomonga bitning mos soniga siljitch lozim.

Goley kodi ko'pincha ilovalarda ishlataladi. Sababi, ilovalar uchun o'tkazish qobiliyati emas, balki ishonchlilik muhim hisoblanadi.

Bouz-Choudxuri-Xokvengem (BCHX) kodlari Xemming kodining rivoji hisoblandi. BCHX kodlar siklik kodlar bo'lib, ko'p uchraydig'an xatoliklarni tuzatishga imkon beradi. Kodlarning bunday turi blok uzunligini, kodlash darajasini, alfavit o'lchamini va xatoliklarni tuzatish imkoniyatlarini tanlashda erkinlikni taqdim etadi.

Kod so'zlar bir necha yuzta simvollardan tashkil topgan holda BCHX kodlari, xuddi shu uzunlikka va kodlash darajasiga ega boshqa

blok kodlarga nisbatan, kattagina yutuqni beradi. BCHX kodlarida ko‘pincha $n = 2^{m-1}$ ($m = 3, 4, 5, \dots$) bo‘lgan kod so‘zlari ishlataladi. BCHX kodlarida kodlashning maksimal samaradorligiga kodlash darajasi $1/3$ va $3/4$ oraliqda erishiladi.

BCHX kodlarining turli-tumanligi va yakka xatoliklar bilan kurashishning yaxshigina imkoniyatlari ularning afzalligi hisoblanadi. Kamchiliklari sifatida dekodlash algoritmlarining yetarlicha murakkabligini (ayniqsa uzunligi katta kodlar uchun) va xatoliklar paketiga qarshilik qila olmasligini ko‘rsatish mumkin.

Rid-Solomon kodlari BCHX bo‘lмаган kodlarining qismisinflaridan biri hisoblanadi. Ikkilik bo‘lмаган deganda kodlarning simvollari ko‘p bitli (m -bitli ketma-ketlik) ekanligi tushuniladi. Rid-Solomon kodlari minimal masofa $d_{min} = n - k + 1$ ga va $t = n - k/2$ xatoliklarni tuzatish imkoniyatiga ega.


Rid-Solomon kodlarining xatoliklar paketiga qarshilik qila olishi ularning afzalligi hisoblansa, kamchiliklari sifatida dekodlash algoritmlarining murakkabligini ko‘rsatish mumkin.

Kaskad kodlashni qo‘llab, turli kodlash usullarining afzalliklarini birlashtirish mumkin. Bunda informatsiya dastlab bitta kod yordamida, so‘ngra boshqasi bilan kodlanadi. Natijada kod-ko‘paytmaga ega bo‘linadi. Ba’zi kod- ko‘paytmalar iterativ kodlash uchun atayin loyihalangan. Bunda dekodlash bir necha etapda amalga oshirilib, uning har birida oldingisining informatsiyasidan foydalaniladi. Bu yuqori samaradorlikka erishishga imkon yaratadi, ammo ko‘p resurs talab etiladi. Kodlarning samaradorligi ularning tuzata oladigan xatoliklar soni, qo‘shilishi talab etadigan ortiqcha informatsiya miqdori hamda kodlash va dekodlashning amalga oshirilishining murakkabligi orqali aniqlanadi.

6.4. Teskari bog‘lanishli sistemalar

Uzatilishning xalallarga bardoshligini oshirishning samarali usullaridan biri – teskari kanaldan foydalanish. Informatsiya teskari kanal bo‘yicha priyomnikdan peredatchikka uzatilishi mumkin. Uzatishni teskari kanal bo‘yicha amalga oshiradigan sistemalar teskari bog‘lanishli sistemalar nomini olgan. Teskari kanalni qurishning kup

usullari mavjud. Teskari bog‘lanishli sistemalarning asosiy variantlari 6.3-rasmda keltirilgan.



6.3-rasm. Teskari bog‘lanishli sistemalarning asosiy variantlari

I variantda teskari bog‘lanish faqat aloqa liniyasini qamrab oladi. II va III variantlarda teskari bog‘lanish hal etuvchi qurilmadan keyin ulangan. III variant butun sistemani qamrab olishi bilan farqlanadi.

Teskari kanaldan foydalanish usullariga bog‘liq holda teskari bog‘lanish sistemalarni ikkita asosiy turga ajratish mumkin:

- informatsion teskari bog‘lanishli sistemalar (taqqoslashli sistemalar);
- hal etuvchi qurilmali teskari bog‘lanishli sistemalar (takror so‘rashli sistemalar).

Informatsion teskari bog‘lanishli sistemalarda barcha olingan signallar teskari kanal bo‘yicha uzatiladi. Ushbu signallar uzatuvchi tomonda uzatilganlari bilan taqqoslanadi. Tafovut borligida signalni takror uzatish yoki kerakli tuzatishlar xususida ma’lumotlar uzatish amalga oshiriladi.

Hal etuvchi qurilmali teskari bog‘lanishli sistemalarda olingan signallarning to‘g‘riligini priyomnikning o‘zi tekshiradi. Buzilishlar aniqlanganida priyomnik teskari kanal bo‘yicha buzilgan signalni takror uzatish lozimligi signalini yuboradi.

Shunday qilib, informatsion teskari bog‘lanishli sistemalarda uzatishni takrorlash xususida qaror uzatuvchi tomonda, hal etuvchi qurilmali teskari bog‘lanishli sistemalarda esa qabul qiluvchi tomonda qabul qilinadi.

Teskari kanallar informatsion teskari bog‘lanishli va hal etuvchi qurilmali teskari bog‘lanishli sistemalarda bir xil darajada ishlatilmaydi. Hal etuvchi qurilmali teskari bog‘lanishli sistemalarda teskari kanal, informatsion teskari bog‘lanishli sistemalardagiga nisbatan kam yuklangan. Chunki hal etuvchi qurilmali teskari bog‘lanishli sistemalarda signal teskari kanal bo‘yicha faqat uzatilgan

signalidagi buzulishlar aniqlanganida keladi. Informatsion teskari bog'lanishli sistemalarda esa har bir olingan signal teskari kanal bo'yicha uzatuvchi tomonga jo'natiladi.

Hal etuvchi qurilmali teskari bog'lanishli sistemalarda signal strukturasi shunday bo'lishi kerakki, uzatishdagi xatolik qabul qiluvchi tomonda aniqlanishi mumkin bo'lsin. Bu faqat buzulishlarni aniqlashga imkon beruvchi kodlardan foydalanilganda amalga oshirilishi mumkin. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, xatoliklarni aniqlovchi kodlardan foydalanuvchi hal etuvchi qurilmali teskari bog'lanishli sistemalar, tuzatuvchi kodlardan foydalanuvchi teskari bog'lanishsiz sistemalarga nisbatan samaraliroq. Sababi, hal etuvchi qurilmali teskari bog'lanishli sistemalarda uzatishni takrorlash faqat uzatilgan signalda xatoliklar aniqlanganida amalga oshiriladi. Avtomatik tarzda xatoliklarni tuzatuvchi sistemalarda esa qabul qiluvchi tomonda, buzulishlar mavjudligiga bog'liq bo'limgan holda, xatoliklarni tuzatish uchun talab etiluvchi ortiqchalik doimo kiritiladi.

Nazorat savollari

1. Xemming kodi xalallarga bardosh kodlarning qaysi turiga mansub?
2. Xemming kodini qurish muolajasini so'zlab bering.
3. Xemming kodining minimal kod masofasi nimaga teng?
4. O'nli kodning Xemming kodini qurish muolajasini tushuntiring.
5. Siklik kodga ta'rif bering.
6. Siklik kodni qurish muolajasini so'zlab bering.
7. Siklik kodlarda qanday xususiyat xatolikni aniqlashga imkon beradi?
8. Kodlash va dekodlash registrlari.
9. Teskari bog'lanishli sistemalar.

7-BOB. UZLUKSIZ KODLAR. REKURRENT KODLAR

7.1. Avtomatlar nazariyasi

Avtomat atamasining ikkita jihatini ko‘rish mumkin. Bir tomondan, avtomat – inson ishtirokisiz qandaydir funksiyalarni bajaruvchi qurilma. Bu ma’noda kompyuter avtomat hisoblanadi, chunki u dastlabki ma’lumotlar va dasturlar kiritilganidan so‘ng berilgan masalani insonning ishtirokisiz yechadi. Ikkinci tomondan *avtomat* atamasi matematik tushuncha sifatida real texnik avtomatlarning matematik modelini anglatadi.

Avtomat chekli hisoblanadi, agar uning ichki holatlari to‘plami va kirish yo‘li signallari to‘plami cheklangan to‘plamlar bo‘lsa.

Amalda ko‘pincha *raqamli avtomat* tushunchasi ishlataladi. Raqamli avtomat deganda raqamli informatsiyani o‘zgartirishga mo‘ljallangan qurilma tushuniladi. Raqamli avtomat ishlashini tavsiflash uchun quyidagi to‘plamlar berilishi zarur:

- ◎ kirish yo‘li signallari to‘plami

$$(A = (a_1, a_2, \dots a_n));$$

- ◎ avtomat ichki holatlari to‘plami

$$S = (s_1, s_2, \dots s_n);$$

- ◎ chiqish yo‘li signallari to‘plami

$$Z = (z_1, z_2, \dots z_n);$$

- ◎ o‘tish funksiyasi

$f: (a_k s_k) \rightarrow (s_m)$. Bu funksiya olingan signal qiymati a_k va avtomatning joriy xolati s_k ga bog‘liq holda s_k avtomat xolatini s_m ga almashtiradi;

- ◎ chiqish yo‘li funksiyasi

$g: (a_k s_k) \rightarrow (z_k)$. Bu funksiya kirish yo‘li signali s_k asosida avtomatning joriy xolatini hisobga olgan holda chiqish yo‘li signali qiymatini yaratadi.

Avtomat Mur avtomati

$$\begin{aligned} S(t+1) &= f[S(t), a_1(t), a_2(t), \dots, a_k(t)]; \\ z_1(t) &= g_1[S(t)]; \\ z_2(t) &= g_2[S(t)]; \\ &\vdots \quad \vdots \\ &\vdots \quad \vdots \\ &\vdots \quad \vdots \\ z_n(t) &= g_n[S(t)]; \end{aligned}$$

yoki Mili avtomati

$$\begin{aligned} S(t+1) &= f[S(t), a_1(t), a_2(t), \dots, a_k(t)] \\ z_1(t) &= g_1[S(t), a_1(t), a_2(t), \dots, a_k(t)]; \\ z_2(t) &= g_2[S(t), a_1(t), a_2(t), \dots, a_k(t)]; \\ &\vdots \\ &\vdots \\ &\vdots \\ z_n(t) &= g_n[S(t), a_1(t), a_2(t), \dots, a_k(t)]; \end{aligned}$$

sifatida berilishi mumkin.

Ushbu tenglamalar sistemasidan ko‘rinib turibdiki, Mur avtomatida chiqish yo‘li signallari avtomat joriy holatiga bog‘liq bo‘lsa, Mili avtomatida esa chiqish yo‘li signallari nafaqat avtomat joriy holatiga, balki kirish yo‘li signallari qiymatiga ham bog‘liq.

Misol:

Barcha qiymatlar raqamli bo‘lganligi sababli f va g funksiyalar odatda jadval ko‘rinishida beriladi.

Avtomat kirish yo‘liga $A = 0011101010$ signali berilgan. O‘tish funksiyasi f va chiqish yo‘li funksiyasi g 7.1-jadval ko‘rinishida berilgan bo‘lsa, chiqish yo‘li signali aniqlansin.

7.1-jadval

	f		g	
	0	1	0	1
s_0	s_1	s_0	0	1
s_1	s_1	s_2	1	1
s_2	s_0	s_1	1	0

Yechish:

Avtomat ishlashining tadqiqini ikki bosqichda o‘tkazish qulay hisoblanadi. Birinchi bosqichda kirish yo‘li signali ta’sirida avtomat


holatining o‘zgarishini, ya’ni f funksiyani ko‘ramiz.

Kirish yo‘li signalini qator ko‘rinishida yozamiz

$$A = 0011101010$$


Avtomatning boshlang‘ich holatini (s_0) birinchi qiymat ustiga yozamiz. Kirish yo‘li signalining birinchi qiymati $a_1 = 0$.

Jadvaldan f uchun s_0 va 0 kesishgan joydan avtomatning yangi holati s_1 ni topamiz va uni ikkinchi qiymat ustiga yozamiz:




Kirish yo‘li signalining ikkinchi qiymati $a_2 = 0$.

Jadvaldan f uchun s_1 va 0 kesishgan joydan avtomatning yangi holati s_1 ni topamiz va uni uchinchi qiymat ustiga yozamiz:




Kirish yo‘li singalining uchinchi qiymati $a_3 = 1$. Jadvaldan f uchun s_1 va 1 kesishgan joydan avtomatning yangi holati s_2 ni topamiz va uni uchinchi qiymat ustiga yozamiz:



va.h.

Kirish yo‘li signali ta’sirida avtomat oladigan holatlarning to‘liq ketma – ketligi quyidagicha:



Ikkinchi bosqichda avtomatning barcha holatlarini bilgan holda jadvaldagи g funksiyadan foydalanib chiqish yo‘li signalini topamiz.

Kirish yo‘li signalining birinchi qiymati $a_1 = 0$ va s_0 holat uchun chiqish yo‘li signali qiymati 0 ni topamiz.

$$\begin{matrix} s_0 \\ 0 \\ 0 \end{matrix}$$

Kirish yo‘li signalining ikkinchi qiymati $a_2 = 0$ va s_1 holat uchun chiqish yo‘li signali qiymati 1 ni topamiz.

$$\begin{matrix} s_0 & s_1 \\ - & \\ 0 & 0 \\ & \\ 0 & 1 \end{matrix}$$

Kirish yo‘li signalining uchinchi qiymati $a_3 = 1$ va s_1 holat uchun chiqish yo‘li signali qiymati 1 ni topamiz.

$$\begin{matrix} s_0 & s_1 & s_1 \\ - & - & \\ 0 & 0 & 1 \\ & 0 & 1 \end{matrix}$$

va h.

Kirish yo‘li signali ta’sirida avtomat oladigan holatlarning hamda chiqish yo‘li signallarining to‘liq ketma – ketligi quyidagicha:


s_k	s_0	s_1	s_1	s_2	s_1	s_2	s_0	s_0	s_1	s_2
a_k	0	0	1	1	1	0	1	0	1	0
z_k	0	1	1	0	1	1	1	0	1	1

Shunday qilib, avtomat ishlashining chiqish yo‘li ketma – ketligi quyidagi ko‘rinishga ega.

$$Z = 0110111011$$

Har bir avtomatga yo‘naltirilgan graf moslashtirilishi mumkin. Bunda graf uchi sifatida avtomat xolatlari olinsa, graf yoylari salmog‘i sifatida a_k/z_k qiymati olinadi.

Ko‘rilgan misol uchun graf quyidagi ko‘rinishga ega.




7.2. Rekurrent kodlar

Rekurrent kodlar (Сверточные коды) uzlusiz kodlarga mansub bo'lib, bloklarga ajralmaydi. Bunda kod simvollarini kodlash va dekodlash amallari uzlusiz bajariladi. Bunday kodlar xalallarga bardosh kodlashning keng tarqalgan xili hisoblanadi. Ular simsiz aloqa protokollarida, raqamli yer usti va yer yo'ldoshi aloqa sistemalarida, kosmos bilan aloqa sistemalarida qo'llaniladi. Ushbu kodlarning ishlash prinsipining avtomatlar nazariyasiga asoslanganini 4 holatlvi va ikkilik ketma-ketlikni ishlovchi avtomat misolida ko'ramiz.

7.2-jadvalga binoan $A = 1, 1, 0, 1, 1, 1, 0, 0$ kirish yo'li ketma – ketligiga mos avtomat chiqish yo'li signalini aniqlaymiz.

7.2-jadval

	f		g	
	0	1	0	1
s_0	s_0	s_2	00	11
s_1	s_0	s_3	11	00
s_2	s_1	s_3	10	01
s_3	s_1	s_3	01	10



Demak, avtomat chiqish yo'lida quyidagi signal shakllanadi:


11, 01, 01, 00, 01, 10, 01, 11

Avtomat ishlashini yoyilgan panjara diagramma – (Trellis diagram) yordamida tavsiflash qulay hisoblanadi. Dastlabki avtomat s_0 holatida deb faraz qilinganligi sababli har qanday yo'l trellisning chapki yuqori burchagidan boshlanadi. Har bir qadamda diagramma bo'yicha yo'l ikki yo'nalishni qabul qilishi mumkin. Agar informatsion ketma – ketlikning navbattagi simvoli 0 qiymatini olsa, avtomat yuqori yo'lini tanlaydi. Agar simvol 1 ga teng bo'lsa avtomat pastki yo'lini tanlaydi. Avtomatning chiqish yo'li kodi ketma – ketligi tanlangan yo'l yoyi salmog'iga teng. Olingan kod ketma – ketligini dekodlash teskari tartibda amalga oshiriladi.

Trellisning har bir uzeli ikkita – yuqori va pastki yoylarga ega. Agar berilgan uzel uchun ajratilgan yo‘l yuqori yoy orqali o‘tsa informatsion signal 0 qiymatini oladi. Agar berilgan uzel uchun ajratilgan yo‘l pastki yoy orqali o‘tsa informatsion signal 1 qiymatini oladi. Bizning misolimizda dastlabki informatsion ketma – ketlik

$$A = 1, 1, 0, 1, 1, 1, 0, 0.$$

Yuqoridagi avtomat chiqish yo‘lida shakllangan kod ketma – ketligi uchun trellis quyidacha:



Rekurrent kodlar yordamida xatoliklarni tuzatish. Olingan har qanday kod ketma – ketligi uchun trellisda yo‘lni chizish mumkin emas. Masalan, 11, 11, 11 yoki 01, 01, 01 kombinatsiyalar uchun yo‘llar mavjud emas. Xuddi shunday 01 yoki 10 dan boshlanuvchi kod kombinatsiyalari ham mavjud emas. Bunday juftliklar xatolik borligini ko‘rsatadi.

Ikkilik kod kombinatsiyasi xalalli kanallar orqali uzatilganida biror bir bitning teskarisiga o‘zgarishi kod kombinatsiyasining buzilishiga olib keladi. Ma’lumki, xabarlar orasidagi masofa farqlanuvchi xonalar soni sifatida aniqlanadi. Shuning uchun uzatiladigan kod kombinatsiyasidagi har bir xatolik uning dastlabki qiymatidan masofasini orttiradi.

Buzilgan kod kombinatsiyasi, mos holda, trellisdagи yo‘lning buzilishiga olib keladi. Ba’zi hollarda, yo‘lning bo‘imasligi ham mumkin. Xatolikni tuzatish masalasi – olingan kod kombinatsiyasi uchun bo‘lishi mumkin bo‘lgan yo‘llar to‘plamini olish va ular orasidagi shunday yo‘lni tanlash kerakki, bu yo‘l olingan kod kombinatsiyasidan minimal masofaga ega bo‘lsin.

Misol:

Uzatiladigan informatsion xabar quyidagi ko‘rinishga ega $A = (1010)$


Bu xabarga quyidagi kod kombinatsiyasi mos keladi. $Z = (11, 10, 00, 10)$

Aytaylik, uzatiladigan kombinatsiyada xatolik sodir bo‘ldi.


$$Z = (11, 11, 00, 10)$$

Informatsion ketma – ketlikni tiklash lozim.

Yechish:




Trellisning $s_0(t = 0)$ uzelidan boshlab olingan kod kombinatsiyasiga mos yoyni tanlaymiz. Birinchi juft simvol 11. Trellisda bu s_0 dan chiquvchi pastki yoyga mos keladi. Demak, s_2 uzelga keldik.




Ikkinci qadamda trellisning $s_2(t = 1)$ uzelidan \bar{Z} ning ikkinchi juftiga mos keluvchi 11 salmoqli yoyni tanlashimiz lozim. Bunday salmoqli yoy bo‘lmaganligi sababli, ikkita variantni ko‘ramiz.


Yuqori yoy uchun 10 salmoq mos keladi. 10 va 11 orasidagi masofani $s_1(t = 2)$ uzelga yozamiz. Pastki yoy uchun 01 salmoq mos keladi. 01 va 11 orasidagi masofani $s_3(t = 2)$ uzelga yozamiz.



Qabul qilingan kombinatsiyaning uchinchi jufti 00. Uchinchi qadamda ikkita marshrut mavjud. $s_1(t = 2)$ uzeldan 11 va 00 salmoqlarga ega bo‘lgan ikkita yoy chiqadi. Ular va qabul qilingan qiymatlar orasidagi masofalarni mos uzellarga yozamiz. $s_3(t = 2)$ uzeldan ham 01 va 10 salmoqlarga ega bo‘lgan ikkita yoy chiqadi. Ular va qabul qilingan qiymatlar orasidagi masofani s_1 va s_0 uzellarga yozamiz.



To‘rtinchi qadamda maksimal salmoqqa ega bo‘lgan uzellarni tashlab yuborish lozim. Chunki ular uzatiladigan ketma – ketlikdan ko‘proq farqlanuvchi ketma – ketlikka mos keladi. Keyingi yo‘l uchun faqat s_2 uzelini qoldiramiz. Qabul qilingan kombinatsiyaning to‘rtinchi jufti 10. Trellisning $s_2(t = 3)$ uzelidan 10 salmoqli yuqori yoy chiqadi va ushbu yoy orqali s_1 uzelga o‘tamiz.



Oxirida masofalar yig‘indisi minimal bo‘lgan uzellardan o‘tuvchi yo‘lni aniqlash lozim. Har bir qadamda yuqori yoyga 0 qiymati, pastki yoyga 1 qiymati beriladi. Dekodlangan informatsiyaning ketma-ketligi quyidagi ko‘rinishga ega.

$$A = (1010).$$

7.3. Zanjir rekurrent kodlar

Xatoliklar guruhini aniqlash va tuzatishga imkon beruvchi zanjir rekurrent kod keng qo‘llaniladi. Rekurrent kodlar (m/n) kabi shartli belgilanadi. Har bir informatsion simvoldan so‘ng nazorat (tekshiruvchi) simvol keluvchi kod eng sodda rekurrent kod hisoblanadi. Bunday kod ($1/2$) kabi belgilanadi.


Bunda nazorat simvollarining uzunligi informatsion simvollar uzunligiga teng, ya’ni:

$$m = k = n/2.$$

Demak, ortiqchalik

$$D = (n - m) \cdot 100/n = (n - 0,5n) \cdot 100/n = 50\%.$$


Rekurrent kodni qurish prinsipi 7.1 – rasmda keltirilgan.



7.1-rasm. Rekurrent kodni qurish prinsipiga

Nazorat simvollarining ketma – ketligi (7.1-rasmdagi pastki qator) informatsion simvollar ketma – ketligidan (7.1 – rasmdagi yuqori qator) bir – biridan l_0 masofadagi informatsion simvollarni 2 ning moduli bo‘yicha jamlash yo‘li bilan hosil qilinadi.

To‘rt xonali siljutuvchi registr asosidagi *kodlash sxemasi (coder)* 7.2 – rasmda keltirilgan.



7.2-rasm. Koder sxemasi

Agar koderning kirish yo'liga quyidagi simvollar ketma – ketligi

$1\ 0\ 1\ 1\ 0\ 1\ 1\ 1\ 0\ 0\ 1$ (1)

berilsa, siljituvchi registrning chiqish yo'lida quyidagi simvollar ketma – ketligi shakllanadi.

$0\ 0\ 1\ 0\ 0\ 1\ 1\ 0\ 1\ 0\ 1$ (2)

(2) ketma – ketlikning hosil qilinishini 7.3-jadval yordamida tushunish mumkin.

7.3-jadval

Diskret vaqt	Registr xonalari holati				Jamlag'ich chiqish yo'lida
	1-chi	2-chi	3-chi	4-chi	
t_1	1	0	0	0	0
t_2	0	1	0	0	0
t_3	1	0	1	0	1
t_4	1	1	0	1	0
t_5	0	1	1	0	0
t_6	1	0	1	1	1
t_7	1	1	0	1	1
t_8	1	1	1	0	0
t_9	0	1	1	1	1
t_{10}	0	0	1	1	0
t_{11}	1	0	0	1	1

Informatsion ketma – ketlik (1) diskret on t_i dagi registrning 1-xonasi holatiga mos kelsa, nazorat (tekshiruvchi) simvollar ketma – ketligi (2) 2ning moduli bo'yicha jamlag'ichning chiqish yo'lida simvollarga mos keladi.

(2) ketma – ketlik siljituvchi registrning oldingi taktdagi ikkinchi va to'rtinchi xonalarining chiqish yo'lida signallarni jamlash yo'li bilan olinadi. Bu 7.3 – jadvalning oldingi qatoridagi registrning ikkinchi va to'rtinchi xonasidagi simvollarni jamlashga mos keladi.

Uzatuvchi tarafdag'i kommutator (K_M) chiqish yo'liga birinchi informatsion simvoldan, so'ngra birinchi nazorat simvoldidan, so'ngra ikkinchi informatsion simvoldan va h. tarkib topgan ketma – ketlikni uzatadi, ya'ni:


1 0 0 0 1 1 1 0 0 0 1 1 1 1 1 0 0 1 0 0 1 1 (3)

(3) ketma – ketlik (1/2) rekurrent kodning kodlangan simvollarining ketma – ketligidir.

Dekoder sxemasi. Dekoder ikki qismli sxemadan iborat:

Birinchi qism sxemada tuzatuvchi ketma – ketlik shakllansa, ikkinchi qism sxemada kod tuzatiladi.

Birinchi qism sxemada (7.3-rasm) kommutator K_M (dekoder kommutatori) koder kommutatori bilan (7.2-rasm) sinxron va sinfaz ishlaydi.



7.3-rasm. Tuzatuvchi ketma-ketlikni shakllantirish sxemasi

Dekoder siljituvchi registri ham to'rt xonali. Dekoder kirish yo'liga simvollarining ketma – ketligi (3) beriladi va bu ketma – ketlik kommutator yordamida siljituvchi registr kirish yo'liga beriluvchi informatsion ketma – ketlik (1)ga va chiqish yo'li jamlagichining pastki kirish yo'liga beriluvchi nazorat simvollarini ketma – ketligi (2)ga ajratiladi.

Dekoderdag'i to'rt xonali siljituvchi registr koderdag'i siljituvchi registr sxemasidek sxemaga ega. Shu sababli, agar xatolik bo'lmasa, yuqorida jamlagichning chiqish yo'lidagi simvollar ketma – ketligi pastki jamlagich kirish yo'liga beriluvchi nazorat simvollarini ketma – ketligiga mos keladi. Bu holda jamlagichning 2 – chiqish yo'lda simvollarining ketma – ketligi faqat nppardan iborat bo'ladi, jamlagichning 1 – chiqish yo'lda esa buzilmagan simvollarining ketma – ketligi (1) shakllanadi.

Agar aloqa kanalida, koder va dekoder orasida xatolik paydo

bo'lsa jamlagichning 2-chiqish yo'lidagi simvollar ketma – ketligi tarkibida xatolikni tuzatishga imkon beruvchi ma'lum kombinatsiyadagi birlar paydo bo'ladi. Demak, ushbu ketma – ketlik tuzatuvchi ketma – ketlik hisoblanadi.

Misol:

$2l_0=4$ uzunlikdagi seriya holidagi xatoliklar paydo bo'lishi misolini ko'raylik. Bunday xatoliklar paketi faqat uzunligi $l_0=2$ bo'lgan informatsion simvollarning yarmini va uzunligi $l_0=2$ bo'lgan nazorat simvollarining yarmini shikastlaydi.

Aytaylik, quyidagi xatoliklar ketma – ketligi sodir bo'ldi:

0 0 0 0 0 1 0 1 1 0 0 0 0 0 0 0 0 0 0 0 0 0 (4)

(3) va (4) simvollar ketma – ketligini jamlab, dekoderga beriluvchi qabul qilingan ketma – ketlikni hosil qilamiz.

1 0 0 0 1 0 1 1 1 0 1 1 1 1 1 0 0 1 0 0 1 1 (5)

7.3 – rasmdagi kommutator Km (5) ketma – ketlikni informatsion simvollarga

1 0 1 1 1 1 1 1 0 0 1 (6)

va nazorat simvollariga

0 0 1 0 1 1 0 1 0 1 (7)

ajratadi.

(6) va (7) simvollar ketma – ketligida xatoliklar mayjud (xato simvollarning tagiga chizilgan).

Siljituvchi registrning (7.3-rasm) chiqish yo'lida quyidagi simvollar ketma – ketligi shakllanadi.

0 0 1 0 0 1 0 0 0 0 1 (8)

(8) ketma – ketlikni (7) ketma – ketlik bilan jamlash natijasida tuzatuvchi ketma – ketlik hosil bo'ladi:


0 0 1 1 0 0 1 0 1 0 0 (9)

7.4 – rasmda xatoliklarni tuzatish sxemasi keltirilgan. Ushbu sxema dekoderning 1 – chiqish yo'lida paydo bo'lgan (6) ketma – ketlikni tuzatuvchi (9) ketma – ketlik yordamida avtomatik tarzda tuzatishni amalga oshirishga mo'ljallangan.

Ushbu sxema 7.3 – rasmda keltirilgan sxemaning davomi hisoblanadi. (1 – chiqish yo'li 1 – kirish yo'li bilan, 2 – chiqish yo'li 2 – kirish yo'li bilan ulanadi). Tuzatuvchi ketma – ketlik (9) bevosita inverslovchi mantiqiy element HE ning kirish yo'liga beriladi.

Ushbu elementning chiqish yo'lida shakllangan ketma – ketlik

(10) mantiqiy element И ning chapdagি kirish yo‘liga beriladi.



7.4-rasm. Xatoliklarni tuzatuvchi dekoder sxemasi

7.4 – rasmdagi pastki siljituvchi registr sxemasi
 7.3 – rasmdagidek. Ushbu siljituvchi registrning 2 –xonasining chiqish yo‘lidan tuzatuvchi ketma – ketlik (9) $l_0=2$ qadam bilan siljigan holda mantiqiy element И ning pastki kirish yo‘liga (11) ketma – ketlik beriladi, 4 –xonasining chiqish yo‘lidan $2l_0=4$ qadam bilan siljigan holda mantiqiy element И ning o‘ngdagи kirish yo‘liga (12) ketma – ketlik beriladi. Natijada mantiqiy element И ning chiqish yo‘lida (13) ketma-ketlik hosil bo‘ladi.

$$1 \ 1 \ 0 \ 0 \ 1 \ 1 \ 0 \ 1 \ 0 \ 1 \ 1 \quad (10)$$

$$\cdot \ . \ 0 \ 0 \ 1 \ 1 \ 0 \ 0 \ 1 \ 0 \ 1 \quad (11)$$

$$\cdot \ . \ . \ . \ 0 \ 0 \ 1 \ 1 \ 0 \ 0 \ 1 \quad (12)$$

$$\cdot \ . \ . \ . \ . \ 0 \ 0 \ 0 \ 0 \ 0 \ 0 \ 1 \quad (13)$$

Ketma – ketliklarning chap tarafidagi nuqtalar simvollar siljishini belgilaydi. И mantiqiy element chiqish yo‘lidagi bir faqat uning uchchala kirish yo‘liga bir berilganidagina paydo bo‘ladi. Ushbu bir xatoliklarni tuzatishga buyruq (komanda) sifatida ishlatiladi. Ushbu komandaning berilishi dekoderning 1 – kirish yo‘liga beriluvchi (xatolik) informatsion simvollar ketma – ketligi bilan vaqt bo‘yicha mos bo‘lishi lozim. Bu maqsadga $l_0=2$ ni ta’minlovchi 1- kirish yo‘lidagi siljituvchi registrning 5 - va 6 – xonalari xizmat qiladi. Tuzatilgan ketma – ketlik sxemaning chiqish yo‘lida (14) va (15) simvollar ketma – ketliklarining yig‘indisi ko‘rinishida shakllanadi. (14) va (15) ketma – ketliklar mos holda $2l_0=4$ va $3l_0=6$ qadamlar bilan siljigan (13) va (6) ketma – ketliklardir. Qadamlar soni ketma – ket ulangan siljituvchi registr xonalari soni orqali aniqlanadi.

$$\dots 0 \ 0 \ 0 \ 0 \ 0 \ 1 \ 0 \ 0 \ 0 \ 0 \ 0 \ 0 \quad (14)$$

$$\oplus. \dots . \ 1 \ 0 \ 1 \ 1 \ 1 \ 1 \ 1 \ 0 \ 0 \ 1 \quad (15)$$

$$1 \ 0 \ 1 \ 1 \ 0 \ 1 \ 1 \ 1 \ 0 \ 0 \ 1 \quad (16)$$

Tuzatilgan ketma – ketlik (16) dastlabki ketma – ketlik (1) bilan mos.

Rekurrent kod uchun apparaturaning murakkabligi siljituvchi registr xonalari soni orqali baholanadi.

Nazorat savollari

1. Qanday avtomat chekli hisoblanadi?
2. Raqamli avtomat tushunchasiga izoh bering.
3. Mur avtomatining Mili avtomatidan farqi nimada?
4. Avtomat grafi qanday quriladi?
5. Rekurrent kodlar qanday kodlarga mansub?
6. Rekurrent kodlar qayerlarda qo'llaniladi?
7. "Trellis" nima?
8. Kodlash va dekodlash muolajalarini tushuntiring.
9. Zanjir rekurrent kodlarni qurish prinsipini so'zlab bering.
10. Kodlash sxemasini keltiring.
11. Dekodlash sxemasi nechta qismdan iborat? Ularning vazifalarini va sxemalarini keltiring.
12. Zanjir rekurrent kodlar qanday xatoliklarni tuzatadi?


8-BOB. KOD O'ZGARTGICHLARI

8.1. To'g'ri koddan teskari va qo'shimcha kodlarni hosil qilish

Ma'lumki, *teskari kod* to'g'ri kod xonalari qiymatini invertirlab hosil qilinadi. 8.1-rasmda kirish yo'lining ikkilik kodni ($a_1, a_2, a_3, \dots, a_n$) ni boshqarish signali (y_i) ga bog'liq holda, to'g'ri yoki teskari kodda uzatilishini ta'minlovchi sxema keltirilgan.


Haqiqatan, $(y_i) = 0$ bo'lganida $c_i = a_i$ ya'ni chiqish yo'liga to'g'ri kod uzatiladi. $(y_i) = 1$ bo'lganida $c_i = \bar{a}_i$ ya'ni chiqish yo'liga teskari kod uzatiladi. Umumiy ko'rinishda $c_i = a_i\bar{y}_i + \bar{a}_i y_i$

To'g'ri koddan *qo'shimcha kodni* hosil qilish qoidasini umumiyligi ko'rinishda quyidagicha yozish mumkin: $c_i = (a_1 + a_2 + \dots + a_{i-1}) \oplus a_i$



8.1-rasm. Kirish yo'lining ikkilik kodini to'g'ri yoki teskari kodda uzatilishini ta'minlovchi sxema

Ushbu ifodadan ko'rinish turibdiki, $s_1 = a_1$, ya'ni sonlarning to'g'ri va qo'shimcha kodlaridagi kichik xonalarining qiymati bir xil. Haqiqatan, qo'shimcha kodni hisoblaganda kichik xonasi (1 yoki 0) invertirlanadi va unga 1 qo'shiladi, ya'ni doimo a_1 xonanining qiymati tiklanadi. To'g'ri kodni qo'shimcha kodga o'zgartiruvchi sxema 8.2-rasmida keltirilgan.



8.2-rasm

8.2. O'nli kodni ikkilik – o'nli kodda va ikkilik – o'nli kodni o'nli kodda ifodalovchi o'zgartgichlar

O'nlik kodni ikkilik-o'nlik shaklda (8421 kodida) ifodalovchi o'zgartgich sxemasi 7.3-rasmda keltirilgan. Ushbu o'zgartgichning kirish yo'lida 10 ta signal shinasi bo'lib, faqat bittasida signal 1 qiymatga ega bo'ladi. O'zgartgichning chiqish yo'lida esa ikkilik-o'nlik kodning to'rtta xonasiga mos c_1, c_2, c_3, c_4 shinalari mavjud (c_1 – kichik xona). Ushbu to'rtta chiqish yo'lida ikkilik raqamlarning 16 ta kombinatsiyasi mumkin bo'lsada, faqat 10 tasi ishlatalidi (8.1-jadvalga qaralsin). Jadvaldan ko'rinish turibdiki, c_1, c_2, c_3, c_4 xonalarning ikkilik funksiyasining $a_0, a_1, a_2, \dots, a_9$ o'nli xonalar qiyatlari funksiyalarining mantiqiy qo'shilishi ko'rinishida ifodalaş mumkin.

8.1-jadval

8	4	2	1
c_4	c_3	c_2	c_1
0	0	0	0
0	0	0	1
0	0	1	0
0	0	1	1
0	1	0	0
0	1	1	1
0	1	1	0
1	0	0	0
1	0	0	1

Masalan, o‘nli son 1,3,5,7,9 ga teng bo‘lgandagina ikkilik-o‘nli kodning kichik xonasi (c_1) birlik qiymatiga ega bo‘ladi.

$$c_1 = a_1 \vee a_3 \vee a_5 \vee a_7 \vee a_9$$


Shunga o‘xhash c_2 , c_3 , c_4 funksiyalari uchun quyidagilarni yoza olamiz:

$$c_2 = a_2 \vee a_3 \vee a_6 \vee a_7$$


$$c_3 = a_4 \vee a_5 \vee a_6 \vee a_7$$

$$c_4 = a_8 \vee a_9$$


Ushbu funksiyalarni amalga oshiruvchi sxema 8.3-rasm “a” da, o‘nli kodni ikkilik-o‘nli kodda ifodalovchi sxema va uning shartli belgilanishi esa mos holda 8.3-rasm “b” va “v” da keltirilgan.



8.3-rasm (a)



8.3-rasm (b)




8.3-rasm (v)

Ikkilik-o'nli kodni o'nli kodda ifodalash uchun a_i funksiyasini c_1, c_2, c_3, c_4 o'zgaruvchilar orqali quyidagicha yozish kerak:


$$\begin{array}{ll}
 a_0 = \bar{c}_1, \bar{c}_2, \bar{c}_3, \bar{c}_4 = \bar{c}_1, \bar{c}_2, \bar{c}_3, \bar{c}_4; & a_5 = c_1, \bar{c}_2, c_3, \bar{c}_4 = c_1, \bar{c}_2, c_3; \\
 a_1 = c_1, \bar{c}_2, \bar{c}_3, \bar{c}_4 = c_1, \bar{c}_2, \bar{c}_3, \bar{c}_4; & a_6 = \bar{c}_1, c_2, c_3, \bar{c}_4 = \bar{c}_1, c_2, c_3; \\
 a_2 = \bar{c}_1, c_2, \bar{c}_3, \bar{c}_4 = \bar{c}_1, c_2, \bar{c}_3; & a_7 = c_1, c_2, c_3, \bar{c}_4 = c_1, c_2, c_3; \\
 a_3 = c_1, c_2, \bar{c}_3, \bar{c}_4 = c_1, c_2, \bar{c}_3; & a_8 = \bar{c}_1, \bar{c}_2, \bar{c}_3, c_4 = \bar{c}_1, c_4; \\
 a_4 = \bar{c}_1, \bar{c}_2, c_3, \bar{c}_4 = \bar{c}_1, \bar{c}_2, c_3; & a_9 = c_1, \bar{c}_2, \bar{c}_3, c_4 = c_1, c_4;
 \end{array}$$

Ushbu ifodalarni amalga oshiruvchi, ya'ni ikkilik-o'nlik kodni o'nli kodda ifodalovchi o'zgartgichning sxemasi va uning shartli

belgilanishi, mos holda 8.4-rasm “a” va “b” da berilgan.



8.4-rasm (a)



8.4-rasm (b)

8.3. Grey kodi

Ma'lumki, ikkilk va ikkilik-o'nli kodlar uchun ikkita ketma-ket kodlardagi birlar sonining har xilligi xarakterlanadi. Masalan, $3_{10}=0011_2$ soni $4_{10}=0100_2$ sonidan bitta birga farq qilsa, $7_{10}=0111_2$ soni $8_{10}=1000_2$ sonidan to'rtta birga farq qiladi. Boshqacha aytganda, " n " xonali son uchun kod masofasi " 1 "dan " n " gacha o'zgarsa, *Grey kodida(davriy kodda)* qo'shni sonlar uchun kod masofasi birga teng bo'ladi. Grey kod pozitsion bo'lmagan kodlar sinfiga mansub (8.2-jadvalga qaralsin). Grey kod analog signallarni raqamli signallarga o'zgartirish sxemalarini qurishda qo'llaniladi va o'qishdagi bir ma'noga ega bo'lmagan xatolikni kichik xonaning birligiga keltirishga imkon beradi. $a_1, a_2, a_3, \dots, a_n$ ikkilik soni $c_1, c_2, c_3, \dots, c_n$ davriy kodga quyidagi qoida bo'yicha keltiriladi:

$$\begin{aligned}c_n &= a_n, \\c_{n-1} &= a_{n-1} \oplus a_n, \\&\dots \dots \dots \dots \dots \dots \dots \\c_3 &= a_3 \oplus a_4, \\c_2 &= a_2 \oplus a_3, \\c_1 &= a_1 \oplus a_2.\end{aligned}$$

8.2-jadval

Ikkilik kod			
a_4	a_3	a_2	a_1
0	0	0	0
0	0	0	1
0	0	1	0
0	0	1	1
0	1	0	0
0	1	0	1
0	1	1	0
0	1	1	1
1	0	0	0
1	0	0	1
1	0	1	0
1	0	1	1
1	1	0	0

1	1	0	1
1	1	1	0
1	1	1	1

Grey kodi			
c_4	c_3	c_2	c_1
0	0	0	0
0	0	0	1
0	0	1	1
0	0	1	0
0	1	1	0
0	1	1	1
0	1	0	1
0	1	0	0
1	1	0	0
1	1	0	1
1	1	1	1
1	1	1	0
1	0	1	0
1	0	1	1
1	0	0	1
1	0	0	0

Sonning davriy kodidan ikkilik kodiga o‘tish esa quyidagi qoida bo‘yicha bajariladi:

$$a_n = c_n,$$

$$a_{n-1} = a_n \oplus c_{n-1},$$


.....

$$a_3 = a_4 \oplus c_3,$$

$$a_2 = a_3 \oplus c_2,$$

$$a_1 = a_2 \oplus c_1.$$

“n” xonali ikkilik sonni davriy kodga va davriy kodni ikkilik kodga o‘zgartiruvchi sxemalar mos holda 8.5-rasm “a” va “b”da keltirilgan.



8.4. Kodlash yordamida informatsiyani himoyalash

Ko‘pgina hollarda saqlanuvchi va uzatiluvchi informatsiya undan g‘arazli maqsadlarda foydalanuvchi shaxslar uchun qiziqish uyg‘otishi tabiiy. Informatsiyadan bunday ruxsatsiz foydalanish oqibati jiddiy zararlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, hozirda informatsiyani ruxsatsiz foydalanishdan himoyalash muammosi dolzARB hisoblanadi.

Hududni va binoni qo‘riqlash, binodan foydalanishni tartibga soluvchi, foydalanishni identifikatsiyalovchi qurilmalar va hokazolarni o‘z ichiga oluvchi himoyalashning texnik vositalar kompleksi mavjud. Ushbu ma’ruzada informatsiyani, uni aloqa kanali bo‘yicha uzatilganida ruxsatsiz foydalanishdan himoyalash usullaridan birini

ko‘rish bilan chegaralanamiz. Himoyalashning ushbu usuli xabarlarni (ma’lumotlarni) shunday o‘zgartirilishini ta’minlaydiki, ularning dastlabki mazmunidan spetsifik informatsiyaga (kalitga) ega foydalanuvchi foydalanishi va kalit yordamida teskari o‘zgartirishni amalga oshirishi mumkin. Bunday usullar *informatsiyani kriptografik berkitish usullari* deb yuritiladi.

Informatsiyani kriptografik berkitish usullaridan foydalanuvchi sistemalarda bajariladigan o‘zgartirishlarni kodlash va dekodlash jarayonlarining bir turi deb hisoblash mumkin.

Ushbu jarayon *shifrlash va rasshifrovka qilish* nomlarini olgan.

Informatsiyani shifrlash deganda ochiq informatsiyani (dastlabki matnni) shifrlangan informatsiyaga o‘zgartirish (shifrlash) va aksincha (rasshifrovka qilish) jarayoni tushuniladi. Shifrlangan matn *shifrmatn* deb yuritiladi. Shifrlashning ko‘pgina turli usullari mavjud.

Quyida keng tarqalgan shifrlardan biri – *Vijiner shifri* ustida so‘z boradi. Bunda shifrlashning ishonchlilik darajasi alfavit xarflarining paydo bo‘lish statistik qonuniyatlarining buzilishi evaziga ortadi.

Vijiner shifriga binoan alfavitning har biriga nomer beriladi. Masalan, o‘zbek lotin alfaviti harflariga 0 (A = 0) dan to 31 (H = 31) gacha raqam moslashtiriladi.

A	B	D	G	D	E	F	G	G'	H	I	J	K	L	M	N	O	O'	P
0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18

Q	R	S	Sh	Ch	T	U	V	X	Y	Z	ng	‘						
19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30	31						

Kalit xabar tagiga. qaytarilib yoziladigan qandaydir so‘z yoki oddiy harflar ketma – ketligi sifatida ifodalanadi. Shifrmatnning har bir harfiga raqamli ekvivalent xabar harfi raqamli ekvivalentini uning tagidagi kalit harfi raqamli ekvivalentiga 31 ning moduli bo‘yicha jamlash orqali aniqlanadi.

Misol:

“TAHDID” kaliti yordamida “AXBOROT” dastlabki matnni shifrlash va rasshifrovka qilish talab etilsin.

Yechish.

Shifrlash va rasshifrovka qilish natijasi quyida keltirilgan.

Dastlabki matn	A	X	B	O	R	O	T
Kalit	T	A	H	D	I	D	T
Shifrmatn	T	X	I	P	ng	P	O
Kalit	T	A	H	D	I	D	T
Dastlabki matn	A	X	B	O	R	O	T

Vijiner shifri faqat juda uzun kalitlardan foydalilaniganda yetarlicha yuqori kriptobardoshlikka ega bo‘ladi.

Bitta harfdan iborat kalitli Vijiner shifri Sezar shifri, chegaralanmaydigan qaytarilmaydigan kalitli Vijiner shifri Vernam shifri sifatida ma’lum.

Nazorat savollari

1. To‘g‘ri, teskari va qo‘srimcha kodlar qanday kodlar?
2. O‘nli kodni ikkilik-o‘nli va ikkilik-o‘nli kodni o‘nli kodga qanday o‘zgartiriladi?
3. Grey kodi qanday kod? Uning asosiy xususiyati nimada?
4. Ikkilik kod Grey kodiga, Grey kodi ikkilik kodga qanday o‘zgartiriladi?
5. Vijiner shifri yordamida matnni shifrlash va rasshifrovka qilish muolajasini tushuntiring.
6. Sezar va Vernam shifrlarining Vijiner shifridan farqi nimada?

Adabiyotlar

1. Зубова Е.Д. Основы теории информации. Учебное пособие. Издательство: ЛАНЬ, 2020 — 48 с.
2. Березкин Е.Ф. Основы теории информации и кодирования. Учебное пособие. Издательство: ЛАНЬ, 2019 — 320 с.
3. Гошин Е.В. Теория информации и кодирования. Учебное пособие. — Самара: Самарский университет, 2018 — 124 с.
4. S.K. Ganiev, SH.R. G'ulomov. Axborot nazariyasi va kodlash: O'quv qo'llanma/Aloqachi, 2017 у. 100 б.
5. Вентцель Е.С. Теория вероятности. Учебник. ISBN: 978-5-4060-0476-0, издательство: Кнорус, 2016 г. 664 с.
6. А.С. Гуменюк, Н.Н. Поздниченко. Теория информации и кодирования: Учебное пособие / Минобрнауки России, ОмГТУ. — Омск: Изд-во ОмГТУ, ISBN 978-5-8149-2111-6, 2015 г.
7. С.К. Ганиев. “Ахборот назарияси ва кодлаш” фанидан маърузалар матни. ТАТУ илмий услубий кенгаши мажлисида кўрилган ва чоп этишга тавсия этилган. Қайднома №7/68. 13.04.2014 й.
8. Фаниев С.К., Абдуллаев Д.Ф. “Ахборот назарияси ва кодлаш” фани бўйича амалий машғулотларга услубий кўрсатма. ТАТУ. Тошкент 2012.
9. Думачев В.Н. Теория информации и кодирования-Воронеж: Воронежский институт МВД России, 2012.-200 с.
10. Richard E. Algebraic Codes for Data Transmission. Blahut Paperback. ISBN-13:9780521556590 Subject: Communications and Signal processing. Publication date January 2012.
11. Теория информации: учеб. / В.А. Фурсов. - Самара: Изд-во Самар, гос. аэрокосм, ун-та, 2011. - 128 с.: ил.
12. Березкин Е.Ф. Основы теории информации и кодирования: Учебное пособие. – М.: НИЯУ МИФИ, 2010. – 312 с.
13. Крушный В.В. Основы теории информации и кодирования. Снежинск-СГФТА-2005.
14. Фаниев С.К., Каримов М.М., Мамбетов Н.М. Ҳисоблаш системаларининг информацион асослари. Олий ўқув юрти талабалари учун дарслик. – Тошкент, ТДТУ, 2002.
15. Савельев А.Я. Основы информатики. Учебник для вузов.

М: Издательство МГТУ им. Н.Э. Баумана. 2001.

16. Димитриев В.И. Прикладная теория информации. Учеб.
для студ. вузов. М.: высш.шк. 1989.

Internet resurslari

1. <https://intellect.icu/category/teoriya-informacii-i-kodirovaniya>
2. http://window.edu.ru/resource/553/72553/files/teoria_informaci.pdf
3. https://author24.ru/spravochniki/informatika/kodirovanie_informacii
4. <http://ivt.omgtu.ru/wp-content/uploads/2017/10/>

Ilvalar

1-ilova

Butun sonlarning ikkilik logarifmlari

<i>A</i>	<i>log₂A</i>	<i>A</i>	<i>log₂A</i>	<i>A</i>	<i>log₂A</i>
1	0,00000	38	5,24793	75	6,22882
2	1,00000	39	5,28540	76	6,24793
3	1,58496	40	5,32193	77	6,26679
4	2,00000	41	5,35755	78	6,28540
5	2,32193	42	5,39232	79	6,30378
6	2,58496	43	5,42626	80	6,32193
7	2,80735	44	5,45943	81	6,33985
8	3,00000	45	5,49185	82	6,35755
9	3,16993	46	5,52356	83	6,37504
10	3,32193	47	5,55459	84	6,39232
11	3,45943	48	5,58496	85	6,40939
12	3,58496	49	5,61471	86	6,42626
13	3,70044	50	5,64386	87	6,44294
14	3,80735	51	5,67242	88	6,45943
15	3,90689	52	5,70044	89	6,47573
16	4,00000	53	5,72792	90	6,49185
17	4,08746	54	5,75489	91	6,50779
18	4,16993	55	5,78136	92	6,52356
19	4,24793	56	5,80735	93	6,53916
20	4,32193	57	5,83289	94	6,55459
21	4,39232	58	5,85798	95	6,56986
22	4,45943	59	5,88264	96	6,58496
23	4,52356	60	5,90689	97	6,59991
24	4,58496	61	5,93074	98	6,61471
25	4,64386	62	5,95420	99	6,62936
26	4,70044	63	5,97728	100	6,64386
27	4,75489	64	6,00000	200	7,644
28	4,80735	65	6,02237	300	8,229
29	4,85798	66	6,04439	400	8,614
30	4,90689	67	6,06609	500	8,966
31	4,95420	68	6,08746	600	9,229
32	5,00000	69	6,10852	700	9,451
33	5,04439	70	6,12928	800	9,644
34	5,08746	71	6,14975	900	9,814
35	5,12928	72	6,16992	1000	9,965
36	5,16993	73	6,18982	10000	13,288
37	5,20945	74	6,20945		

2-ilova

- $p \log_2 p$ kattaliklarning qiymatlari

p	$-p \log_2 p$						
0.00	0.0000	0.26	0.5053	0.52	0.4906	0.78	0.2796
0.01	0.0664	0.27	0.5100	0.53	0.4854	0.79	0.2678
0.02	0.1129	0.28	0.5142	0.54	0.4800	0.80	0.2575
0.03	0.1517	0.29	0.5179	0.55	0.4744	0.81	0.2462
0.04	0.1857	0.30	0.5211	0.56	0.4684	0.82	0.2348
0.05	0.2161	0.31	0.5238	0.57	0.4623	0.83	0.2231
0.06	0.2435	0.32	0.5260	0.58	0.4558	0.84	0.2113
0.07	0.2686	0.33	0.5278	0.59	0.4491	0.85	0.1993
0.08	0.2915	0.34	0.5292	0.60	0.4422	0.86	0.1871
0.09	0.3127	0.35	0.5301	0.61	0.4350	0.87	0.1748
0.10	0.3322	0.36	0.5306	0.62	0.4276	0.88	0.1623
0.11	0.3503	0.37	0.5307	0.63	0.4199	0.89	0.1496
0.12	0.3671	0.38	0.5304	0.64	0.4121	0.90	0.1368
0.13	0.3826	0.39	0.5298	0.65	0.4040	0.91	0.1238
0.14	0.3971	0.40	0.5288	0.66	0.3957	0.92	0.1107
0.15	0.4105	0.41	0.5274	0.67	0.3871	0.93	0.0978
0.16	0.4230	0.42	0.5856	0.68	0.3784	0.94	0.0839
0.17	0.4346	0.43	0.5236	0.69	0.3694	0.95	0.0703
0.18	0.4453	0.44	0.5211	0.70	0.3602	0.06	0.0565
0.19	0.4552	0.45	0.5181	0.71	0.3508	0.97	0.0426
0.20	0.4644	0.46	0.5153	0.72	0.3412	0.98	0.0286
0.21	0.4728	0.47	0.5120	0.73	0.3314	0.99	0.0140
0.22	0.4806	0.48	0.5083	0.74	0.3215	1.00	0.0000
0.23	0.4877	0.49	0.5043	0.75	0.3113		
0.24	0.4941	0.50	0.5000	0.76	0.3009		
0.25	0.5000	0.51	0.4954	0.77	0.2903		

Yasovchi polinomlar jadvali

Nº	Daraja	Polinom	Ikkilik ketma-ketlik
1	1	$x + 1$	11
2	2	$x^2 + x + 1$	111
3	3	$x^3 + x + 1$	1011
4		$x^3 + x^2 + 1$	1101
5	4	$x^4 + x + 1$	10011
6		$x^4 + x^3 + 1$	11001
7		$x^4 + x^3 + x^2 + x + 1$	11111
8	5	$x^5 + x^2 + 1$	100101
9		$x^5 + x^3 + 1$	101001
10		$x^5 + x^3 + x^2 + x + 1$	101111
11		$x^5 + x^4 + x^2 + x + 1$	110111
12		$x^5 + x^4 + x^3 + x + 1$	111011
13		$x^5 + x^4 + x^3 + x^2 + 1$	111101
14		$x^6 + x + 1$	1000011
15	6	$x^6 + x^3 + 1$	1001001
16		$x^6 + x^4 + x^2 + x + 1$	1010111
17		$x^6 + x^4 + x^3 + x + 1$	1011011
18		$x^6 + x^5 + 1$	1100001
19		$x^6 + x^5 + x^2 + x + 1$	1100111
20		$x^6 + x^5 + x^3 + x^2 + 1$	1101101
21		$x^6 + x^5 + x^4 + x + 1$	1110011
22		$x^6 + x^5 + x^4 + x^2 + 1$	1110101
23	7	$x^7 + x + 1$	10000011
24		$x^7 + x^3 + 1$	10001001
25		$x^7 + x^3 + x^2 + x + 1$	10001111
26		$x^7 + x^4 + 1$	10010001
27		$x^7 + x^4 + x^3 + x^2 + 1$	10011101
28		$x^7 + x^5 + x^2 + x + 1$	10100111
29		$x^7 + x^5 + x^3 + x + 1$	10101011
30		$x^7 + x^5 + x^4 + x^3 + 1$	10111001
31		$x^7 + x^5 + x^4 + x^3 + x^2 + x + 1$	10111111
32		$x^7 + x^6 + 1$	11000001
33		$x^7 + x^6 + x^3 + x + 1$	11001011
34		$x^7 + x^6 + x^4 + x + 1$	11010011
35		$x^7 + x^6 + x^4 + x^2 + 1$	11010101
36		$x^7 + x^6 + x^5 + x^2 + 1$	11100101
37		$x^7 + x^6 + x^5 + x^3 + x^2 + x + 1$	11101111

Atamalarning rus, o‘zbek va ingliz tillaridagi izohli lug‘ati

Atama	Sharhi
Абстрактное представление данных Ma'lumotlarni abstrakt ifodalash Abstract representation of data	Принцип определения типа данных через операции, которые могут выполняться над объектами данного типа. При этом вводятся следующие ограничения: значения объектов могут модифицироваться и наблюдаться только путем использования этих операций. Ob'ektlarning berilgan turi ustida bajarilishi mumkin bo'lgan amallar orqali ma'lumotlar xilini aniqlash prinsipi. Bunda quyidagi cheklashlar kiritiladi: ob'ektlar mavqeい faqat ushbu amallar yordamida modifikatsiyalanishi va kuzatilishi mumkin.
Бит (двоичный код) Bit (ikkili kod) Bit (binary)	The principle of determining the type of data through the operations that may be performed on given objects type. In this case the following restrictions can be considered: the values of objects can be modified and observed only by using these operations. Минимальная единица количества информации в компьютере, равная одному двоичному разряду. Kompyuterdagi bitta ikkili xonaga teng axborot miqdorining minimal birligi. The minimum unit amount of information into a computer, which is equal to one binary digit.
Бит достоверности Haqiqiylik biti Validity bit	Разряд, добавляемый к слову в памяти компьютера для указания достоверности информации. Axborot haqiqiyligini ko'rsatish maqsadida kompyuter xotirasidagi so'zga qo'shiladigan bit. Bit that is added to a word in the computer memory for indicating the

	reliability of the information.
Бит защиты Himoya biti Protection bit	Двоичный разряд в ключе памяти, устанавливающий защиту соответствующего блока памяти от записи либо от выборки и записи Xotiraning mos blokiga yozish yoki undan tanlash va unga yozishdan himoyalash uchun o'rnatiladigan xotira kalitidagi ikkili xona. Bit in the key memory, setting protection according memory block from record or chose and record.
Бит контроля на четность Juftlikka tekshirish biti Parity bit	Контрольный бит, добавляемый к данным для контроля их верности таким образом, чтобы сумма двоичных единиц, составляющих данное, включая и единицу контрольного бита, всегда была четной (либо всегда нечетной). Ma'lumotlardagi ikkili birliklar yig'indisi doimo juft (yoki doimo toq) bo'lishligini ta'minlash maqsadida ularga qo'shiladigan nazorat biti. To provide the binary digits sum of the information which is always an even (or always odd) the additional control bits
Бит маски Niqob biti Mask bit	Сочетание битов, устанавливаемых в нулевое или единичное значение для разрешения или запрета определенных операций либо для проверки или изменения содержимого поля. Ma'lum amallar bajarilishiga ruxsat berish yoki rad etish yoki hoshiya tarkibini tekshirish yoki o'zgartirish uchun nul yoki bir qiymatiga o'rnatiluvchi bitlar birikmasi. A combination of bits set to zero or single value to enable or disable certain operations or to inspect or modify the contents of the field.

Бит управления доступом Foydalinishni boshqarish biti Access control bit	Один из нескольких битов ключа памяти, сопоставляемых с ключом защиты при обращении к соответствующему блоку памяти с целью организации ее защиты. Xotirani himoyalashni tashkil etish maqsadida xotiraning mos blokiga murojaat vaqtida himoya kaliti bilan taqqoslanuvchi xotira kalitining bitta yoki bir necha biti
Блок данных Ma'lumotlar bloki Data block	Последовательность битов, имеющая фиксированную длину и используемая для представления данных в памяти или для их пересылки. O'zgarmas uzunlikka ega va xotirada ma'lumotlarni ifodalanishda yoki ularni jo'natishda ishlataluvchi bitlar ketma-ketligi. Bit sequence having a unchangeable length and its use to represent data in memory or for shipment.
Блок доступа к записи Yozishda foydalanuvchi blok Record access block	В «серия малых» компьютере структура данных в системе управления данными (СУД), содержащая запрос на доступ к записи файла СУД. “Kichik seriysi” kompyuterdag'i tarkibida faylni yozish so'rovi bo'lgan ma'lumotlarni boshqarish tizimidagi ma'lumotlar strukturasi.
Блок текста Matn bloki	The “small series” computer data structure data management system (DMS), containing a request for writing access to the DMS's file.
	Мултиграмма текста (текста открытого, текста шифрованного или

Text Block	промежуточного), составленная из подряд идущих знаков. Обычно текст разбивается на блоки одинаковой длины. Ketma–ket keluvchi belgilardan tuzilgan matn mul'tigrammasi (ochiq matn, shifrlangan matn, oraliq matn). Odadta matn uzunligi bir xil bloklarga ajratiladi.
Блокировка записи в память <i>Xotiraga yozishni blokirovka qilish</i> Memory write lock	Multigramma text (text open, encrypted text or intermediate), composed of contiguous characters. Usually the text is divided into blocks of equal length. Ситуация при обмене данными, характеризующаяся тем, что запись, читаемая с внешнего носителя, в основную память не переводится. Ma'lumotlar almashinuvidagi vaziyat bo'lib, tashqi eltuvchidan o'qiladigan yozuv asosiy xotiraga o'tkazilmaydi. Situation at information transfer, characterized in that the record read from the external media to the main memory is not translated.
